

---

ARNO  
GAYGER

---



---

QUVG'INDAGI  
KEKSA  
QIROL

---

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

UO'K: 821.112.2(436)-3  
KBK 84(4Avs)  
G 15

Tahrir hay'ati:

Naim Karimov, Umarali Normatov, Erkin A'zam,  
Xurshid Do'stmuhammad, Suvon Meliyev,  
Shuhrat Sirojiddinov, Nurboy Jabborov, Dilmurod Quronov,  
Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,  
Abdurahmon Jo'rayev

Tarjimonlar:

Mirzaali AKBAROV, Olim OTAXON


Gayger, Arno.

G 15 Quvg'indagi kekxa qirol. [Matn]: qissa va hikoyalar / Arno Gayger;  
tarjimonlar: M. Akbarov, O. Otaxon. – T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti,  
2020. – 160 b.

ISBN 978-9943-6339-8-8

Taniqli avstriyalik yozuvchi Arno Gaygerning ushbu – „Quvg'indagi kekxa qirol“ qissasi markazida muallifning otasi turadi. Asar o'quvchida otaga muhabbat, uni boricha sevish, qadriga yetish kabi tuyg'ularni uyg'otishi bilan ahamiyatlidir.

UO'K: 821.112.2(436)-3  
KBK 84(4Avs)



ISBN 978-9943-6339-8-8

© M. Akbarov, O. Otaxon (Tarj.).  
© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020.

## NASHRIYOTDAN

Biz o'tgan mingyilliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqimiz. Madaniyat, san'at, axloq, falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Burhoniddin Marg'iloniy, Ahmad Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati, tarixi, jahonshumul shon-shuhrati bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajdodlarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot tarziga doimo hushyor nigoh va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafakkir ajdodlarimiz jahon madaniyati, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazaridan chetda qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o'qib, uqishar ekan, o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganlari, xorij mutafakkirlari yozgan asarlarni tarjima qilganlari bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhimi, xorij madaniyati, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalariga nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqtayi nazarlari bo'lgan.

Bugun biz, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'tmishda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasini izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyati, san'ati, adabiyoti namunalari bilan izchil va tizimli tarzda tanishib borishimiz zarur.

Xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib „Ziyo nashr“ nashriyoti bir xayrli ishga qo'l urishga bel bog'ladi. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasri namunalarining yuz jildligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, itilyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz. Yuz jildlikda Ch. Dikens, L.N.Tolstoy, A. Dyuma, N.V.Gogol, O. de Balzak, A.P.Chexov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G.G.Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarlari bilan birga, S. King, U. Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Alp Dundar, Dino Butssati, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chandar, Abdul Muis, Y.Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarini o'qishga muyassar bo'lasiz.

Mazkur yuz jildlik jahon nasrining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimiy, Qodir Mirmuhamedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar o'g'irgan asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijodi namunalari ham o'rin olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratli tarjimonlar o'g'irmalariga bo'lgan ishonch va hurmatni xosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingan namunalari ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jildlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'naviyati va axloqiy o'lchamlariga muvofiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalari yuz jildligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon mutasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlar oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayrli niyat bilan boshlayotgan ishimizdagi juz'iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunoslarimiz, adiblarimiz va adabiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamaydilar.

Yaratgan Alloh ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, jonajon xalqimiz uchun manfaatli qilsin!

## QUVG'INDAGI KEKSA QIROL

### *Qissa*

Bobom meni tanimay qolganida olti yoshli bola edim. U pastda, bizning yonimizdagi qo'shni uyda istiqomat qilardi. Maktabga borayotib, yo'lni qisqartirish maqsadida ko'pincha bobomning bog'ini tikkalay kesib o'tar edim, shunda bobom ortimdan yog'och o'qталib qolar, norozi ohangda to'ng'illab qo'yardi. Ba'zan esa menga ko'zi tushishi bilan xursand bo'lib ketar, to'g'ri oldinga kelib, meni Helmut deb atay boshlardi. Shunda men nima deyishni bilmay, tek turib qolardim. Kunlarning birida bobom, nihoyat, bandalikni bajo keltirdi. Ushbu voqealar – xastalik otamda paydo bo'lmaguniga qadar – esimdan chiqib, unutilib ketdi.

Ruslarda shunday bir maqol bor: Hayotda xatolarimizdan bo'lak hech bir narsa boshqa qaytib kelmas ekan. Bu hodisa, ayniqsa, yoshimiz bir joyga yetganda kuchayib borarkan. Otamiz ham nafaqaga chiqqandan so'ng qandaydir g'alati bo'lib qolgan edi. Buni biz uning yon-atrofidagilarga bo'lgan har qanday qiziqishdan mosuvo bo'la boshlagan paytida sezib qoldik. O'zini tutishi, yurish-turishi, xulqi, fe'l-atvori, muomalasi bizlarga o'ziga xos, g'alati tuyuldi. Shu bois hama o'zini qo'lga olsin, deb bir necha yil davomida g'idi-bidi qilaverib holi-joniga qo'ymadik. Bugunga kelib shularni o'ylab turib, behuda chiranganimiz alam

qilib ketadi; chunki biz kasallikni bahona qilib, shaxs nafsoniyatiga tegib ketgandik. „Iltimos, unaqa qilib yurmagin!“ Bu gapni unga yuz martalab aytgandirmiz, u esa bizga sabr-toqat bilan quloq solar, taqdirga tan berib, o'zligini bo'yniga olsa, yengil tortadigandek ko'rinardi. Biroq u unutishdan butkul xalos bo'lolmas, esdalik, xotira qaydlaridan umuman foydalanmasdi, hatto dastro'molchasiga kimdir bildirmay tugun tugib qo'yayotgani haqida shikoyat qilishdan ham toymasdi. Binobarin, otam o'z ruhiy tushkunligiga qarshi hech qanday kurash olib bormagan, bu haqda loaqal biror marta bo'lsin, garchi u – bugungi kun nuqtayi nazari-dan olganda – kechi bilan to'qsoninchi yillarning o'rtalarida masala jiddiy ekanini anglab yetgan bo'lsa ham, gapirganini eslolmaymiz. Agar u bolalaridan birortasiga, shunaqa-shunaqa, miyam joyida emasga o'xshaydi, deb qo'yganda ham, biz barchamiz vaziyatga bundan boshqacharoq, ya'ni yaxshiroq yondashgan bo'larmidik. Shunday qilib, o'tgan ko'p yillar mobaynida otam sichqon, biz – sichqonlar, kasallik esa mushuk bo'lib, bir-birimiz bilan sichqon-mushuk o'ynab kelganmiz.

Nihoyatda asabga tegadigan, xavf-xatar, ishonchsizlik, shubha-gumon va noaniqliklarga to'la ilk davr, mana, har qalay ortda qoldi, garchand buni eslash men uchun hamisha ham og'ir bo'lsa-da, bir narsani, ya'ni taslim bo'lishda ham farq bo'lishini, bunga kurashishga ortiq xohish-istak qolmasligi yo mag'lub bo'lganini bilishlik sabab ekanini endi-endi tushunib yetyapman. Otam esa o'z-o'zini mag'lub bo'lgan deb hisoblardi. Umrining muayyan bir davriga yetib kelgach ruhiy quvvati ado bo'lib, endi u ichki bir kayfiyatga suyanib qolgandi; kuchli ta'sir qiladigan dori-darmonlar tan-

qis bo'lgan bir paytda kasallikka qarshi kurashda oila a'zolari uchun bu ham o'ziga xos, qulay, amaliy imkoniyat vazifasini o'tardi.

Milan Kundera<sup>1</sup> shunday deb yozadi: *Hayot deb atalmish mana shu muqarrar mag'lubiyat oldida uni tushunishga urinishdan boshqa ilojimiz qolmaydi.*

Demensiya<sup>2</sup> kasalligini, otam hozir uning o'rtacha holatida edi, men taxminan quyidagicha tasavvur qilaman: odam o'zini go'yo uyquasi buzilgandek, garang his qiladi, qayerdaligini bilolmaydi, tevarak-atrofidagi narsalar, yillar, odamlar, yer gir-gir aylanaveradi. Kishi o'zining qayerdaligini bilib olishga urinadi, biroq befoyda. Atrofida narsalar, marhumlar, tiriklar, xotiralar gir aylanaveradi, xuddi tushdagidek gallutsinatsiyalar<sup>3</sup> sodir bo'ladi, uzuq-yuluq gaplar eshilib turadi, lekin bari behuda – mana shunaqangi holat butun kun davomida ham hech bir o'zgarishsiz davom etaveradi.

Uyda qolgan paytlarimda biz farzandlar otamizga navbati bilan qarab turardik, uni, odatda, ertalab to'qqizga yaqin uyg'otardim. U o'rinda batamom faromushxotir holda yotaverardi, biroq yotoqxonasiga o'zi tanimagan odamlarning kirib-chiqishiga butunlay ko'nikib qolgandi.

– Qani, tura qolmaysizmi endi, – deyman unga samimiy ohangda va kayfiyatiga biroz nekbinlik baxsh etish umidida qo'shib qo'yaman:

– Hayotimiz qanday ajoyib-a.

Ishonqiramaygina o'rnidan turarkan:

<sup>1</sup> *Milan Kundera* – zamonaviy chex yozuvchisi, 1929-y.da Brno (Chexoslovakiya)da tug'ilgan. 1975-y.dan buyon Fransiyada yashaydi (shu va boshqa barcha izohlar tarjimonniki – M. A.).

<sup>2</sup> *Demensiya* – aqli zaiflik.

<sup>3</sup> *Gallutsinatsiya* – qoraxayol, yo'q narsalarning bor bo'lib ko'rinishi, eshitiishi yoki sezilishi.

– Balki, sen uchun shundaydir, – deydi u.

So‘ng paypoqlarini uzataman, u paypoqlarga qoshlarini ko‘targan ko‘yi bir zum hayron bo‘lib qarab turgach:

– Qani uchinchisi? – deb so‘raydi.

Unga kiyimlarini kiyishida yordamlashaman, u bunga monelik qilmaydi, vaqt esa o‘tib boradi. Shundan keyin uni oshxonaga olib boraman. Nonushtadan so‘ng unga soqolini olishini taklif qilaman, u esa menga ko‘zlarini qisib:

– Yaxshisi, men uyda qola qolay, – deydi. – Seni ko‘rish uchun yaqin orada kelolmasam kerak.

Otamga vannaxonaga olib boradigan yo‘lni ko‘rsataman. U bo‘lsa: „E Xudo, tavba, tavba“ deya vaqtdan yutishga intiladi.

– Soqolingizni olvoling, – yalinaman unga, – ko‘rganlar nima deydi.

U hardamxayollik bilan aytganlarimni qila boshlaydi.

Agarda bundan biron nima kutayotgan bo‘lsang...“, g‘o‘ldiraydi u va ko‘zguga qarab, tikka sochlarini ikkala qo‘li bilan shunaqangi qattiq ishqalaydiki, natijada sochlar bir tekis bo‘lib qoladi. Yana tag‘in oynaga qaraydi. „Deyarli yap-yangi“, o‘zicha jilmayib, kimgadir samimiy minnatdorchilik bildiradi.

Yaqin oradan boshlab, u kimgadir tez-tez minnatdorchilik bildiradigan bo‘lib qoldi. Bundan bir necha kun avval, sababini hech anglayolmadim, u menga shunday dedi: „Men senga oldindan minnatdorchilik bildiraman“.

Bunaqangi „yangi“ gaplarga men ham o‘z navbatida xushmuomalalik bilan: „Arzimaydi“, „Marhamat“ yoki „Bajon-u dil“ deya javob qaytaradigan bo‘ldim. Chunki odamni dovdiratadigan yoki sarosimaga soladigan



so'rab-surishtirishlardan ko'ra tasdiqlovchi javoblar ma'qulroq edi, zero bunday savollar, bordi-yu ularni fahmlab qolgudek bo'lsa, shaxsiy kamchiliklariga borib taqalar, unday javoblar esa hamma ishlar joyida ekanligini bildirib, otam ko'nglini birozgina tinchlantirardi.

Avvaliga bunday „moslashuv“lar holdan toydiradigan darajada og'ir va azobli kechdi. Negaki har qanday farzand o'z ota-onasini kuchli inson deb hisoblaydi, ularning hayot nohaqliklariga-da sabot bilan bardosh berishlariga ishonadi, sekin-asta paydo bo'layotgan kamchilik, oqizliklaridan esa hammadan ham ko'ra ko'proq aziyat chekadi. Biroq shunga qaramasdan, yangi rolinga tez orada ko'nikib, ancha o'rganib qoldim. Demensiyaga duchor bo'lgan bemor hayoti uchun yangicha tartib va mezonlar zarurligiga ishonch hosil qildim. Agar otam minnatdorchilik bildirmoqchi bo'lsa, marhamat, hech qanday vaj-korsonsiz minnatdorchilik bildiraversin, agarda u hamma meni tashlab ketdi, deb shikoyat qilmoqchi bo'lsa ham mayli, uning fikri dalillarga dosh bera oladimi-yo'qmi, bundan qat'i nazar, shikoyat qilaversin. Zotan, uning uchun demensiyadan bo'lak boshqa olam mavjud emas, buni tushunishimiz kerak. Shuning uchun ham oilaning bir a'zosi sifatida bemorning chalkash, chigal holatini inobatga olib, butun boshli bir qayg'u, g'am-g'ussani biroz bo'lsa-da yengillatishga urinib ko'rishgina qo'limdan kelardi, xolos. Otam mening olamimga kirib kela olmayaptimi, demak, men uning oldiga borishim kerak. U yoqlarda, uning ahvoli-ruhiyasi sarhadlari osha maqsadga yo'naltirilganlik va moddiylikka asoslangan bizning jamiyatimizdan narigi tomonlarda u mo'tabar zot, garchi umumiy o'lchov-mezonlarga ko'ra u qadar esli-hushli bo'lmasa ham, har holda ajoyib odam axir.

Bog' ichidan mushuk yurib o'tdi. Otam:

– Ilgari mening ham mushuklarim bo'lardi. Yolg'iz o'zimniki emas, albatta, shunchaki sherik sifatida.

Bir kuni undan ahvollar qalay, deb so'rasam, u shunday javob qildi:

– Mo'jizalar bo'lmaydi, lekin alomat bor narsa.

Undan keyingi gapiga aql bovar qilmaydi, xuddi tushdagi kabi uch-quyrug'i yo'q:

– Hayot muammolarsiz ham oson bo'lib qolmaydi.

Bunga nimayam deyish mumkin, Avgust Gaygerning shunchaki qochirim, kinoyasi va donishmandligi, xolos. Faqat bir narsaga achinasan, u ham bo'lsa uning odamni hayratga soladigan mana shunday hikmatli gaplari tobora kamayib boryapti. Ularning bora-bora yo'qolib borayotgani menga alam qiladi. Go'yo ko'p qon yo'qotayotgan otamni vaqt lupasi orqali kuza-tib turgandekman. Undan hayot, tiriklik tomib turibdi. Shaxsdan shaxsiyat tomchi-tomchi bo'lib sirqimoqda. Bu mening otam, meni boqib katta qilgan inson, degan tuyg'u hali zavol topgani yo'q. Biroq otamni ilgarigi qiyofasida ko'rolmayotgandim, bu, ayniqsa, oqshomlari yaqqol sezilib qolardi. Tongning nimalar olib kelishini kechening o'zidayoq ilk sezging bilan his eta olasan. Chunki qorong'ilik tushishi bilan qo'rquv bosib keladi. Shunda otam quvg'indagi keksa qirol yanglig' nima qilishini bilmay, u yoqdan bu yoqqa sarosar kezinib, yurib chiqadi. Ko'zi tushgan hamma narsa unga qo'rqinchli, mo'rt, beqaror, liqillagan bo'lib tuyuladi, xuddi bir lahzadayoq yorilib, bo'linib, parchalanib, erib, yo'q bo'lib ketadigandek. Go'yoki uyingdagi hech bir narsa o'z joyida emasdek.

Oshxonada o'tirgan ko'yim noutbukda yoza boshlayman. Qo'shni xonadan televizor ovozi eshitiladi. Otam dahlizdan oyoq uchida yurib o'tib, unga quloq soladi va o'zicha ming'irlaydi:

– Hech nimani tushunib bo'lmaydi-ya.

So'ng asta oshxonaga kirib keladi va o'zini go'yo yozuvimni kuzatayotganga soladi. Biroq ko'z qirimni tashlab, sezib turibman, ko'nglini ko'tarishim kerak.

– Birozgina televizor ko'rmaysizmi? – so'rayman undan.

– Undan nima foyda?

– Shunchaki ermak-da.

– Yaxshisi, uyga ketmoqchiman.

– Siz hozir uydasiz.

– Biz o'zi qayerdamiz?

Men unga ko'channing nomini va uy raqamini aytaman.

– Shundayku-ya, lekin bu yerda hech qachon bo'lmandekman.

– Mana shu uyni elliginchi yillar oxirida qurgansiz, o'shandan beri shu yerda yashab kelyapsiz.

Uning afti burishdi. Bu ma'lumotlar uni qoniqtirmadi, shekilli. Ensasini qashib:

– Men senga ishonaman, lekin bir shartim bor. Uyimga bormoqchiman.

Uning yuziga tikilib qarayman. Xijolat bo'layotgani shundoqqina sezilib turibdi, buni yashirishga urinayotgan esa-da, peshonasidagi terlar oshkor qilayotgandi. Salkam vahimaga tushib qolayozgan bu odamga qarab turib a'zoyi-badanim muzlab ketdi.

O'z uyimda emasman, deb iztirob chekish – ushbu kasallikning namoyon bo'lishidir. Buni men shun-

day tushunamanki, demensiya bilan og'rigan bemor o'zining ichki buzilishi, ruhiy parokandaligi sababli xotirjamlik tuyg'usidan mahrum bo'lib, shu xavfsizlik, xotirjamlik bor joyni qo'msayveradi. Ana shu asabiy hayajon eng yaqin, qadrdon makon-maskanlarda ham bosilavermagach, hatto o'z uyingdagi to'shak ham ortiq kerak bo'lmay qoladi. Xullas, Marsel Prust<sup>1</sup> ta'kidlab o'tganidek, yo'qolgan jannat haqiqiy jannat hisoblanarkan. Mazkur holatda yashash joyingni o'zgartirishdan ham hech qanday naf yo'q. Ehtimol, ashula aytish bilan birozgina chalg'ish mumkindir. Demensiyaga duchor bo'lgan kishilar kuylashni yoqtirishadi, chunki qo'shiq ko'ngilni xushlaydi. Kuy-qo'shiq, bu – his-hayajon, jo'shqinlik, ta'bir joiz bo'lsa, moddiy olamdan tashqaridagi vatandir.

Kezi kelganda shuni ham aytish kerakki, bunday bemorlar xuddi yosh bolaga o'xshab ketadi – bamisoli istioralardan voz kechilgan matn; bu esa achinarli, chunki katta yoshdagi odam hech qachon qaytadan bolaga aylanib qolmaydi, binobarin, oldga qarab rivojlanish bola tabiatigagina xosdir. Bolalar qobiliyatga erishib borsalar, demensiya bilan og'rigan bemorlar layoqatini yo'qota boradilar. Bunday bemorlar bilan bo'lgan suhbatda yo'qotish sari yuz tutsang, bolalar bilan muloqotda taraqqiyot sari nigoh tashlaysan. Asl haqiqat shuki, qarilik hech nimani qaytarib bermaydi, u bamisoli yaxmalak uchishga mo'ljallangan qiya tepalik, shunisi ham borki, keksalik davri cho'zilgan sayin tashvishlar ham ortib boraveradi. Men CD-pleyri ni qo'yaman. Singlim Helga xalq qo'shiqlaridan iborat to'plamni olib kelib qo'ygan.

---

<sup>1</sup> *Marsel Prust* – mashhur fransuz yozuvchisi (1871–1922).

*Bir zamonlar besh yovvoyi oqqush –  
Sariq aravada uchib borarkan...*

Ba'zan hiyla-nayrangimiz ham ish berib qoladi. Yarim soatcha shodon ming'ir-ming'ir xirgoyi qilamiz. Musiqa „yuqdi“ shekilli, qariyaning avzoyi birdan o'zgaradi, buni ko'rib kulgim qistaydi. Fursatdan foydalanib unga o'zimcha „dirijyorlik“ qilgan bo'lib, asta yotoqxonasiga boshlayman. Mana endi kayfiyati ancha yaxshi, garchi zamon, makon va voqea-hodisalar to'g'risidagi tasavvuri hamon o'zgarmagan esa-da, bu narsalar hozircha uni bezovta qilmaydi.

G'olib bo'lmoq emas, chidamoq kerak ekan, o'ylayman o'zimcha. Qarasam, pijamani yechmay tek turibdi. Nima qilish kerakligini aytganimdan keyin ko'rpa orasiga asta sirg'alib kirarkan, dedi:

– Eng muhimi, bu yerda uxlash uchun joy bor ekan.

U atrofiga alanglab, qo'lini ko'tardi va faqat o'zi uchungina mavjud bo'lgan kim bilandir salomlashgach qo'shib qo'ydi:

– Bu yer ham yomon emas ekan, chidasa bo'ladi.

Ishonsangiz, o'sha kundan boshlab o'zim ham xuddi padari buzrukvorimga o'xshab holdan toyib, qattiq charchab qoladigan bo'ldim.

– Ahvollar qalay, dada?

– Nima desamikin, yomon emas. Shunchaki birmavi, bu haqda nima ham deya olardim.

– Xo'sh, vaqt o'tishi haqida nima deysiz?

– Vaqt o'tishi deysanmi? Uning tez yoki sekin o'tishining, aslida, menga hech qanday farqi yo'q. Men bu masalalarda da'vogarlik yoki talabchanlik qilolmayman.

Garchi oradan bir necha yillar o'tib ketgan bo'lsa-da, ushbu xastalikning paydo bo'lish sabablari xayolimga

hanuz ko'lanka tashlab, meni ta'qib etib keladi. Dera-  
zadan qishki sukunat cho'mgan bog'ga nazar tashlab,  
bo'lib o'tgan voqealarni eslarkanman, yo'l qo'yilgan  
xatolarning og'ir yuki yelkamdanda bosib keladi.

Otamizning xastaligi shunday bir chalkash-chigallik  
bilan boshlandiki, bo'layotgan o'zgarishlarga o'zimiz  
ham daf'atan to'g'ri baho berolmay qoldik. Ular de-  
hqoncha rivoyatdagi qazo misol yurganda „suyagi qir-  
sillasa-da“, lekin o'zi ko'rinmay asta pusib kirib keldi.  
Biz shovqinni eshitgandik, ammo eski, ko'hna uydagi  
shamolning ovozi bo'lsa kerak deb o'ylaganimiz.

Kasallikning dastlabki belgilari to'qsoninchi yillar  
o'rtasida namoyon bo'lgan, biroq biz buning sabablarini  
o'z vaqtida to'g'ri izohlay olmaganmiz. Ayvonli uyi-  
mizni ta'mirlash chog'ida otam avvalgi (suv) tindirgich  
xonalarining beton qopqoqlarini joyiga qo'yish uchun  
uringanini, biroq bir o'zi yolg'iz ko'tara olmay, ularni  
urib sindirganini hali-hanuz afsus-nadomat bilan eslay-  
man. O'shanda, bu birinchi marta emasdi, men jo'rttaga  
qilyapti deb o'ylab, baqirib berganman. Shundan keyin-  
gi ishlarga ortiq yuragim betlamay, qarashish o'rniga  
muntazam ravishda uydan chiqib ketaverganman. Yana  
bir voqea – Shveysariya radiosi muharriri tashrif buyur-  
gan kun esimda qolgan. 1997-yilning kuzi, birinchi ro-  
manim bosilib chiqqan kezlar edi. Men kitobdan bir bob-  
ni o'qib berishim, muharrir esa matnning magnit tasmasiga  
yozib olishi lozim edi, shu bois peshindan keyin uyda  
shovqin bo'lmasin, deb otamdan iltimos qildim. Yo-  
zuvga endi kirishgan ham edikki, ustaxonada birdaniga  
taraqa-turuq boshlanib qolsa bo'ladimi... Uzluksiz, be-  
to'xtov taqillash to mikrofon o'chirilgunga qadar davom  
etsa deng. Shunda o'z otamning bunday nazar-pisandsiz

xatti-harakatiga g'azabim qo'zib, gapning ochig'i, undan nafratlangan ham edim. Shu voqeadan keyin bir necha kun mobaynida gaplashish u yoqda tursin, ko'ziga ham ko'rinmay yurdim. Parol esa oddiy edi: sabotaj.

Akam Peter qachon uylangan edi-ya? Ha, 1993-yil. To'y kuni otam me'yordan ortiq ovqat yeb qo'ygan, o'n yo o'n besh bo'lak tortni paqqos tushirib, qorni qattiq og'rib qolgandi. Kech oqshom uyga arang sudralib kelib, shu yotgancha ikki kun kuchli og'riqdan to'lg'anib chiqqan. Hatto o'lib qolaman, deb vahima qilgan, bizlar esa o'shanda ko'p yegan ketga zo'r, ajab bo'lsin, deya kulib qo'ya qolgandik. Shu tariqa kundalik qobiliyatidan asta-sekin mahrum bo'lib borayotganini, afsuski, hech kim sezmay qolgan. Xastalik o'sha paytda otam uzra o'z to'ri-ni sekinlik bilan, bildirmay yoya boshlagan, u esa to'rga chuvalashib, ilinib bo'lgan, biz buni payqamay qolganmiz.

Biz bolalar o'sha belgi-alomatlarni noto'g'ri, teskari tushunib yurgan paytlarimizda, otamiz bechora o'zida sodir bo'layotgan g'alati o'zgarishlarni sezib, o'zini allaqanday adovat, g'araz, xusumatga o'xshash yoqimsiz, jirkanch bir nima o'rab-chirmab olayotganini his qilib, bundan iztirob chekkan, qattiq qo'rquvga tushgan, biroq himoyalaniishga ojizlik qilgan. Bu haqda u bizga bir og'iz aytmagan, bu esa uning damduzligiga, his-tuyg'ularini ochiq izhor qilishga ham xalal bergan bo'lsa kerak, ehtimol. Umuman, bu narsa uning tabiatiga yot bo'lgan, u hech qachon bunday qilmagan, endi esa ish o'tgan, biron chora ko'rish uchun ancha kech edi. Eng yomoni, baxtga qarshi, ana shunday noqobillik otadan bolalarga ham o'tgan, shu sababli ular tomonidan hech qanday arzigulik zarba ham berilmadi. Hech kim yurak yutib bunga jur'at qilolmadi. Biz voqea-hodisalarni o'z holiga

tashlab qo'ydik. Ha, otamiz g'alati holatlarni boshdan kechirayotgandi. Biroq unda bunday holatlar ilgaritdan ham har doim bo'lib kelganmidi? – Yo'q, uning o'zini tutishi, yurish-turishi joyida edi.

Aslida esa barcha g'alati voqealar eng avvalo, muayyan xarakterga xos xususiyatlarning yangi vaziyat bilan yuzma-yuz kelishi natijasi bo'lib tuyuldi. Otam keksaygan, biroq eng yomoni, uni o'ttiz yil birga yashagan ayoli tashlab ketgan, unda biron-bir ishga rag'bat yetishmasligi, ehtimol, shundan edi.

Ajralish unga ancha og'ir bo'lgan, o'zi bunga qat'iy qarshi turgan, chunki birinchidan, onam bilan doim birga yashashni xohlagan, boshqa tarafdin esa ikki o'rtada mustahkam rishtalar ham mavjud bo'lgan. Faqat u ma'lum bir urf-odat, an'analarning vaqt o'tishi bilan eskirib, taomildan chiqishini yetarlicha anglab yetmagan. Bugungi kunga xos pishiq-puxta hayotiy rejalar, niyat-maqсадlardan keskin farqli o'laroq, bundan bir necha o'n yillar oldingi ahd-u paymonga mahkam yopishib olib, ichgan qasamini buzishni istamagan. Shunga ko'ra ham u o'zidan o'n besh yosh kichik ayoliga qaraganda butunlay boshqa bir avlodga mansub bo'lgan. Ayol kishi uchun esa obro' yoki va'da muhim bo'lmagan, balki qayerda baxtli hayot kechirish mumkin bo'lsa, shunga qarab tavakkal qilingan. Onam uyni tark etgach, otamning bu ko'ngilsizlikka botinan sabot bilan chidab, bardosh berishdan boshqa chorasi qolmagan.

Onam uydin ketib qolgandan so'ng, otam qandaydir, xayol suradigan bo'lib, kundalik ishlarga ham qo'li bormay qoldi. Go'yo so'nggi imkoniyatdan ham mahrum bo'lgandek edi. Farzandlari doim ish bilan band ekanligini, shuning uchun ularning qo'shimcha yumush-




larga vaqtlari yo'qligini bilishiga qaramasdan, hattoki bog'dagi ishlarni ham tashlab qo'ydi. Shunday qilib, otamizning haqiqatan ham barcha narsadan ko'ngli so-vib, xalos bo'lib oldi, unda ilgarigi g'ayrat-shijoat, ishti-yoq-intilish, qunt-hafsaladan asar ham qolmadi. Hayoti davomida yetarli darajada mehnat qilib qo'yganini, endi ishlash navbati bolalarniki ekanini ochiq-oydin ma'lum qildi.

Ushbu bahonalar boshqa narsalar bilan bog'liq bo'lsa-da, bizlarni biroz ranjitdi, chunki bu kamchiliklarni bekorchilikdan kelib chiqqan deb o'yladik. Aslida esa buning butunlay teskarisi, bekorchilikning bosh sabab-chisi – kamchiliklar edi. Zero, mayda-chuyda ishlar, vazifalar boshidan oshib-toshib yotardi, qarasaki, nazoratni yo'qotib boryapti, shunda har qanaqangi mas'uliyatdan voz kechib qo'ya qolgan.

Kunda qiladigan ishi – pomidorlarni sug'orish o'rninga endi u vaqtini uzzukun pasyans<sup>1</sup> hamda televizor ko'rish bilan o'tkazardi. O'shanda oyoqqa turib olish uchun yelib-yugurib yurgan paytlarim, bu yoqda esa otamning zeriktiradigan, jonga tegadigan bir xil qiliqlari, menga ular borib turgan beparvolik, loqaydlikdan boshqa narsa emasdek tuyulardi. Pasyans va televizor, axir shuyam ish bo'ldimi? – o'ylardim men va o'z e'tirozlarimni yashirib ham o'tirolmasdim. Otamni avradim, achitib gapirdim, kerak bo'lsa g'idi-bidi qildim, avvalgi kuch-g'ayratini yo'qotib qo'yganini, lanjligini yuziga soldim, biroq uni dovdirash va ma'yus-mahzunlik holatidan xalos qilish yo'lida qilgan barcha harakatlarim chippakka chiqdi. U jala o'rtasida qolgan yolg'iz o'tdek, turgan joyida tek turaverdi, miq etmadi.

<sup>1</sup> Pasyans – qarta bilan fol ochish.



Bregens ko'l sahnidagi ovoz yozish studiyasida bir muddat texnik bo'lib ishladim, o'shandayam yozib-chizib yurdim. Shu bois uyda ham bir necha oy bo'lishimga to'g'ri kelmagandami, bilmadim, ota-onam xonadonidan ancha uzoqlashib ketgan bo'larmidim. Shu zaylda oradan bir necha kun o'tgach, oilamiz boshiga cheksiz g'am-g'ussa tushdi. Aka-singillar birin-ketin joy topib, ko'chib ketishdi-yu, dadamiz nafas olayotgan havo siyraklashib qolganek bo'ldi.

2000-yildagi bizning ahvoli-ruhiyamiz, taxminan, ana shunday edi.

Xastalik nafaqat otamning miyasini kemirib borar, balki bolalik xotiramda saqlanib qolgan qiyofasiga ham putur yetkazayotgandi. Butun bolalik davrim mobaynida uning o'g'li bo'lishdan faxrlanib kelgan bo'lsam, endi esa uni ko'proq aqlizaif odam deb hisoblardim.

Jak Derrida<sup>1</sup> aytgan gap to'g'riga o'xshaydi:

Yozganda hamisha kechirim so'rashga to'g'ri keladi.

Hedvig xolamning aytishicha, bir kuni Emil – otamning olti aka-ukasidan eng kattasi – bilan uni ko'rgani borishibdi. Emilning qo'lida soch oladigan mashinka bilan lungi bo'lgan ekan, lekin dadam soch oldirganmi-yo'qmi, bunisi xolamning esida yo'q. Vaqt peshindan og'gan payt ekan. Otamning xonasidagi kushetka<sup>2</sup> ustida tomat qaylasi yuqi qolgan likobchani ko'rib, Hedvig xolam hayron bo'libdi. Bir mahal piyola otamning qo'lidan tushib ketib sinibdi, uning hayron bo'lib turganini ko'rgan xolam, siniqlarni yig'ishtirib olay deb supurgi qayerdaligini so'rabdi. U esa hech nima deya olmay termilib qarab turaveribdi, shu asnoda to'satdan

<sup>1</sup> *Jak Derrida* – fransuz faylasufi va adabiyot nazariyotchisi (1930–2004).

<sup>2</sup> *Kushetka* – yumshoq uzun kursi.

ko'zlarida yosh paydo bo'libdi. Shunda xolam hamma narsani anglab yetgan ekan.

Bu haqda ular ortiq gaplashishmagan. Otam o'zi bilan o'zi unsiz olishavergan. U hech qanday tushuntirishga ham, qochishga ham urinmagan – to Lurd<sup>1</sup> ziyoratiga qadar. 1998-yilda opa-singillaridan eng kattasi Mariya, uni hamma Milya deb chaqirardi, ukasi Erix va uning xotini Valtraud bilan (otam ayoli va bolalarini olib, hech qachon hech qayoqqa bormagan, chunki urushda go'yo butun dunyoni ko'rib bo'lgan emish) bu gal hayratlanarli tarzda nisbatan uzoq safarga otlangan. Yo'lda ular kechasi va ertalab ham ibodat qilib borishgan. Milya, aftidan, ko'p yurishga qiynalgan chog'i, o'shanda dadamga hazillashib:

– Men uchun ham yuraver, men esa sen uchun ham fikrlayveraman, – degan ekan.

\* \* \*

Eng yomoni, bizning vaziyatni tushunmaganimiz bo'ldi. Shuning uchun otamizni nainki xotira zaifligi va bahona bilan bog'liq muammolar, balki boshqa narsalar ko'proq qiynayotgani ma'lum bo'lgach, ahvolimiz biroz yaxshi tomonga o'zgargandek ko'rindi. Kundalik hayot yechib bo'lmas muammolarni ko'ndalang qo'yarkan, parishonxotirlik pand berishi turgan gap edi. Otam barvaqt turib, chala-yarim, telba-teskari yoki ustma-ust kiyinib olar, tush payti sovitilgan pitsani idishpidishi bilan kanalizatsiya quvuriga tashlab yuborar, paypoqlarini esa... sovitkichda saqlardi. Dahshatlarning butun ko'lami asta-sekin anglashilayotgan bo'lsa-da,

<sup>1</sup> Lurd – Fransiyaning janubiy-g'arbida, Gav-de-Po daryosi sohilida joylashgan xushmanzara shahar.

lekin biz uchun bir narsa, ya'ni dadamiz dardga so'z bermayotgani, balki demensiyadan azob chekayotgani ravshan edi. Ko'p yillar davomida mana shu fikr xayolinga ham kelmagan, endi o'ylasam, otam to'g'risidagi tasavvurim ushbu belgi-ishora yo'liga g'ov bo'lgan ekan. Bu qanchalik g'alati tuyulmasin, bunga sirayam ishonmagan bo'lardim.

Haqiqiy ahvolni anglab yetish barcha uchun yengillik baxsh etdi. Endi ortda qolgan yillardagi chalkashliklar uchun biz anglay oladigan izoh bor edi, faqat alam qiladigani – vaqt, mana shu g'alati hodisaga qarshi kurashda behuda ketgan vaqtga ichimiz achirdi, chunki bu vaqtdan bizlar ming barobar ma'niliroq foydalana olishimiz mumkin va lozim edi. Agar biz es-hushliroq, odatdagidan e'tiborliroq va qiziquvchanroq bo'lganimizda edi, nafaqat otamiz, balki o'zimiz ham bunaqangi ko'p qiyinchiliklarga duchor bo'lmagan, eng muhimi, hushyorroq bo'lib, xastalik haqida ko'proq qayg'urib, so'rab-surishtirgan bo'lardik.

Kasallikning boshlanishi o'zi bilan butkul muvaffaqiyatsizliklar, ulkan yo'qotishlarga to'la qo'rqinchli bir davrni boshlab keldi. Bu dadamizning hasbi-holi hamda butun umri davomida muhim sanalgan narsalarning g'oyib bo'lishiga ham taalluqlidir. Masalan, elliginchi yillarda chiqqan uch tezlikda harakatlanadigan ulov. Dadam mana shu ulovda necha yillar qor-yomg'ir demay jamoa idorasiga ishga qatnagan – u yerda yigirma olti yoshidan boshlab kotib lavozimida mehnat faoliyatini boshlagan. Yana bevosita urushdan keyin tushgan surati – unda vazni qirq kilogrammcha chiqadigan yigitcha aks etgan. Padari buzrukvorimiz uni onasining fotosurati bilan birga hamyonida salkam

oltmish yil asrab kelgan. Mehr qo‘ygan narsalari mana endi yo‘qlikka mahkum edi.

Adrian ismli tanish qizga ushbu surat haqida gapirib bergan edim. Dadam o‘shanda o‘n to‘qqizga to‘lgan, ruslarning gospitalidan endigina ozod bo‘lgan payti. U yerda ichburug‘ bo‘lib qolib, parvarish tufayli emas, balki tasodif tufayli o‘lim yoqasidan qaytib, arang tuzalib chiqqan, sochlari kalta qirqilgan, tim qora ko‘zlaridagi ifodani so‘z bilan tasvirlash qiyin.

Volfurtga otlanganimda, Adrian o‘sha suratdan nusxa olib qo‘ysang-chi, deb qoldi. 2004-yil edi. Berlindan qaytishim bilan, tushdan so‘ng uyga keldim. Otam bu paytda odatdagidek bog‘da Ursula va Peter huzurida nabiralarning o‘yinini tomosha qilib o‘tirardi. Fursatdan foydalanib, kurtka va shimlarining cho‘ntaklarini kavlab, g‘aladonlar va javonlarni ham xuddi bolaligimdagidek timirskilab chiqdim, biroq hech narsa topolmadim. Hayron bo‘lib, Helgaga qo‘ng‘iroq qilsam, hamyon ancha yillardan buyon ko‘rinmay qolgan, ehtimol, yo‘qolgan bo‘lsa kerak, dedi. Shunda haf-salam pir bo‘lib, achchig‘im chiqdi, o‘z vaqtida e‘tibor bermaganimizga nainki o‘zimizdan, balki barchamizdan ham xafa bo‘lib ketdim.

Kechqurun otam bilan o‘tirgan edik, surat haqida so‘z ochdim. U bo‘lsa kutilmaganda allaqayoqdagi bo‘lmag‘ur gaplarni gapirib, Misrda va Gretsiyada bo‘lgani, u yoqlarda shimlarini o‘g‘irlatib qo‘ygani haqida hikoya qila ketdi.

– Nima-nima? Qayerda? Qanaqasiga? – so‘roqqa tutdim uni qizishib, biroq qiya tepaliklar osha nafaqat fotosurat, balki unga qo‘shib o‘zining butun o‘tmishini

ham „tushirib qoldirgani“ menga shundog‘am ayon edi.

– Dada, nima, Misrda bo‘ldim demoqchimisiz?

– Albatta, faqat o‘z ixtiyorim bilan emas, balki bolalarni qishloqqa jo‘natish bahonasida, bildingmi.

– U yoqlar qalay ekan, yoqdimi? – so‘rayman bo‘shashib.

– Zerikarli ekan, – deydi u yelka qisib. – U yerda men hech narsani ko‘rmadim, hech nimani sezmadim. Men u yoqda hech narsa bilmaydigan, bekorchi va omi odam edim, xolos.

– Bolaligingiz qanday o‘tgan, dada?

– Hm. Yaxshi, beozor o‘tgan. Bizda hamma narsa jo‘n, oddiy bo‘lgan, tur, son va ta’sir jihatdan ham.

– Bu haqda tez-tez eslab turasizmi?

– Ko‘p narsalarni eslay olaman, lekin hammasini ham bilaman deyolmayman. Balki, barchasidan voz kechgan jo‘lsam kerak.

– Otangiz haqida nimalar deya olasiz?

– Hozirda hech narsa.

– Otangiz bo‘lgan-ku axir, shundaymi?

– Ha, albatta.

– U hayotingizda siz uchun o‘ta muhim shaxs bo‘limganmi?

– Bo‘limgan desam ham bo‘ladi. Chunki unda muhim fikrlar juda oz bo‘lgan. U juda kam narsaga bosh qotirgan.

– Onangiz-chi?

– Onam! Undan men, avvalo, kamtarlikni o‘rganganman. Onam kamtar, kamsuqum, iltifotli va samimiy ayol bo‘lgan. Uni barcha yaxshi ko‘rardi.

Avgust ismli bolalar hozir onda-sonda uchraydi. Otamni esa sakson besh yil mobaynida, demak, bir umr

ota-onasi, aka-singillari, turmush o'rtog'i, hamkasblari shu nom bilan, ya'ni Avgust deb chaqirishgan, faqat maktabdoshlari unga qisqacha Gustl<sup>1</sup> deb murojaat qilishgan.

U 1926-yil 4-iyulda Forarlbergdagi<sup>2</sup> Rayn vodiysida joylashgan Volfurt qishlog'ida, mayda dehqon (vorislik huquqi mavjudligi tufayli u yerda katta yer egalari bo'lmagan) oilasida o'n farzandning uchinchisi bo'lib dunyoga keldi. Otamning ota-onasi uchta sigir, mevazor bog', asalari, ekinzor, o'tloq, ozroq o'rmondan iborat mol-mulka hamda uch yuz litr araq ishlab chiqarish huquqiga ega bo'lgan. Biroq ko'pbolali oila uchun bu bilan tirikchilik o'tkazish qiyin edi. Adolf Gayger, Daett<sup>3</sup>, yangi tashkil etilgan elektr energiya sanoatida xodim bo'lib ishlar, velosipedda quyi Rayn vodiysi qishloqlari bo'ylab g'izillab yurib, xonadonlardagi elektr hisoblagichlarning qancha yozganini qayd etish bilan mashg'ul bo'lar, shu tariqa katta oilaga ko'maklashib turardi.

Mabodo velosiped kamerasiga mix-pix kirib, teshilib qolgudek bo'lsa, ulovni uy oldida qoldirar, bolalardan birontasi, ko'pincha Avgust teshilgan joyni tezda yamab qo'yardi. Mening o'zim ham deyarli shunday qilardim, velosipedim kamerasi teshilib qolsa, uyimiz oldiga olib borardim, otam uni yamab, sozlab qo'yar edi. Otam ota-onasiga qanday bo'ysungan bo'lsa, buni qarangi, u endi bolalariga ham xuddi shunday quloq solishga majbur bo'layotgandi. Bolalari esa butunlay boshqa bir olam uchun tug'ilgandek, go'yo ishning ko'zini biladigandek edilar.

<sup>1</sup> *Gustl* – Avgustning erkalatib aytilishi.

<sup>2</sup> *Forarlberg* – Avstriyadagi tarixiy viloyat, o'lka.

<sup>3</sup> *Daett* – (avstr.) so'zlashuv tilida „buva“, „bobo“ degani.

Bobomni hisob-kitobga usta, lekin qobiliyati o'rtamiyona va u qadar kuchli, sog'lom ham bo'lmagan deyishadi. Oilaning qolgan barcha a'zolari unga qaraganda chaqqonroq va kuchliroq bo'lishgan chamasi, bobom bechora bolalari va kampiri oldida azbaroyi uyalib qolmaslik uchun ishlashdan ko'ra ko'proq buyruq berishni yaxshi ko'rgan ekan. Shuning uchun ham u biron-bir ishni qanday bajarishni tushuntirib o'tirmagan, buning o'miga faqat buyruq beravergan, o'sha ishni qanday qilsa yaxshi bo'ladi, bu haqda birovning fikriga quloq ham solmagan.

Shunday qilib, bobomning butun xatti-harakati, fe'l-atvori hukmfarmo bo'lib, aqldan ko'ra ko'proq kuch ishlatishni ma'qul ko'rgan. Shunga ko'ra bolalarning qochishga, chap berishga, qutulib qolishga bo'lgan xatti-harakatlarining ham chek-chegarasi bo'lgan. Biroq Milya bilan Paulning aytishlaricha, ba'zan bobodan o'tib qolgudek bo'lsa, unga tap tortmay gap qaytargan paytlari ham bo'lgan. Yoshi katta bolalar iloji boricha undan uzoqroq yurish payida bo'lishgan. Misol uchun yakshanba kuni bo'ladigan ibodatga undan uch daqiqa oldin yoki uch daqiqa keyin borishar, lekin zinhor u bilan birga borishmas ekan. Shuning uchunmi, bobom yosh bolalarga yaxshiroq munosabatda bo'lishga harakat qilar, ular bilan birga „tulki-tovuq“ o'ynar, ularni sayrga olib chiqardi. Biroq shunday bo'lsa-da ular bobomning shapaloqlarini ham bot-bot eslab turishadi. Bir kuni, 1937-yil bo'lsa kerak, Shvarsax soyidan o'tayotib, bobom poyabzalini yechishga eringanidan o'n to'rt yoshli Emilning yelkasiga minib olgan ekan.

Bobomni ko'p kitob o'qigan deyishadi. Biroq uning bu xususiyati negadir bolalariga „yuqmagan“. Aksincha, buvimning fazilatlarini „yuqumliroq“ bo'lgan ekan.



Otamning aytishicha, Mam<sup>1</sup> bobomga qaraganda aqliroq, mehribon, muloyim, samimiy, ozg'indan kelgan, biroq bitseps, ya'ni yelka bilan tirsakni harakatlantiradigan mushagi yaqqol ko'rinib turgan kuchli, chayir ayol bo'lgan. Otasining Volfurtda temirchilik ustaxonasi bo'lib, u kashtado'z bo'lmasidan avval, aka-ukalari bo'lmaganligi sababli temirchi otasiga yordamchilik qilgan. Ustaxona hov tepada, ko'hna qasr ortidagi o'rmon yoqasida joylashgan, unda ulkan charxpalak ham bo'lgan. Birinchi jahon urushidan oldin va urush paytida ham yuk mashinasi Dornbirndan material olib kelib tashlar, temirchining besh nafar qizi maktabdan kelgach, uzun temirlarni tik ko'cha bo'ylab ustaxonaga tashishardi.

Buvim kamgap, ko'zga tashlanishni yoqtirmaydigan ayol bo'lgan. Uni bolalari chuqur hurmat-ehtiromla bilan tilga olishadi, shu bois bo'lsa kerak, onalari haqida kam gapirishadi. Tereziya Gaygerni hamqishloqlari o'ta mehnatkash ayol sifatida eslashadi. Ustaxonada sandon yonida turib laxcha cho'g' bo'lgan temirni bolg'alab unga ishlov berardi, bundan tashqari ekin-tikin ishlari ga qarashar, undan ortib yosh bolalariga qarar, ularning jiqqa ho'l bo'lib ketgan yo'rgaklarini yuvar, bu ishlarni bitirgunicha o'zi ham qora terga tushib ketardi. Ba'zida nihoyatda charchab ketganidan kanapega<sup>2</sup> bir zum cho'zilgudek bo'lsa, meni besh daqiqadan so'ng uyg'otib qo'yinglar, derkan. Bolalar esa uyg'otishga ko'zlari qiyamay, onam dam olvolsin, deyisharkan.

Meva terishga borganlarida, buvim ish boshlashdan oldin: „Xudoyim ishimizga baraka bersin“, deya duo qilarkan. Irene – otamning kenja singlisi dalaga borga-

<sup>1</sup> Mam – (avstr.) so'zlashuv tilida „ona“, „ena“. „buv“ degani.

<sup>2</sup> Kanape – eski urfdagi oddiy, kichkina divan.

nida, o'sha davrlarni hamon eslab turadi. Aytishicha, dadada ishlayotgan paytlarida kattakon mevaqutiga yosh bolani yotqizib qo'yisharkan. Shu tariqa bolalar mevaqutida atak-chechak bo'lisharkan. O'sha mevaqutiga bobomning ismi-sharifi A.G. tarzida tamg'a qilib yozib qo'yilgan. Bu ishni uning temirchi qaynotasi bajargan. Bunaqa ishlar, ya'ni harflar yoki belgilarni kuydirib tamg'a bosish uning ixtisosliklaridan biri bo'lgan. Temirchining bunday belgi-tamg'alarini o'sha paytlarda Vengriya yoki Parijda ham uchratish mumkin bo'lgan, biroq shuncha mehnatga qaramasdan, Appensel, Bodenzee ko'li osha Lindau, havo ochiq bo'lgan paytda hatto Friydrihs'hafen ham ko'rinib turadigan tepalikda u qashshoqligicha qolgan.

Tereziya Gayger bolalariga doim shunday deb tayinlarkan: „Bemahalda yurmang, uyga vaqtli keling, basharti kech qolsangiz, meni uyg'otib yubormay, sekin kirib yotinglar“.

Oilada kun tartibi doim bir xil bo'lib, unga qat'iy riya qilingan. Bolalar barvaqt turishga odatlangan, shunday bo'lsa-da, ba'zida maktabga kech qolmaslik uchun g'izillab chopishlariga ham to'g'ri kelgan. Poyabzallar bir ahvolda, qishda yog'och poshnalarga qor yopishib qolaverganidan uni tez-tez qoqib turish kerak bo'lgan. Qor esa serob, ayniqsa avliyo Nikolay kuni<sup>1</sup> arafasida gupullab yog'ib berar va to bahorgacha erimay, ko'rpa bo'lib yotardi.

Nonushtada bolalarga iliq sut va non botirib yeyish uchun ribel<sup>2</sup> berilar, qahvani esa faqat buvim bilan bo-

---

<sup>1</sup>Avliyo Nikolay kuni – xalq udumlari bilan bog'liq bayram, 6-dekabrda nishonlanadi. Odatda, bayram arafasida, 5-dekabr oqshomida Qorbobo bolalarga sovg'alar ulashadi.

<sup>2</sup>Ribel – makka unidan tayyorlanadigan taom.

bom ichishardi. Yakshanba kuni dasturxonga barcha uchun asal tortilsa, bobomga boshqa kunlari ham berilardi.

Azaldan bolalarni qattiqqo'llik bilan tarbiyalab bo'lmaydi, ular qattiqqo'llikda tutib turiladi, degan gap bor. Xonadonda sigirlar ham o'tlatishga olib chiqilmas, balki molxonada boqilardi. Mollarga qarash bolalarning vazifasi bo'lsa, bolalarni boqish – ota-onaning vazifasi edi. Bugungi kun bilan taqqoslaganda, bolalarning ovqatlanishi ham yomon ahvolda edi. Ularga, odatda, sabzavot deyarli berilmas, ozgina go'sht, ko'proq sut, non va yog' berilardi. Birinchi meva pishishini barcha orziqib kutardi. Hatto bolalar tong payti uyg'onishib, bildirmay tashqariga chiqqan, ilk noklar pishib, tagiga tushmaganmikin deb poylagan, basharti bir nima topvolسا, topgan topaloq, deb bir-birlaridan qizg'anishgan paytlar ham bo'lgan.

O'sha davr shart-sharoitlari nuqtayi nazaridan olganda, bolalikning ana shunday muhtojlik va qiyinchiliklarining ham chek-chegarasi bo'lgan, albatta. Biroq eng yomoni, bolalarga ota-onalar tomonidan kamroq e'tibor qaratilardi. Bolalar soni nihoyatda oshib ketganligi bois, talab taklifdan ancha ustun turgan. Hamma narsani o'zaro bo'lishishga va baholi qudrat baham ko'rishga to'g'ri kelardi.

Shuningdek, bolaning qo'lidan ish keldi deguncha u ro'zg'orga yordamlashishga majbur edi. Kichkintoylar o'zlaridan kichikroqlarga qarashi lozim edi. Qo'shni-dan qarzga olingan ot egasidikiga o'tib ketmasligi uchun yugan suvlug'ini qattiqroq tortishga to'g'ri kelardi. Og'ildagi cho'chqa uchun bolalarni bolut daraxtining yong'og'i – cho'chqayong'oq terib kelish uchun

qamishzor botqoqlikka jo'natishardi. Yetti o'g'ilning o'rtanchasi Yozefni bir kuni eman daraxtining ostida behush yotgan holda topib olishadi. Ma'lum bo'lishicha, u yong'oq teraman deb daraxtdan yiqilib tushgan ekan. Bolalar oxurdan mol yemagan ortiqcha o't, poya, nishxo'rtlarni terib oladi. Ular aravachada Bregensga – bozorga olma olib borishadi. Uyga qaytayotib otam va undan bir yosh kichik Paul tentaklik qilib, galma-galdan aravachaga chiqib o'tiradi, navbatma-navbat „ot“ bo'lib aravachani sudraydi. Poshnasiga nag'al qoqilgan yog'och poyabzallar ovozi tosh yo'lda taqillab eshitiladi. O'shanda ko'chalar ham butkul bolalar ixtiyorida bo'lardi, deyish mumkin.

Xullas, biron-bir ish bilan band bo'lish degan iborani so'zma-so'z tushunish mumkin edi. O'g'il bolalarning aravachani sudrab kelayotganini ko'rgan qizlar ularning ustidan kulishgan:

– Qaranglar, eshaklar turganda otga na hojat!

Ish o'g'il va qiz bolalar o'rtasida taqsimlab berilgan. O'g'il bolalar ertalab molxonaga yo'l olishsa, qiz bolalar soat beshda turib, maktab vaqtigacha dalada o'toq qilishardi.

Bir kuni qattiq dovul turib, makkajo'xorizorni yop-pasiga yotqizib ketgan. Bolalar qo'llariga sim va qoziq-larni olib, butun kun bo'yi yotib qolgan ekinni turg'izish bilan ovora bo'lgan. Makka doni oilaga kundalik ribel pishirish uchun juda zarur edi.

Oilalar deyarli o'zini o'zi ta'minlar edi. Un, non-dan tortib to tuz, qandgacha o'zlaridan chiqardi. O'ta zarur narsalarnigina sotib olishardi, xolos. Hojat qog'ozi eski gazetlardan kaftdek-kaftdek qilib qirqib qo'yilardi, bu ishni ham bolalar bajarishardi. O't yoqishda tutan-

tiriq uchun ham qog'oz kerak bo'lardi. Ro'zg'orda bitta cho'chqa, bitta pechka bo'lib, axlatxonaga deyarli hech qanday chiqindi chiqmasdi.

Otamga qolsa bir umr jon deb mustaqil yashagan bo'lardi, chunki bu unga o'z muhrini bosgan dehqoncha yashash tarzining bir qismi bo'lib, unda mudom saqlanib qolgan, bu esa uning xotini hamda iste'mol va isrofgarchilik olamida o'sib-ulg'aygan farzandlariga yoqmasdi. Bir nima buzilib qolsa tuzatib, ta'mirlab, undan yana foydalanish, ehtiyojlarni qondirishni boshqa kunga qoldirish yoki ba'zi bir ehtiyojlardan umuman gap ochmaslik – ota-onalardagi bunday dunyoqarash bu yerlarda zavol topayotgan madaniyatlar sirasiga kirardi.

Rayn vodiysidagi katta uyning yerto'lasida qozon bo'lardi. Bolaligimda u yerda chelakni to'nkarvolib yoki bo'lmasam g'ola yo to'ngak ustida o'tirib, kattalarning araq tayyorlash jarayonini kuzatardim. Pechkada olovning chirsillab yonishini, suyuqlikning katta, qavariq shishalarga qulqullab quyilishini, uning qizib ketgan xona bo'ylab taraladigan xushbo'y hidini, qolaversa qattiq ishlab, qora terga botgan ishchilardan anqiydigan badbo'y hidni ham yaxshi ko'rardim. Faqat shugina emas, balki tashqaridagi o'rada asta soviyotgan quyqa-to'ponlardan qishki ayozda diydirab turgan nok daraxtining yalang'och shoxlari bo'ylab ko'kka o'rlayotgan bug', tutunlarni ham.

Otam va uning aka-singillari uchun bu mashg'ulot yana shunisi bilan ham „foydali“ ediki, bahonada qaynoq suvga ega chiqishardi. Issiq suv katta qo'sh-quloq orqali darhol ustaxonaga yetkaziladi, uning ortidagi simto'r ichida tovuqxona joylashgan. Bu yog'i endi

xuddi kovboylar haqidagi italyan cha filmdagi voqealarga o'xshab ketadi: bir yoqda araq hididan mast bo'lgan tovuqlarning qaqag'lashi, boshqa tomonda esa qip-yalong'och dehqon bolalarining iliq suvda sho'x-shodon cho'milishlari... ushbu manzara yiliga qariyb o'n marta cha takrorlanardi. Qolgan paytlarda esa barcha oshxonada – xonadonda yakka-yu yagona bo'lgan tog'orada sovuq suvga yuvinardi.

Otam bolalikdan o'rgangan hayot tarziga qattiq berilgan bo'lib, ulg'ayganda ham hamon o'sha eski to sda yuvinar, unga ikki bukilib olgan holda pishqirib, oh-ohlab, yuziga shaloplatib suv separd i. Yuvinib bo'lgach, artinayotib sochiqni ko'rsatkich barmog'i bilan quloqlariga chuqur tiqib, shunaqayam kavlardiki, ko'rib turib rahming kelib ketardi. Bular – an'anaviy tasodif tufayli esimda qolgan, bamisoli hosili yig'ib olingan daladagi yakkam-dukkam cho'p, giyohlar singari ar-zimas xotiralardir.

1938-yilda mamlakatda anshlyus<sup>1</sup> boshlandi. Oila a'zolari qishloqning ashaddiy xristian sotsial-demokratlaridan sanalar, bobom bilan buvim o'z katolikliklarini faqat yakshanba kuni cherkovga borib, ibodat qilishdangina iborat deb bilmasdilar. Buning ustiga oila yangi siyosiy vaziyatdan foyda ko'zlaydigan shaxsiy iqtisodiy manfaatlarga ham ega emas, mayda qishloq xo'jaligi va bobomning yanada rivojlanib borayotgan elektr energiya sanoati sohasida doimiy ishlayotganligi tufayli bo'lajak inqirozlarga qarshi xiyla mustahkam ta'min etilgan edi. „Urushish – shaytonning ishi“, derkan doim buvim. Bobom esa quturgan itdek o'zini

---

<sup>1</sup> *Anshlyus (Apzsluss)* – 1938–1941-yy.da Avstriyaning ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan Gitler Germaniyasiga qo'shib olinishi.

u yoq-bu yoqqa tashlar, endilikda natsistlarga byurgermayster bo'lib olgan kuyoviga noiloj sizlab murojaat qilishga majbur bo'lgan ekan.

Oilada siyosatga ahamiyat berilmas, tamaddi payti barchaning og'zida osh, ortiqcha ezilib o'tirishga vaqt ham yo'q, tez-tez yeb, hamma yana ish-ishiga ketardi. O'shanda katta o'g'il Emilni gitlerchi yoshlar tashkilotiga kirishga taklif qilishgan, biroq u Qizil Xoch jamiyatiga a'zoman, deb rozi bo'lmagan. Shunda unga, agar fikrini o'zgartirmasa, maktabdan „uchirma“ bo'lib ketishini aytib do'q-po'pisa qilishgan. Pirovard natija shu bo'ldiki, Emilga o'rta iqtisodiy o'quv yurtida o'qishiga ruxsat berishgan, lekin oila o'shanda sakkiz nafar bola uchun beriladigan nafaqadan mahrum etilgan. Deyarli boshqa qiyinchiliklar bo'lmagan. Binobarin, qo'shnilar orasida tavqi la'natga uchraganlari ham bo'lgan. Masalan, uladan birining eshigiga: Bu oila nemis xalqiga qarshi, dagan yozuv osib qo'yilgan. O'sha paytda Paul o'n bir y. o'n ikki yoshlarda bo'lsa kerak, ushbu lavha oldida biroz turib qolgan, eng avvalo, oila (familiya) so'zi bosh harf o'rniga kichik „f“ bilan noto'g'ri yozilganiga hayron bo'lgan. Qo'shni uyda yosh kelin-kuyovlar yashagan. 2009-yil ko'klamida o'sha ayol to'qson to'rt yoshida qariyalar uyida vafot etgandan so'ng otam uning xonasiga borib joylashgan edi. Qishloq joylarda odamlarning tarjimai hollari bir-birlari bilan ana shu tarzda bog'lanib ketarkan.

Urush boshlangan paytda otam va uning maktab yoshidagi aka-singillari sakkiz yillik xalq maktabida hamda gimnaziyada o'qishgan. Ularning kelgusida umumta'lim maktablarida ham o'qishlariga sabab, birinchidan, ota-onalarining nari borsa bolalardan ati-

gi bittasining tirikchiligiga yaraydigan mayda qishloq xo'jaligiga muqobil ravishda ta'lim olishlariga ortiq darajada hurmat-e'tibor bilan qaraganliklari bo'lsa, boshqa tarafdin, o'sib kelayotgan yosh avlodning iste'dod, qobiliyatlarini ko'rib, bundan quvonishgani ham rost. Bundan tashqari, farzandlar o'qimishli, bilimli bo'lsa, oilaga ham foydasi tegadi, degan fikrni ko'zda tutishgan chog'i. Uchinchi o'g'il Robertdan tashqari hech kim o'qimayman deb tixirlik qilmagan. Faqat ugina, o'qib ruhoniyl bo'lamanmi, deya gimnaziyani tashlab ketgan.

\* \* \*

1944-yilning fevralida dadam frontga ketish munosabati bilan o'qishni muddatidan oldin „tugallab“, harbiy xizmatga chaqirildi. U hali hayotiy tajribasi yetarli bo'lmagan oddiy dehqon bolasi, o'n yetti yoshli gimnaziya o'quvchisi – Andrey Belyi<sup>1</sup> yozganidek – na bola va na katta yoshli, na harbiy va na fuqaro edi.

Mehnat majburiyatini o'tagandan so'ng, 1944-yilning o'rtalarida uni vermaxt qo'shinlari safiga yuborishdi. Undan uch yosh katta Emil va bir yosh kichik Paulning ham ahvoli xuddi shunday kechdi. Uydagilar endi siyosiy voqealarni biroz qiziqish bilan kuzata boshladilar, negaki harbiydagilarning holi ne kechdiykin, degan savol ularni mudom tashvishga solardi.

Emilning omadi bor ekan. Tez orada u Afrikada amerikaliklarga asir tushib qoldi va urushning qolgan qismini Montanada, qo'shilmada tilmochlik qilib o'tkazdi. Oradan biroz vaqt o'tib undan xat keldi, esonomon yurgani ma'lum bo'ldi. Paul 1945-yilda Italiyada

---

<sup>1</sup>*Andrey Belyi* – asl ism-sharifi Boris Nikolayevich Bugayev, rus shoiri (1880–1934).



yangi zelandiyaliklar tomonidan asir olindi. Bari degan joy yaqinidagi lagerda yurgan paytida to'siq, g'ovlar-ning simidan igna yasab, sviterlarning so'kilib, yirtilib ketgan yenglaridan sheriklari – harbiy asirlarga quyosh jazirasidan saqlanish uchun shapkalar to'qib bergan. O'zining shunaqa shapkasini urushdan keyin ham uzoq yillar kiyib yurgan.

Paul 1945-yilning yozida uyga kirib kelganida, endi-gina o'n yettiga to'lgan edi. Kelishi haqida hech kimga xabar bermagan; kelib, avval uchta sigir turgan molxo-naga bosh suqqan, so'ng amakivachchasi Rudolf araq tayyorlab o'tirgan xonaga asta kirib borgan. Rudolf orqa zina bilan undan oldin oshxonaga chiqib borsa, u yerda buvim farzand dog'ida kuyib, kuymalanib yurgan ekan. Bir necha kun avval o'ninchi farzand – o'g'il bola tug'il-gach, kindigi bo'yniga o'ralib qolib nobud bo'lgan. Ru-dolf unga: – Menga qara, Terez, bir askar kelib qo'noc bo'lmoqchi, maylimi? – debdi.

Buvim bir zum taraddudlanib qolgan, chunki uch o'g'il yo'q bo'lsa-da, uy odamga to'la bo'lgan. Shunda eshik panasidan Paul chiqib kelib, ko'zyoshlarini tutol-may o'zini onasi bag'riga otadi.

Dadamizning ahvoli ham boshida deyarli yaxshi bo'lgan. Dastlabki harbiy ta'lim davrida o'ng bilagidan yuqumli infeksiya bilan kasallanib, ikki marta shifoxo-naga tushib chiqadi. Yarasi tuzalar-tuzalmas, rojdestvo bayramiga araq opkelaman, deb uyga jo'navoradi va ikki advent<sup>1</sup> haftasini Volfurtda o'tkazadi. 1945-yilning fevralida, garchi haydovchilik guvohnomasi bo'lma-sa-da, to'satdan sharqiy frontga shofyor sifatida jo'na-tiladi. Yuqori Sileziyada kutilmaganda baxtsiz hodisaga

<sup>1</sup> Advent – rojdestvo bayrami oldidan keladigan haftalar.

uchraydi. Muzlagan toshyo'lda borayotgan otarava unga hadeganda yo'l beravermaydi, signal chalay desa buzuq, ishlamaydi, buning ustiga yo'l sirpanchiq, tormozdan ham umid yo'q, shu asnoda rulni tuyqusdan pastga – to'g'on tomon burib yuboradi, natijada, mashina qulab, bir necha marta ag'darilib ketadi... Rahbar ishingni harbiy sudga oshiraman, deydi. U esa sovuqqonlik bilan haydovchilik guvohnomasi yo'qligini, rulga o'tirishga hech qanday haq-huquqi bo'lmagani holda majbur qilishganini ma'lum qiladi.

Nihoyat, hamma yoq alg'ov-dalg'ov, aralash-quralash bo'lib ketgach, bir guruh avstriyalik yurtdoshlari bilan birgalikda jang maydonini tashlab, amerikaliklar tomonga qochishadi. Biroq mo'ljalardan adashib, g'arb qolib janubga – Chexiyaga borib qolishadi va u yerda ruslar qo'liga tushishadi. Shu tariqa Avstriya hududi – Kamptalda bir muddat bo'lishlariga to'g'ri keladi.

Urushda dunyoni ko'rib bo'lganman, deganida otam urushning o'zini emas, balki unda kechgan vaqtni nazarda tutgan. Asirlikda u harbiy o'ljalarni ortish-tushirish bilan mashg'ul bo'lgan. Bir kuni azbaroyi och qolganidan sho'rvadagi aynigan suyakni g'ajib qo'yib, dizenteriyaga duchor bo'ladi, qisqa vaqt ichida qariyb qirq kiloga ozib ketadi. Shundan so'ng Bratislavada, shahar chekkasidagi muvaqqat gospitalda o'tgan to'rt hafta to'g'risida men-ga lom-mim demagan. Otamning hikoyalari ko'pincha uni sovetlar ("ortiq hech nimaga yaramaganim uchun") qo'yib yuborishgan kundan boshlanardi.

Boshqa hamyurtlari bilan birga uni qizil askar Haynburg yaqinidagi Slovakiya-Avstriya chegarasiga olib kelib: „Xayr, omon bo'ling, avstriyaliklar!“ deya xayr-xo'shlashgan ekan. Ushbu so'zlarni otam bu-

gungi kunda ham ba'zan, xayolga cho'mgan paytlarida g'o'ldirab qo'yardi.

Uyga – Forarlbergga qaytish uchun yana uch hafta vaqt ketgan. Buni tinkani quritadigan „to'siqlar osha halpillash“ desa ham bo'ladi. O'shanda otamda na pul bo'lgan, na sovet zonasidan amerikaliklar hududiga o'tish uchun zarur hujjat. Guvohnoma olish uchun esa suratga tushishni xohlamagan, chunki uni chiqarishga o'n to'rt kun ketarkan. Yurt sog'inchidan qalbi o'rtanib, nihoyat, chegaradan nolegal, yashirincha o'tish uchun qulay fursat poylay boshlaydi.

U bit bosib ketganidan toza o'rinlarda yotmas, goh mehmonxonalarning yerto'lasida, goh dehqonlarning pichan g'aramlari orasida yotib yurardi. Urfar degan joyda olti kun qolib ketgach, ittifoqo forarlbergliklar uchrab qolib, unga Qizil Xoch mashinasining o'rindig'i ostiga yashirinib, Dunay orqali Linsga yetib olishiga yordam berishadi. U yerda amerikaliklar ko'magida bitdan xalos bo'ladi. Linsda fotosuratni tez chiqaradigan suratkashga borib rasmga tushadi. Ana shu fotosuratni otam to yo'qotib qo'ymaguniga qadar, saikam oltmish yil hamyonida saqlab kelgan.

Innsbrukdan o'tgach, poyezdda birinchi marta volfurliklarni uchratib qolib, ulardan bir burda non so'raydi. Lauteraxda poyezddan tushib, xolavachchasiga duch keladi. Biroq sochlari kalta qilib olingani, buning ustiga ozib-to'zib ketganidan, xolavachchasi avvaliga uni tanimaydi. O'zini tanitgach, unga hamroh bo'lib uyga birga borishadi.

Otamning uzoq ayriliqdan keyingi his-tuyg'ularini tasavvur qila olaman. O'zim ham Venadan qaytayotib, Arlberg tunnelidan o'tgach, temiryo'l bekatlaridagi

lavhalarni xuddi she'r kabi o'qirkanman, qalbim quvonchga to'ladi: Langen, Vald, Dalaas, Brats, Bings, Bludens va hokazo.

Padarimiz sentabr oyining ikkinchi haftasida, 9-sanasida uyga kirib keldi. Tevarak-atrof sarg'imir tusga kirgan, nok, olma terimidan oldingi, pichan-xashakning uchinchi o'rimiga tushishga tayyorgarlik ko'rilayotgan payt edi. Oktabr oyida esa hech narsa bo'lmagandek yana maktab partasida o'tirar, savdo akademiyasi kursiga kirishga tayyorlanardi.

Yana nimalar qoldiykin-a, hech narsa esimdan chiqmadimikan?

O'shanda hech kim bilmagan gap: o'n to'qqiz yoshli bu yigitcha endi dunyoga hech qachon qalbini ochmaslikka qaror qilgan, uning uchun endi hammasi bir umrga tamom bo'lgan edi. Harbiy shifoxonada yotgan paytida, agar eson-omon yetib borsam, bir umr uydan tashqariga chiqmayman, deb qasam ichgan. Uzoq yo'l bosib vatani-ga qaytgandan so'ng, elektrotexnikaga o'qiyman, degan rejasi ham barbod bo'lgan. Voqelik tuyg'ularni o'zgartirgan.

Yana bir narsa esimda qolgan. Bolalik paytlarimda qachonki oilamizda ta'til mavzusida so'z ochilgudek bo'lsa, dadam nuqul bir gapni, ya'ni unga Volfurtning go'zalligi yetib-ortishini, boshqa hech qayoqqa chiqishni xohlamasligini yuz martalab takrorlashdan charchamasdi. To'g'risi, o'shanda bunday gaplar g'ashimni keltirar, ular menga lanjlikni ochiq-oydin pardalash kabi soxta, qolaversa qisman quruq bahonadan boshqa narsa emasdek tuyulardi. Biroq keyinchalik otamning bunday bosh tortish, bo'yin tovlashlari zamirida kishibilmas jarohatlar yotishini, ular hali-hamon tugamasligini hamda

uning fe'l-atvori, yurish-turishi, qiyofasi tabiatan qanday bo'lsa o'shanday namoyon bo'lganini, bularning barchasi go'yo o'zini ortiq xavf-xatarlarga qo'ymaslik yo'lidagi o'ziga xos chora-tadbirlar ekanini tushunib yetdim. Xullas, u Vatan diydoriga zor bo'lishdek og'ir dardga ikkinchi bor muhtalo bo'lishni sira-sira istamasdi.

Taqdiming g'alati hazilini qarangi, oradan ko'p yillar o'tib, yana tag'in shunday vaziyatga tushib o'tiribdi – o'z uyida ekanini unutib qo'rganligi sababli u deyarli har kuni uyimga ketaman deyishini qo'ymaydi.

– Dada, qarang, anavi bog'dagi devorchani ko'ryapsizmi, uni o'z qo'llaringiz bilan qurgansiz.

– To'g'ri, uni uyga olib ketaman.

– Yo'q, devorchani olib ketolmaysiz!

– Bundan osoni bormi.

– Axir, bunaqa bo'lmaydi-da, dada!

– Men senga hozir buni ko'rsataman.

– Lekin dada! Hoy, menga qarang! Bunaqasi ketmaydi! Undan ko'ra menga tushuntirib bersangiz-chi, o'zingir uyda bo'la turib, yana qanday qilib uyga ketmoqchisiz?

– Tushunmadim.

– Mana qarang, siz o'zingiz uydasiz va yana uyga bormoqchiman deysiz. Odam agar uyda bo'lsa, unda hech qanday uyga ketolmaydi.

– Gaping mohiyatan to'g'ri.

– Xo'sh?

– Bilasanmi, bu narsalarning senga qizig'i bo'lsa bordir, ammo menga mutlaqo qizig'i yo'q.

– Nihoyat, avvalgi umumiy layoqatsizlik, yoqimsiz xotiralar ortda qoldi, chunki endi otamiz bilan ehtiyot bo'lib muomala qila boshlagandik, bundan tashqari kundalik hayot bizni yangidan yangi, kutilmagan voqea-ho-

disalar bilan o'z izmida ushlab turardi. Biz endi orqaga emas, ko'proq oldinga qarashga intildik, negaki kasallik oldimizga har doim yangi talablar qo'yardi. Bu borada hali yangi, yosh va tajribasiz bo'lsak ham, buning ustiga bilim va omilkorlik yetishmasa-da, baribir o'z mavqeyimizni saqlab qolishga harakat qilardik.

Otam endi ko'proq piyoda sayrga chiqar, ko'pincha bizga burchakma-burchak ro'parada turadigan akam Peterlamikiga (uning uch qizi bor edi) borardi. Bora-bora bu sayrlar odatdagidan boshqacharoq mazmun kasb eta boshladi; u ba'zan yarim tunda chala-chulpa kiyinib, uydan chiqib ketardi. Gohida esa uni topib bo'lmas, chunki bolalar xonasiga kirib yotib olar, javonlarni timirskilab, bir nimalarni izlar, Vernerning shimi o'ziga loyiq kelmadan taajjubga tushardi. Axiyri, xonasi eshigiga Avgust deb yozib, boshqa xonalarni bekitib qo'yishimizga to'g'ri keldi.

Ko'pincha uyga boshi qonagan yo bo'lmasa tizzalari bir nimaga urilib, ko'kargan holda kirib kelardi. Keyin bilsak, tug'ilib o'sgan qadrdon uyiga borayotib, o't bosib yotgan tik tepalikdan yiqilib tushgan bo'lardi. Bir kuni qiziq bo'lgan. O'sha eski uyga bostirib borgan-da, to'g'ri kelinning oldiga kirib, ukasi Erihni so'ragan. Bolalik paytlarimdan bilaman, lo'kidonni tirqishcha orqali ko'rsatkich barmoq bilan asta surib, eshikni osongina ochish mumkin bo'lardi. Aftidan, otam ham shunday unnab ko'rgan, qarasa, mexanizm „ishlamagan.“ Bu holat unda qandaydir shubha uyg'otgan bo'lsa kerakki, eshikni buzib kirgan.

Singlimning aytishicha, telefon jiringlasa, otam go'shakni ko'tarib gaplashar, biroq oradan bir daqiqa o'tarotmas, kimning nima deganini unutilib qo'yarkan. Uyda

biron nima yo'qolgudek bo'lsa, doim boshqalar aybdor bo'lardi. Bu haqda gap ochilsa, u hech nimani bilmas yoki achchig'i chiqardi. Biz qidirib xunob bo'lgan elektr ustarasi kutilmaganda mikroto'lqinli pech ichida paydo bo'lib qoldi. Eshik kalitini hadeb yo'qotavergach, oyim endi uni avvalgidek shimiga bog'lab o'tirmadi, bu gal o'sha yerga mahkamlab tikib qo'ydi. Bu unga yoqmadi shekilli, kalitni siltab-siltab qo'yadigan bo'ldi.

Eng yomoni, bitta fikrga yopishib oladigan, o'sha fikr mudom miyasidan chiqmaydigan bo'lib qoldi. Uyimiz oldida qattiq shamolda qiyshayib qolgan ulkan qayin daraxti o'sardi. Osmonda qora bulut ko'rindi deguncha, qayin navbatdagi dovulga dosh beradimi yoki uy ustiga qulab tushadimi, degan savol ko'ndalang turadi. Mazkur „muhim“ masala otamiz tomonidan kuniga besh-o'n martalab o'rtaga tashlanardi. Uning miyasini doim band qilib turadigan yana bir narsa – elektr hisoblagich shiti bo'lib, unga savdoyilarcha hadeb qarayverardi. Magnitli qulfning ochilib yopilgandagi lahzalik shovqini hamon qulog'imda qolgan. Mabodo qishda uy birdaniga muzlab ketsa, bilardikki, otam elektr tokini ulaydigan yo uzadigan asbobmi, pultmi, shu kabi narsalarni „o'ynagan“ bo'lardi. Yana kim aybdor? Albatta, boshqalar.

Bobom elektr bo'yicha inkassator bo'lib ishlagani uchunmi, elektr tokidan har doim tejab-tergab foydalanishga intilgan. Nonushta qilib o'tirgan paytimizda yorug' tushib qolgan bo'lsa, bobom chiroqni shartta o'chirib, derdi: „Og'izlaringni topvolsalaring kerak“.

Ana shunaqa gaplar.

Bobom xonalarga ko'proq yorug'lik tushsin, deb derazalarning darpardalarini ham bir tomonga surib qo'-

yardi. U juda tejamkor odam bo'lgan, bu -- bolalariga ham to'la-to'kis o'tgan yagona xususiyati edi.

Mana endi otam ham elektr tokidan foydalanish „masalasi“ bilan shug'ullanar, hozir uning miyasi har kuni bir xil nag'ma chaladigan sharmankaga o'xshab ketardi.

Ammo kunlarning birida uni bunday bema'ni fikrlar batamom tark etdi. Bu hodisa sirli edi, otam qiyofasi kutilmaganda „ijodiy“ tus ola boshlagandi.

Uzoq vaqt faromushxotirlik va layoqatsizlik bilan ishimiz bo'lgan bo'lsa, endi xastalikning o'zi yangi „qobiliyat“larni keltirib chiqara boshladi. Hamisha halol, to'g'ri odam bo'lgan otam bahona topishda uncha-muncha iste'dodni ortda qoldirib ketadigan bo'ldi. Bahonani shunaqa tez topardiki, hatto sichqon ham o'z inini bunchalik tez topolmasdi. Uning gapirish uslubi o'zgarib, birdaniga o'z-o'zidan orastalik, zebolik kasb etdi, buni men hech qachon payqamagan edim. Nihoyat, unda yana shunday bir hayratlanarli darajada shaxsiy uyg'unlik, mantiqiylik sodir bo'ldiki, buni ko'rib kulishni ham, yig'lashni ham bilolmay qoldik.

– Havo qanday ajoyib! – dedim men uy oldida turganimizda, Gebhard tog'lariga va Bregens soyi ortida ko'zdan g'oyib bo'ladigan minoralarga nazar tashlab.

Otam tevarak-atrofga bir qarab oldi-da, so'z qotdi:

– Uydan turib ob-havoning qanday bo'lishini adashmasdan aytib bera olardim, bu yerdan esa yo'q. Uyda emasligim sababli buning iloji bo'lmay qoldi shekilli.

– Vaziyat u yoqda qanday bo'lsa, bu yerda ham xuddi shunday, – dedim men „hayron bo'lib“, chunki uyimiz u tug'ilib o'sgan uy yonida, tepalikda joylashgan, orasi atigi ellik qadam edi.

– Ha, albatta. Ana ko'rdingmi farqini!



U bir zum o‘ylanib turdi-da, so‘ng qo‘shib qo‘ydi:

– Buning ustiga doim kayfiyatimni buzasizlar, ana shuning ham ta’siri bilinyapti.

Iste’dodining yangi „qirralari“ ayniqsa, uyga ketaman deb xarxasha qilgan paytlari yanayam yaqqolroq namoyon bo‘lardi. 2004-yil bo‘lsa kerak, u to‘satdan o‘z uyini tanimay qoldi. Bu shunaqangi tez bo‘ldiki, o‘zimiz ham anglayolmadik. Yo‘g‘-e, otamiz shunday jo‘n, oddiy narsani, ya’ni o‘z uyini ham unutib qo‘yadimi, deya hayron bo‘lib uzoq vaqt tan olmay yurdik.

Bir kuni u uyga ketaman deyaverib bezor qilib yubordi. Shunda singlim Helga uni ko‘chaga olib chiqdi-da, dedi:

– Mana sizning uyingiz!

– Yo‘q, bu mening uyim emas, – javob qildi u.

– Unday bo‘lsa, qani ayting-chi, siz o‘zi qayerda turasiz? Otam ko‘cha nomini va uy raqamini aytdi.

Helga unga ko‘cha eshik yonidagi uy raqami yozilgan lavhani ko‘rsatib, tantanavor dedi:

– Xo‘sh, unda manavi nima?

Otam manzilni qaytadan o‘qidi. Helga:

– Endi nima deysiz?

– Kimdir lavhachani o‘g‘irlab kelib bu yerga mahkamlab qo‘ygan bo‘lsa kerak, – dedi otam quruqqina qilib. Bu izoh qanchalik g‘aroyib bo‘lib tuyulmasin, u har qanday ishonchlik darajasidan xoli edi.

– Nega endi kimdir bizning uy raqamimiz yozilgan lavhachani o‘g‘irlab kelib, o‘z uyiga o‘rnatishi kerak ekan? – so‘radi Helga jahli chiqib.

– Buni men ham bilolmadim. Odamlar hozir shunaqa-da, – dedi u afsus bilan, ayni paytda o‘z dalilining ehtimoldan uzoqligiga zarracha ham shubha qoldirmay.

Boshqa bir gal:

– Nahotki o‘z mebelingizni ham taniyolmasangiz? – degan savolimga shunday javob berdi:

– Yo‘q, yo‘q, nega endi, taniyman!

– Men ham shuni aytmoqchiman-da, – dedim unga biroz yuqoridan qarab. Shunda hafsalasi pir bo‘lganday dedi:

– Menga qara, bu sen o‘ylaganchalik oson ish emas. Chunki boshqalarda ham shunaqa mebel bor. Hech qachon aniq bilib bo‘lmaydi.

Ushbu javob haddan tashqari mantiqiy va o‘ziga xos tarzda ishonarli edi, bundan chinakamiga achchig‘im chiqdi. Bunaqa bo‘lishi mumkin emas axir! Hamonki u shunday deyishga qodir ekan, nima ham qilardim u bilan bahslashib? Bunday nozik farq, tafovutlarga aqli yetadigan kimsa o‘z uyini ham bermalol taniy oladi, deyishga haqqim bor edi.

Biroq adashgan edim!

Boshqa vaziyatlarda u unchalik aqli, mulohazali bo‘lib tuyulmas, barcha tafsilotlarga boshdan oyoq shubhaomuz puxtalik bilan sarasof solsa-da, pirovardida xona uni shunchaki laqillatish uchun ataylab shunday jihozlangan, degan xulosaga kelardi. Bu holat Jeyms Garner va Yeva-Mariya Sen ijrosidagi 36 Noigz (36 soat) nomli trillerni yodga soladi. O‘sha mashhur filmda Jeyms Garner ittifoqchilarning hujum qilishi to‘g‘risidagi muhim ma‘lumotlarga ega bo‘lgan amerika maxfiy xizmati zobiti rolini o‘ynagan. Natsistlar uni tuzoqqa tushirib, giyohvand moddalar bilan „ishlov“ beradi. Ertasiga uyg‘ongach, unga urush ancha yillar muqaddam g‘alaba bilan tugaganligini, u shu vaqt ichida amneziyadan azob chekkani-ni, hozir esa amerika harbiy shifoxonasida yotib davolanayotganini ma‘lum qilishadi. Aldov shu qadar puxta,

ustalik bilan amalga oshirilgandiki, zobitning bir necha kun oldin natsistlar bilan bo'lgan to'qnashuvda yaralangan ham hisobga olingan, biroq jarohat oradan shuncha yillar o'tganiga qaramasdan – hamon „tuzalmagan“ edi.

Bunday ko'ngilsizliklar otamni ham yillar osha ta'qib etib kelganga o'xshaydi. Zotan, u o'z oila a'zolarining ishonarli va tushunarli gap-so'zlariga nisbatan ham doimiy shubha-gumonli munosabat bilan yashab keldi. Ha: „Uyda ham xuddi shu yerdagidek, faqat birozgina boshqacha...“

\* \* \*

U xonada ko'pincha o'zi yolg'iz o'tirar, goh-goh xo'rsinib qo'yardi. Har gal ko'zim tushganida xuddi kimdandir dili og'rigandek ko'rinar, uning qarovsiz, kimsasizligidan dahshatga tushardim. U o'zgargan edi, uning ma'yuslik, g'amginlik, ruhsizlik aks etgan yuz ifodasi endilikda faromushxotirlikdan tushkunlikka tushish to'g'risida emas, balki butun olam yuz o'girgan yolg'iz, kimsasiz, bevatan, g'arib bir insonning teran his-tuyg'ulari haqida so'ylardi. Shunchaki joyni o'zgartirish, balki, bu dardga malham bo'lar, degan ishonch bilan uyg'unlikda esa shunday bir vaziyat yuzaga keldiki, uni pat (durang) holat deb atash mumkin edi, otam undan bir necha kun davomida ham xalos bo'lolmasdi.

U uyga ketaman, deganida niyati, aslida, u tark etmoqchi bo'lgan joyga emas, balki o'zini begona va baxtsiz his qilayotgan vaziyatga qarshi qaratilgan bo'lardi. Demak, gap joy, makon to'g'risida emas, balki xastalik, kasallik haqida borardi va u bu xastalikni o'zi bilan birga hamma joyga, tug'ilib o'sgan uyiga ham olib bo-

rardi. Qadrdon uyi esa yiroq emas, bir odim narida, biroq shunga qaramasdan, hamon yetib bo'lmamas makonligicha qolaverar, aslida esa vaziyat unday emas edi, chunki otam u yerga yetib borolmagan emas, balki tug'ilib o'sgan qadrdon uyida bo'lolmagandi, xolos. O'zini xavfsiz, xotirjam his qilishning imkonsizligi xastalik bilan birga uning tovon-tovonigacha yetib borgan edi. Xastaligi shu qadar ediki, kasallikning joyni his qilishga, idrok etishga ta'sirini anglashga ham qodir emasdi. Oilasi esa vatan sog'inchi nima ekanini shunchaki kuzatib turishdan boshqaga yaramasdi.

Albatta, unga barchamiz ich-ichimizdan achinardik. Qani endi o'z uyimdaman, degan his-tuyg'uga qaytadan ega bo'lsa, derdik, shunga erishishini chin dildan tildardik. Lekin bu ma'lum ma'noda kasallik uni tark etadi, chekinadi degan gap edi – saraton xastaligida shunday bo'lishi mumkin, biroq afsuski, Altshaymerda<sup>1</sup> emas.

Oradan ikki yil o'tgach, muayyan yengillik epkini esib, yomon havo yaxshi bo'ladi, degan gapning naqadar to'g'ri ekanligi ma'lum bo'ldi. Uyga boraman degan istak zamirida qanchalar teran insoniylik tuyg'usi mujassam ekanini shunda tushunib yetdim. Otam insoniyat qilgan ishni qilgandi: anglab bo'lmamas jumboqli, qo'rqinchli hayotga qarshi shifo sifatida shunday bir joyni tanlagan ediki, agar u yerga yetib borsa, xavfsizlik, xotirjamlikka erishgan bo'lardi. Tasalli, taskin, quvonch baxsh etguvchi bu go'sha otam uchun uy bo'lsa, dindor uni jannat deb ataydi.

---

<sup>1</sup> *Altshaymer* (Alzheimer) – miya xastaligi, 1906-yilda nemis shifokori Aloiz Altshaymer tomonidan aniqlangan. Xotiraning asta-sekin susayib, yo'qolib borishi kasallikning dastlabki asosiy belgisi hisoblanadi. Altshaymer demensiya (aqli zaiflik)ning keng tarqalgan shakli bo'lib, ko'proq keksa kishilarda uchraydi.

Uyda bir-biriga yaqin insonlar yashaydi va bir-biri bilan tushunarli tilda gaplashishadi. Rim shoiri Ovid surgunda yurgan paytida qayerdagi sening tilingni tushunishsa, o'sha yer vatandir, deb yozgan ekan. Ushbu hikmat otam uchun ham birmuncha hayotiy ma'no-mazmun kasb etgan bo'lsa ajab emas. Chunki odamlarning yuz ifodalarini anglash, ularning suhbatlariga qo'shilishga bo'lgan zo'r istak-urinishlari hadeb chippakka chiqavergach, o'zini xuddi quvg'indagidek his qila boshlagan. Barcha gapirayotganlar, hattoki tug'ishgan aka-singillari va bolalari ham unga yot, begona edilar, negaki ularning gap-so'zlari vahimali tuyular, diliga g'ulg'ula solardi. Va bu yer uy, boshpana, makon bo'lolmasligi haqidagi xulosa o'z-o'zidan ravshan edi. Shunday bo'lgach, otamning o'z uyi tomon intilishi, u yerda hayoti ilgarigidek yana izga tushib ketishiga ishonishi mantiqan butkul to'g'ri edi.

– Men manavi yerda qo'l yuvdim, – deb qoldi u bir kuni. – Mumkinmidi ishqilib?

– Ha, bu yer o'z uyingiz, manavi qo'lyuvgich ham sizniki.

U menga ajablanib qaradi, so'ng xijolatomuz jil-mayib, dedi:

– Yo tavba! Endi bu, har qalay esimdan chiqmasa kerak.

Bu – demensiya edi. Yanayam to'g'rirog'i: hayot – hayot yaralgan materiya edi.

Altshaymerga kelsak, bu kasallikda insonlarga xos bo'lgan xususiyatlar hamda ijtimoiy holat va hodisalar xuddi lupadagidek o'z aksini topadi. Barchamiz uchun dunyo, olam bir qarashda chalkash va chigal tuyuladi, biroq unga sinchkovlik bilan sarasof soladigan bo'lsak,

sog' bilan kasal o'rtasidagi farq eng avvalo, ana shu chigallik, chalkashlikni sirt, yuzada nechog'lik niqoblay olish layoqatidan iborat ekanligini ko'ramiz. Botinda esa boshi-keti yo'q tartibsizlik hukm suradi. Xayoliy tartibot o'rtameyona sog'lom kishi uchun ham shunchaki aql-idrok uydirmasi, xolos.

Altshaymer xastaligi biz sog'lom odamlarga kundalik hayotga bas kelib, uni yengib o'tish uchun qanchalik murakkab qobiliyat egasi bo'lmog'imiz zarurligini eslatib turadi. Shu bilan birga, Altshaymer jamiyatimizdagi mavjud holatning ramzi hamdir. Kelajagimiz mavhum, bor bilimni esa o'lchab, bilib bo'lmaydi, shunday ekan, betinim ro'y berayotgan o'zgarishlar, yangiliklar, yangicha rasm-rusum, tartibotlar ularni bilish, tushunish, o'rganish, ularga moslashish va ko'nikish asnosida talaygina muammolar keltirib chiqarishi, binobarin, ertangi kunga ishonch emas, xavotir uyg'otishi tabiiy. Zotan, Altshaymer – asr xastaligidir. Otam hayoti tasodif tufayli mana shu o'zgarishdan darak beradigan hodisaga aylangani sir emas. Uning hayoti ko'plab mustahkam ustunlar (oilal, vatan, din, siyosiy tuzilmalar, mafkuralar, avlodlarning jamiyatda tutgan o'rni va hokazo) mavjud bo'lgan bir davrda boshlanib, g'arb jamiyati ana shunday tayanch ustunlarning xarobalariga botgan bir paytda mana shu kasallikka duchor bo'lgan. Ong-shuurimga yetib borayozgan mazkur xulosaga tayanib, o'zimni otam bilan deyarli hamnafas, bir jon-bir tan his eta boshladim.

Biroq dastlab boshqacha fikrda edim. O'zi asli sekin fikrlaydigan odamman. Otamning voqelikka bo'lgan aloqa-munosabatini saqlab qolishga urinib, xiyla noqulay ahvolga tushib qoldim.

Bir kuni u onasi kutayotganini aytib qoldi. Undan beozorgina qilib so'radim:

- Onangiz necha yoshda?
- Hm, taxminan, saksonda bo'lsa kerak.
- Xo'sh, o'zingiz nechchiga kirdingiz?
- 1926-yilda tug'ilganman, demak...
- Unda siz ham, taxminan, sakson yoshdasiz.
- Hm, bilaman, bilaman.
- Onangiz o'lib ketgan, – deyman afsuslanib.

U lablarini bir-biriga mahkam bosib, boshini sarak-sarak qildi, so'ng chuqur o'yga botib dedi:

- Men bo'lsam qo'rqib o'tiribman.

Insondagi sog'lom aqlni asrab qolish uchun shu yo'sinda yana bir muddat kurashdim. Biroq bunday urinishlarning befoyda ekanini yetarli darajada boshdan kechirib ko'rganimdan so'ng, kurashni bas qildim. Buni qarangki, bas qilgan ham yutqazmas ekan, bu tez orada ma'lum bo'ldi. O'likmi yo tirik? Buning farqi yo'q edi. Otam marhumlarni bir qadar „tiriltirib“, shu tariqa o'z-o'zini ham o'limga birmuncha yaqinlashtirganiga iqror bo'lib, uning azob-iztiroblarini yanada chuqurroq tushuna boshladim.

Endi barchamiz boshqacha hayot sari yuz tutgan va bu hayot o'zimni va aka-singillarimni qanchalik ishonchsizlik, shubha-gumon, xavf-xatarga solmasin, otamiz taqdiriga tobora qiziqish hamda muayyan hamdardlik bilan qaray boshlagandik. U pasyans va televizor bilan andarmon bo'lib yurgan paytlardan buyon o'tgan vaqt ichida deyarli hech narsaga qiziqish bildirmay kelgan bo'lsam-da, meni endi yangicha bir qiziquvchanlik qamrab olgandi, bunga sabab shu ediki, o'zim haqimda ham nimanidir bilib olmoqchi bo'lardim – biroq u nima edi, buni o'zim ham bilmasdim.

Otam bilan kundalik muloqot endi meni ortiq holdan toydirmas, balki aksincha, menga ilhom va ruh bag'ishlardi. Zimmamdagi ruhiy yuk hamon og'ir bo'lishiga qaramasdan, otamga nisbatan his-tuyg'ularim o'zgarib borardi. Uning shaxsiyati ham ko'z o'ngimda qad rostlab borar, u qariya faqat birozgina o'zgargan qariya edi, xolos. Ajabo, o'zim ham o'zgara boshlagandim. Go'yo xastalik barchamizga bir nina qilganga o'xshardi.

– Dada, eng yaxshi ko'rgan joyingiz qayer?

– Bu haqda bir nima deyish qiyin. Eng yaxshi ko'rgan joyim, bu – ko'cha.

– Ko'chada nima qilasiz?

– Sayr qilaman, biroz aylanaman. Biroq ilgarigidek tobimdamasman-da. Bundan tashqari, poyabzalni ham to'g'ri kiyolmayman.

– Demak, siz uchun eng yaxshi joy – ko'cha, garchi u yerda sekin tuzalsangiz ham, shundaymi?

– Ha. O'zing bilasan-ku, bu yerdan ko'ra...

– Nima, bu yer sizga yoqmaydimi?

– Bu yerda nimayam qilardim? Bilaman, ko'cha har doim ham to'g'ri bo'lmaydi, ammo qup-quruq bo'lsa bormi, undan yoqimli joy yo'q. U yerda u yoq-bu yoq-ni tomosha qilishim mumkin, buning hech kimga og'iri tushmaydi.

Kasallik juda sekinlik bilan bo'lsa-da kuchayib borardi. Otam endi xavf-xatarni bir o'zi yengolmas, boshqalar ko'magiga muhtoj, busiz ahvoli chatoq edi.

Oilasi, bolalari Oberfelddagi xonadondan ko'chib ketishgan, shuning uchun unga endi ovqatni uyga olib kelib berishardi. Ko'p o'tmay, boshqa qobiliyatlari ham yo'qolgach, otamga „tezyordam“ kelib, soat-



lab qaraydigan bo'ldi. Bu degani, ertalab kimdir kelib, unga o'rnidan turishga yordamlashar, kechqurun yana kimdir kelib o'rniga yotqizib ketardi. Shukurki, u uyquni yaxshi ko'rar, ko'p uxlardi, lekin bitta narsa, ya'ni u o'n ikki soat davomida qattiq uxlarimidi yoki – yoshligida qishda sovuq xonada yotib yurgan dehqon bolasi emasmi – issiq o'rinda shunchaki cho'zilib yotarmidi, bu aniq emasdi. Odatda, „tezyordam“ yoki uydagi kasalga qarash xizmati xodimlari yoki P-terning xotini Ursula ertalab to'qqizga yaqin uning yotoqxonasiga kirishar, u esa oqshom to'qqizda chiroq o'chirilganiga qaramasdan hamon o'rinda ko'rpaga o'ralib yotgan bo'lar va ayollarning hadik, qo'rquv aralash ovoz bilan qilgan murojaatlariga istar-istamas javob qaytarardi.

Otam deyarli kun bo'yi Peter bilan Ursula oldida, bog'da bo'lar va qiz nabiralari bilan ovunardi. Biroq bu bilan muammo hal bo'lmasdi, shuning uchun peshindan keyin otamga qo'shnimiz Liliana qarab turadigar bo'ldi. Liliana u bilan birga sayr qilar, ikkovi *Mench aergere dich nicht*<sup>1</sup> o'ynashardi. Ursula haftada bir yoki ikki marta otamni qariyalar uyiga oborib kelardi. Xullas, vaqt shu zaylda o'tib borar, bundan barcha mamnun edi.

Hafta oxirida Helga majburiyatni o'z zimmasiga olar, Verner esa uy va bog'dagi ishlar bilan mashg'ul bo'lardi. Oyim ikkovimiz galma-gal Venadan kelib, bir necha kun yoki hafta davomida uyda bo'lardik, boshqalar esa dam olardi. Har birimiz yangi vaziyatga o'z kuch va imkoniyatlarimizdan kelib chiqib yondashdik – albatta,

<sup>1</sup> *Mench aergere dich nicht* – shaxmat-shashka singari stol (taxta) ustida o'ynaladigan ommaviy o'yin turi.

boshqa yumushlarimiz ham yetib-ortardi. Boshida ancha qiyin bo'lganiga qaramasdan, oilada birdamlik, ahillik his-tuyg'usi mustahkamlanib bordi. Otamning xastaligi oilamizni parokandalikdan saqlab qoldi. Kemaga tushganning joni bir, deganlaridek qayg'u, g'am barchamizni jipslashtirdi.

Xuddi shu davrda yozuvchi sifatida ishlarim yurishib ketdi. Omad o'z-o'zidan, xuddi osmondan tushgandek kela qoldi. Albatta, meni shu paytgacha ham adib sifatida tanishardi, nuqul maqtashardi-yu, biroq yozganlarimni deyarli hech kim o'qimasdi. Endi esa e'tibor qozongan edim, menga butun dunyo mamlakatlaridan taklifnomalar kelar, buning foydasi bilan birga zarari ham bor edi – bunga, avvalo, vaqt ajratishimga to'g'ri kelardi. Ilgari mashhurlikni bunaqa vaqt oladi, deb tasavvur qilmagan edim, endi esa bundan qochib qutulolmasdim. Agar ob-havo yaxshi bo'lsa, pichan o'rish kerak, otam, balki, shunday degan bo'lardi. Biroq hozir uning men bilan necha pullik ishi bor, mashhur bo'ldim nima-yu, bo'lmadim nima, unga qizig'i yo'q edi.

O'qishni tugatganimdan so'ng otamga, yozuvchi bo'lmoqchiman, deya niyatimni aytgandim, u menga qarab iljayib, shunday degan edi:

– Burunni kovlab o'tirib ham she'r yozsa bo'ladi.

Aniq esimda bor, o'sha kuni uning ustaxonasida, lok va bo'yoqlar taxlangan tokcha oldida turgandik. Bunaqangi gaplarni aytishning o'ziga xos hadisini olganidanmi, undan xafa bo'lib o'tirmadim. Ko'zlarini qisib, bilganingni qil, duo qilaveraman, ammo ishingga bir nima deyoilmayman, degandi o'shanda.

2006-yil bahorida muttasil ijodiy safarda bo'ldim. Volfurtga hafta oxirlaridagina keloldim, xolos. Gohida

o'zimni ishqiy muhabbat, oila va kasb-kor o'rtasida omonat his qilar, ba'zan unisi yo bunisi ortiqcha tuyulib ketardi. Men na ko'chmanchilarcha hayot tarziga va na vaqtni izchil tashkil etishga ko'nikkandim. Mas'uliyatni zimmamga olishga-ku kuch-quvvatim yetmasdi, o'zimni hamisha tasmollab ish qiladigan parishonxotir odam deb hisoblab kelardim. Bu yog'i qandoq bo'ldi. Biz o'z hayotimizni bir qolip (shakl)ga solganimiz sayin, hayot bu qolipni buzib tashlayveradi.

Nihoyat, 2006-yil yoz boshlariga kelib, o'z kasbiy majburiyatlarimni deyarli bajarib bo'ldim. Velosipedimni qismlarga ajratdim-da, yuklarimni oyimning mashinasiga ortdim. Myunxen orqali Volfurtga olti soat deganda yetib keldim. Yo'lda boshim biroz og'rib qoldi. Otamning sakson yillik tavalludi arafasi edi.

Anchadan buyon odam yashamagan uy hidi o'tirib qolgan ishchi kiyimimni egnimga ildim-da, derazadan sakrab tushib, uyimiz yaqinidagi tepalikdan o'rmonda o'sadigan mayda qulupnay va xo'jag'at terib keldim. Olcha uzdim, xonalarni ko'zdan kechirib, narsalarni joyladim. Kechqurun otam meni ko'rib derdi:

– Eh-a, kebsan-da meni ko'rgani, haliyam tirikmi-yo'qmi deb.

U tashqi ko'rinishdan hali ham tuppa-tuzuk odam edi. Ko'chada yursa bormi, hech kim uni „anaqa“ deb o'ylamasdi. Duch kelgan odamga ochilib-sochilib muomala qilar, qisqa gap-so'z orasida hazil-pichingni ham kanda qilmas, buni ko'rgan odamlar, e, haliyam o'sha-o'sha muttahamligi qolmabdi-da, deb qo'yi-shardi. Gap ma'lum bir masalaga borib taqalgach, ko'proq past-baland tafsilotlar talab etilgan paytlardagina uning o'jizligi bilinib qolardi.

Mana, hozir u uy oldidagi devor ustiga ro'molchasini yozib olib, o'tirgan ko'yi sokin ko'chaga razm solib, biron-bir „voqea“ ro'y berishini sabr-toqat bilan kutardi. Yo'q, yo'q, u unchalik katta narsa talab qilmasdi. Bor-yo'g'i ko'chadan mashina-pashina o'tib qolsa qo'l silkiib qo'yar, basharti birorta ayol velosiped minib ketayotgan bo'lsa unga qarab:

– Salom, go'zal xonim, – deb qo'yardi, xolos.

Shunday, bu gaplar mutlaqo shubhadan xoli edi.

Shu yaqin-atrofdagi joylashgan qishloq cherkovining qo'ng'iroqlari bong chaldi. Onam yaqin kelib, otam shimini chap cho'ntagidan bir nechta Grissini<sup>1</sup> topib oldi. Yaxshi emas, bunaqada shiming cho'ntagi uvoqqa to'lib ketadi, dedi. Otam bo'lsa:

– Ular soqol olishimda kerak bo'ladi.

– Ular bilan soqol olib bo'lmaydi, Avgust.

Biroz o'ylanib turib, dedi:

– Unday bo'lsa ularni bog'ga olib borib, yerga suqib qo'yaman. Ko'karib, ajoyib bir nima o'sib chiqsa ajabmas.

Bu gaplar endi shubhali edi.

U o'midan turdi, jiddiy bir qiyofada viqor bilan ro'molchasini olib, bukladi-da, uy ortiga – ayvonga qarab yo'l oldi. Ketidan bordim. Biz kunbotar tomonga, Bodensee tarafga jimgina qarab turdik, ko'l uzra botayotgan quyoshning zarrin nurlari jilvalanar, go'yo bugun sira kech bo'lmayotandek tuyulardi. Huv yuqorida, tog' tomonida, Gebhard cherkovi ustida pardek yengil bulutlar suzib yurar, osmon ko'm-ko'k edi. Olisdan A14 – Rayn vodiysidagi avtoban shovqini eshitilib turar, qayin yaproqlari mayin shabadada ohista shitirlardi.

---

<sup>1</sup> *Grissini* – undan tayyorlanadigan ingichka, quruq, qalamdan sal uzunroq, qir sillab yeyiladigan an'anaviy mahsulot (palochki).

Biz turgan joydan otam tug'ilib o'sgan uy orqasidagi yam-yashil daraxtlarga burkangan mevazor bog' ko'zga tashlanar, go'yo daraxtlar-u asalari uyasi ham xuddi otam ikkovimizning bolalik davrimizdagidek – deyarli o'zgarmagandi.

– Ertaga sakson yoshga to'lasiz, – dedim unga be-xosdan.

– Menmi? – so'radi u ishonqiramay.

– Ha, siz. Saksonga kirasiz, dada.

– Men emas, sen bo'lsang kerak, – dedi u kulgi aralash jahl bilan.

– Men o'ttiz sakkizga kiraman, dada, siz esa saksonga.

– Men emas, – takrorladi u mazaxomuz ohangda, – hoynahoy sen bo'lsang kerak.

Shu tariqa biroz tortishdik. So'ng undan: – Odam sakson yoshda o'zini qanday his qiladi? – deb so'radim. U esa:

– Nima desamikin, ja unchalikmas.

Oradan ikki soat o'tdi. Yana xo'jag'at terib keldim, so'ng otamni joyiga yotqizdim. O'zim ham uzoq yo'l yurib qattiq charchagan ekanman, dong qotib uxlab qolibman.

Ertalab barvaqt turib, otamni tavallud ayyomi bilan qutladim. U tabrigimni bajon-u dil qabul qilib, minnatdorchilik bildirdi. Karavot chetida ishtonchang o'tirarkan, unga otasi shu yoshga yetmay o'tib ketganini eslatdim, shunda u menga hayron bo'lib qaradi, so'ng siniq jilmaydi. Biroq nimaga jilmaydi, buning ma'nosini anglayolmadim. Tavalludni qavmlar cherkovida nishonlashimizni aytgandim, u qaysi cherkovdaligini so'radi.

– O'zimizning Volfurtdagi cherkovda, – dedim. U esa to'lqinlanib:

– Volfurtda qachon bo‘lgan bo‘lsam, har doim maza qilganman va bu yerda men tanigan odam borki, barchasi bilan yaxshi munosabatdaman.

\* \* \*

Kun juda tinch o‘tdi, seshanba edi. Tug‘ilgan kunni nishonlash juma kuniga belgilandi. Esimda, onam mevali pirog pishirgan, qo‘shni ayol esa yo‘l-yo‘lakay chipta opkelgan, Oberfeldgasse bugun Avgustning tabassumsiz xira tortib qoladiyov, deya hazillashgan edi. Bundan xursand bo‘lib ketdim, negaki otam tabiatining umuman bus-butunligiga ishonchim komil emas, kasallik uning shaxsiyatiga ham allaqachon daxl qilgan deb o‘ylardim.

Kechqurun Helga bilan Verner kelishdi. Pirog tano-ul qilib, vino ichdik. So‘ng Verner ikkalamiz futbol o‘yicha jahon chempionatining yarim final o‘yinlarini tomosha qildik. Otam ham biz bilan birga o‘tirar, lekin – Germaniya bilan Italiya o‘rtasidagi – taktik jihatdan keskin, biroq yaqqol o‘zgarishlar sezilmayotgan o‘yin uni mutlaqo qiziqirmayotgandek edi, buning ustiga ora-sira:

– O‘zi kim bilan kim o‘ynayapti? Volfurtning raqibi kim? – deya tinmay so‘rar, men unga:

– Kennelbax, – deyaverib charchadim. Otam esa buni go‘yo o‘zi ham biladigandek, ranjigan ohangda:

– O‘yinni ham shunaqa o‘ynaydimi? – deb qo‘yardi.

Fabio Grosso birinchi golni urib hisobni ochgach, otam:

– Shoshma, shoshma, axir bu volfurtlik emas-ku, – dedi hayron bo‘lib.

Bunga Verner ikkovimiz qotib-qotib kulgandik. Haqiqatan ham o‘sha lahzalar o‘yinning avj nuqtalari edi. Boshqasi esa allaqachon yodimizdan ko‘tarilib ketgan.

\* \* \*

Otamning ellikka kirgan kuni ham yaxshi esimda qolgan. O'shanda men sakkiz yoshda edim. Verner ikkalamiz derazadan pastda – ayvonda uymalashib yurgan mehmonlarni qiziqib kuzatganmiz. O'sha kun otam deyarli o'ttiz yildan so'ng chekishni tashlagan kun sifatida ham yodimizda qolgan edi.

Bregens osmoni uzra ketma-ket pirotexnik raketalar otilgandi – 1976-yilning 4-iyulida AQSH mustaqilligining 200 yillik bayrami ham nishonlanayotgan edi. Tevarakatrofda yashayotgan amerikaliklar qo'shimcha raketalar otishib, bayramga fayz kiritgan. Bizning tasavvurimizda esa bularning barchasi go'yo otamiz sharafiga bo'layotgandek edi. Uning yosh kasbdoshlari o'shanda birin-ketin derazadan basseynga qarab sakrashgan.

\* \* \*

O'zining sakson yillik tavalludi tantanasida otam turnaqator bo'lib turgan qutlovchilarning qo'llarini ikkala qo'li bilan bir-bir qisib, ularning har biriga „Omon bo'ling, sog' bo'ling“, deya ezgu tilaklar tilab, minnatdorchilik bildirgandi. U bu tomoshadan g'oyat lazzatlanagan, yig'ilganlarda baxt-omadning faqat burch qismigagina daxldor odamdek emas, balki haliyam tetik va hushyor kishi sifatida taassurot qoldirgandi. Otam rahbarlik faoliyatining so'nggi yilida burgomistriga o'zi ish o'rgatgan edi. Hozir u burgomistrdan kamroq gapirishini, yaxshisi biron-bir qo'shiqni kuylab berishini so'raganida, ko'pchilik kulib yubordi.

Aka-singillarim otam hayoti haqida hikoya qiluvchi „ko'rgazmali taqdimot“ tayyorlashgan edi, ekranda ana shu lavhalar namoyish etila boshlandi. Lahzalik fotosurat-

lar hozir uning o'zida qanday taassurot qoldirayotganikin, buni bilolmadim. Mehmonlarning „eh“, „oh!“ deyişlari, dam-badam kulishlari unga ham ta'sir qilgan ko'rinadi. Bir mahal ekranda temirchi bobosi charm peshband taqqan va yelkasida og'ir bolg'a ko'tarib olgan holda ko'rindi, shunda o'zining ojizligi esiga tushib ketdimi:

– Men bo'lsam ortiq hech nimaga yaramayman, – deb yubordi. – E Xudo, ana bo'lmasa, baribir, hayron qoladigan joyi yo'q, – qo'shib qo'ydi u.

Oppoq devor sahnida elliginchi yillarning boshlarida olingan oilaviy fotosuratlar paydo bo'ldi, ana, Adolf va Tereziya Gayger oiladagi to'qqiz nafar bola qurshovida turishibdi, ulardan biri – Emma oradan ko'p o'tmay, ko'richagi yorilib ketib nobud bo'lgandi. Qiziq, bobo va buvilarimiz zohiran o'sha paytlardayoq qarilik ostonasiga qadam qo'ygan ko'rinishadi, unday desam, buvim yana qirq yil umr ko'rgan, tashqi ko'rinishi ham deyarli o'zgar-magan, sochlari kulrang, yuzini chuqur ajin bosgan, ish-layverib holdan toygan kichkinagina ayol edi.

Xullas, butun oila a'zolari – o'tmish odamlari-yu bir paytlar grifelni<sup>1</sup> yerto'la bo'sag'asida – chunki bo'sag'a qumtoshdan bo'lib, unda toshqalam oson charxlanardi – o'tirvolib uchqirlagan dehqon bolalari, xayoliy fantazi-yadan ko'ra ko'proq amaliyotga moyil, o'ta ixtirochi va o'ta yashovchan, yashashga qobil, uddaburo qon-qarindoshlar, barchasi jamuljam edi. – Faqat birgina Yozef yo'q, u oilaviy magnetizmdan mosuvo bo'lib, jahon-gashtalikni ixtiyor qilgan, elliginchi yillarning oxirida AQShga ko'chib borib, u yerda elektr toki bilan ishlay-digan konserva ochqich ixtiro qilgan va shu tariqa o'z orzusiga erishgan edi.

<sup>1</sup> *Grifel* – toshqalam, tosh-taxtaga yozadigan qalam.



Otamning aka-ukalaridan, opa-singillaridan mabodo birortangizda uning harbiy asirlikdan ozod bo'lgandan so'ng tushgan surati nusxasi yo'qmi, deb so'radim. Gap qaysi rasm haqida ketayotganini darhol fahmlab, barchasi oppoq sochli boshini sarak-sarak qildi. Sakson yoshdan oshib ketgan Milya aytdiki, u zamonlar boshqa edi, u davrlarda suratdan hozirgidek xohlagancha nusxa olishning imkoni bo'lmagan.

Paul o'zining urushdan qaytib kelgani va o'sha paytdagi ahvol haqida so'zlab berdi. Hamma yoq vayron, aralash-quralash, mevali bog'larni jala urgan, dalalarda daraxtlar ayqash-uyqash bo'lib yotar, ishga yaroqli erkaklarning aksariyati frontda, ro'zg'or tashvishi-yu molhol, barchasi ayollar zimmasida bo'lgan. Urush tugaganda Robert to'qqiz yashar bola ekan, aytishicha, bir kuni dalada ishlab turganlarida to'satdan havo aynit shunaqangi kuchli shamol kelibdiki, arang bitta daraxga tirmashishga ulgurgan, so'ng oyoqlari ostiga qattic do'l yog'ib beribdi. O'shanda aka-opalari uyga olib ketayotgan pichan ortilgan aravaning ag'darilib ketishiga sal qolgan ekan. Mevalarni do'l urib ketganidan o'sha yili ba'zi bir daraxtlar kuzdayoq gullay boshlagan.

Otam bularning barchasini unutgan, ortiq eslayolmaydi. Xotiralar endi tabiatiga ko'chgan, birgina tabiati qolgan, xolos. Tajribalar esa hamon ta'sir ko'rsatishda davom etardi.

\* \* \*

Bu yil, avvalgi yoz fasllarida bo'lganidek, yozning bir necha haftasini tug'ilib o'sgan uyimda o'tkazdim. Shunda otam bilan oramizdagi masofa tobora qisqarib borayotganini, kasallik sababli anchadan beri kutilgan munosabatlarning yo'qolish xavfi ham barham topgani-

ni sezdim. Buning o'rniga biz bir-birimiz bilan shunday tabiiy, xolisona va beg'araz bir tarzda do'stlashib oldik, buning uchun biz xastalik va xotira yo'qotishdan – shaxsan o'zim faromushxotirlikdan – minnatdor bo'lmog'imiz kerak edi. O'rtamizdagi barcha kelishmovchiliklar ortda qoldi. Endi bunday fursat hech qachon qaytib kelmaydi, deb o'ylardim.

O'shanda Innsbrukda yashayotgan turmush o'rtog'im Katarina ham Volfurtda bir necha kun bo'ldi. Bir kuni biz otamni birga sayr qilishga ko'ndirdik, u istar-istamas bizga hamrohlik qildi. Yo'lda borayotib, garchi hali Oberfelddan bir qadam ham tashqariga chiqmagan bo'lsak-da, uning hadeb orqaga qaytamiz deyaverishi biroz asabimga tegdi, chunki havo ajoyib, zo'zal oqshom, u bilan jon deb daryo sohiligacha piyoda sayr qilmoqchi bo'lib turuvdik.

Yana Oberfeldga qarab burilgandik, ko'z o'ngimizda qishloq namoyon bo'ldi. Otam yengil tin oldi, xursand bo'lib, qishloq manzarasini maqtay ketdi.

– Bu yerga oldin ham sayr qilgani kelib turarmiding? – so'radi u mendan. – Ko'pchilik bu yerlarga qishloq manzarasini tomosha qilish uchungina keladi.

Bu gap menga g'alati tuyuldi.

– Men bu yerga, – dedim otamga qarab, – manzara uchun kelmayman, chunki bu yerda katta bo'lganman.

Uni hayron qoldirdim, shekilli, aftini bujmaytirib:

– Eh-a, shundaymi, – deyoldi, xolos.

Shunda undan so'radim:

– Dada, bilasizmi men o'zi kimman?

Bu savoldan biroz dovdirab, Katarinaga o'girildi-da, men tomonga qo'li bilan ishora qilarkan, o'zicha hazillashgan bo'ldi:

– Qara, buning nimasi qiziq ekan.

– Dada, hayotingizdagi eng baxtli dam qachon bo‘lgan?

– Bolalar yosh bo‘lgan payt.

– O‘zingiz va aka-singillaringizni aytyapsizmi?

– Yo‘q, o‘z bolalarim demoqchiman.

Natsizm olib borgan siyosat oqibatida diniy va fuqarolik urf-odat, an‘analarining qadrsizlanishi urushdan so‘ng ana shu qadriyatlarning bilvosita soxtalashuviga olib keldi. Paulning aytishicha, o‘sha davrda taqvodorlik, soxta soddadillik, pand-nasihatchilik va mehnatdan bo‘lak hech nima bo‘lmagan. Bunday vaziyat, ayniqsa, yoshlar uchun dahshat va halokatdan boshqa narsa emasdi.

Otam o‘zining aniq niyat va maqsadlariga ega bo‘lgani uchun ham mushkul vaziyatdan chiqib keta olgan, uning uchun eng muhimi, qayg‘u-alamlardan qochib, quvonch-shodlik sari intilish bo‘lgan. Volfurtga qaytib kelgach, haqiqiy hayot to‘g‘risidagi o‘z tasavvuriga tayanib ish yuritdi, ayni chog‘da xavfsizlik, xotirjamlik va barqarorlik his-tuyg‘ularidan qalbi munavvar bo‘ldi. Albatta, uni tasodifiy xushxabarlar, yangiliklar kutib olmagan, imkoniyatlar ham deyarli bo‘lmagan. Chunki imkoniyatlarga ega chiqish uchun eng avvalo, ishonch kerak bo‘lardi, otamda agar urushdan oldin ishonch bo‘lgan bo‘lsa, endi u yo‘q edi. Aytishadi-ku, *Erfahrung bildet Narbengewebe*<sup>1</sup>.

Tinch, sokin va daxlsiz hayotga bo‘lgan ehtiyoj uni xotirjam turmush va turli xil qishloq uyushmalari sari yetakladi. U qishloq futbol klubining ta‘sis etuvchi a‘zolaridan biri bo‘lib, o‘zi jamoada o‘ng qanot yarim

<sup>1</sup>*Erfahrung bildet Narbengewebe* – so‘zna-so‘z tarjimasini: Tajriba chandig‘lardan iborat.

himoyachisi edi. Boz ustiga teatrdagi guruhga boshchilik qilar, u yerda Nestroyning<sup>1</sup> „Daydi“sini sahnalashtirishgandi. Bundan tashqari, aksariyat xotin-qizlardan tashkil topgan cherkov xoriga ham qatnar, qo‘shiq aytardi. Aslida, u xotin zotiga qiziqmas, uning uchun u ekzotik fenomen edi, xolos. Ayol deganda u eng avvalo, onani, o‘z onasini ko‘z oldiga keltirar, uning nomini muqaddas bilardi.

Ehtimol, u o‘z erkakligini isbotlashga ehtiyoj sezmagandir, kim biladi. Balki, u o‘zining mustaqilligiga ko‘proq ahamiyat bergandir.

Otam Forarlberg o‘lka hukumati idorasida benzin taqsimoti bo‘yicha mas‘ul mutaxassis vazifasida bir necha yil ishlagach, 1952-yildan Volfurt qishloq jamoasida mirza sifatida faoliyat yurita boshlagan. Jamoa idorasida oltmishinchi yillarning o‘rtalariga qadar sam kotiba lavozimi bo‘lmagan. Otamning ishxonasi qishloq maktabining birinchi qavatidagi sinfxonasida joylashgandi. Xona nihoyatda keng bo‘lib, qadimiy mebellar bilan jihozlangan, derazalari esa pardasiz edi.

Yoz oylarida u charm shim kiyvolib, o‘zi Kpegreg deb ataydigan shippakda, yozuv mashinkasini ikkala qo‘li bilan chiqillatib yozib o‘tirar, mashinkaning „chiq-chiq“ tovushi keng, deyarli bo‘m-bo‘sh xonada jaranglab chiqar, agar deraza ochiq bo‘lsa, ovoz to ko‘chaga qadar eshitilib turar, ko‘chadan o‘tgan-ketganlar: „Avgust yozyapti“, deb qo‘yishardi.

Burgenlanddan<sup>2</sup> Forarlbergga kelib qolgan bir mualima qiz bo‘lardir. Uni Terush deb chaqirisharkan. Shu

<sup>1</sup>Nestroy, Yohann – avstriyalik dramaturg (1801–1862).

<sup>2</sup>Burgenland – Avstriyadagi tarixiy o‘lka, viloyat.

qiz dadamga yoqib qolgan. Biroq Terush nikohsiz tug'ilgan bola bo'lgani bois, bobom bunga qarshi bo'lgan, otam esa taqdirga tan bergan. Afsuski, bu tugal hikoya emas, otamning aka-ukalari, opa-singillari bu haqda deyarli hech nima bilishmaydi, o'zim ham tortinib undan so'rolmaganman. Shuning uchun bilganimcha aytib o'tyapman.

Ammo otamning xuddi shu davrda, ya'ni elliginchi yillarning oxirida ota-onasining mevazor bog'i yuqorisidagi tepalikda uy qura boshlagani aniq. Imorat qurish uchun joy bobom tomonidan berilgan, chunki u yerda giyoh ham o'smagan. Shu paytdan boshlab, otam qo'li bo'shadi deguncha qurilishga qarab chopgan. U yerga cherkov yaqin bo'lgan, qo'ng'iroq sadolari doim eshilib turgan.

Shotlandiyalik aktyor, prodyuser Robert Harrison o'zining „O'lim saltanati“ nomli kitobida g'arb falsafasidagi tafakkurga oid qadimiy bir an'ana haqida yozadi. Unga ko'ra narsalar to'g'risidagi bilim ma'lum bir ishni bajarishning dastlabki muhim sharti hisoblanarkan. Xuddi shunga o'xshab, kimki uy qurmoqchi bo'lsa, uni qurishdan oldin uyning nima ekanini bilishi kerak. – Otam ham uyni shunchaki taxminan, umumiy tarzda bilgan, hamma narsaning rejasini o'zi tuzgan, ichi g'ovak g'ishtni ham o'zi quygan, elektr montaj ishlarini o'zi bajargan, o'zi suvoq qilgan. Suvoq ishlarini yaxshi ko'rardim, degandi u. Bunaqa narsalardan yaxshi xabardor bo'lgan, bu sohada o'zini xuddi uydagidek his qilgan.

Nihoyat, tez orada bog' uzra yangi imorat qad rostlagan. Bu yerdan o'ng tomonda Shveysariya tog'lari, yarim o'ng tarafda Appensell, to'g'rida esa qishloq va

Bregens, chapda Gebhard tog'i hamda ko'k bag'riga sanchilgan mezana va minoralar ko'zga tashlanardi. Xullas, tevarak-atrof manzarasi bu joyga o'zgacha joziba bag'ishlagan. Oradan ko'p yillar o'tib, mening „Uyni nega bunday solgansiz?“ degan savolinga otam, uy quyoshga emas, balki Gebhard tog'iga qaratib qurilgan, deya javob bergandi.

\* \* \*

1963-yilda, o'ttiz yetti yoshida otam nihoyat, uylanishga qaror qilib, Sankt-Pyoltenlik o'sha yosh muallima bilan nikohdan o'tgan. Qizning otasi temiryo'lda o'tyoqar bo'lib ishlagan, urushda halok bo'lgan. Onasi esa Ybbsdagi bolalar uyida tarbiyachi bo'lgan, u yer-bu yerda tikuvchilik ham qilgan. Onasi qaytadan yana turmushga chiqqach, qiz Forarlbergga – bobosinikiga keladi, shu yerda muallimlikka o'qiydi. Birinchi ish joyi: Volfurtdagi sakkiz yillik folksshule – eski maktab edi.

Shu tariqa onam bir qishloqdan yana bir olis qishloqqa kelgan va o'zining fikricha, xatoga yo'l qo'ygan. Oila qurayotganda aql kaltalik qildimi, endi boshga tushganni ko'z ko'radi. Bunday amaliy nikohshunoslik ilmidan ota-onam ancha uzoq edi. Ularning, avvalo, uyda o'rnak bo'ladigan, o'rgatadigan hech kimi bo'lmagan, qolaversa turmush to'g'risidagi tasavvurlari o'taketgan soddalik, butkul bexabarlik asosiga qurilgan bo'lib, yuzaga keladigan arzimas holat, vaziyatlarni, masalan, er xotinni yoki xotin erni „o'zgartirishga“ qodir emasligini hisobga olishmagan. Shunday, xarakter irodaga qaraganda kuchliroqdir.

Shunga ko'ra ular katta xatoga yo'l qo'yishgan. Lev Tolstoyning „Anna Karenina“ asarida shunday holat

bilan bog'liq ajoyib bir fikr keltiriladi: umr yo'ldosh tanlash masalasini yoshlarning o'ziga havola qilish o'qlog'liq to'pponchani besh yashar bolaga mos o'yinchoq, deyishdek gap. Bu kekxa knyaz xotinning fikri edi.

Baxt to'g'risidagi ikki xil tasavvur bir-biri bilan to'qnash kelsa nima bo'ladi, bu haqda o'ylab ko'rish to'ydan oidin ota-onamning xayoliga ham kelmagan. Albatta, bo'lishi mumkin bo'lgan baxtni yaratishga ikkovlon ham o'ziga yarasha hissa qo'shgan. Biroq pirovard natijada ana shu ulushlar baxtning turlicha, qarana-qarshi ko'rinishlariga mansub ekanligi ma'lum bo'ladi. Oxir-oqibat har ikkisi ham o'zicha baxtsiz bo'lib qolaverdi.

Ularning bir-biridan kutgan orzu-umidlari sarobga aylandi, vaholanki bir-biriga o'zaro ishonch bildirishning o'ziga xos yo'llari ham tubdan boshqacha edi. Avvalo, tug'ilgan yillari va oilaviy kelib chiqishlari o'rtasida yengib bo'lmas madaniy uzilish bor edi. Otam katta dehqon oilasidan bo'lsa, onam tashlandiq proletar xonadonidan edi, unisi urushdan oldingi davrda, bunisi esa urushdan keyingi yillarda sotsiallashtgan, otam urush hamda asirlik azobini tortgan bo'lsa, onam qashshoqlik va „jonajon vatan bo'ylab“ xronikal film romantikasini ko'rgan, xullas, turlicha qadriyatlar, turli xil orzu-umidlar, turlicha hissiy olamlar... otam oddiylik va pishiq-puxtalikni yoqtirsa, onam hissiyot va samimiylik, mehribonlikni yaxshi ko'rgan, unisiga dilkashlik, odamoxunlik manzur bo'lsa, bunisi ta'limni ma'qul ko'rgan. Otam madaniy hayotga yaroqsiz ekanligini oshkor qilib qo'yavergan. U haqida ba'zan shunday gaplarni ham eshitish mumkin edi: „Avgust kecha (teatrda) birinchi pardadayoq pinakka ketgan“.

Bu – hayotiy orzulardan tortib, to uylanish va bolalar tugʻilishiga oid tilaklar oʻrtasidagi haqiqiy nomutanosiblik edi. Boshqa paytda esa birgalikdagi hayot, turmush kun sayin oʻzgacha tus ola boshladi, bu barmisoli Bobil minorasida turib, zoʻr berib bir-birini ishontirishga urinayotgan, har biri oʻz tilida gapirib: sen meni tushunmayapsan! – deyayotgan ikki kishining holatini eslatardi.

Men otamdan onamga uylanishining sababini soʻraganimda, u oyimni nihoyatda yaxshi koʻrganini va unga boshpana bermoqchi boʻlganini aytgandi. Shu oʻrinda yana uning oʻsha mashhur mavzusi kun tartibiga chiqadi: uy, makon, boshpana, xavfsizlik va xotirjamlik. Mazkur tushunchalar uning koʻz oʻngida favqulodda ahamiyatga ega edi. Ishq-muhabbat yaxshi, biroq oʻz joyini topa bilish undan ham yaxshi, deb oʻylagan boʻlsa kerak-da, boyoqish.

Onam esa xavfsizlik va xotirjamlik emas, balki ragʻbat izlagan. Uning qalbi hamisha dunyoga ochiq, oʻzi yangilikka oʻch boʻlgan. Pullari yoʻqligidan bechoralar toʻy sayohatiga ham borisholmagan. Otam toʻy sayohatinigina emas, buning oʻrniga shunchaki sayrga chiqishni ham rad etgach, onam undan qattiq xafa boʻlgan. Otamga qolsa Volfurtdan kengroq va goʻzalroq goʻsha yoʻq edi olamda.

„Hattoki oʻrmonga, oddiy sayrga bormaganmiz-a!“, yozgʻirardi oyim oʻsha kunlarni eslab. Haqiqatan ham ushbu rad etish shonli sahifa boʻlolmasdi. Otam hatto bir kungina boʻlsa ham oʻz odatlariga qarshi borishni istamas, kundalik chop-chopdan iborat hayotiga xalaqit beradigan nimaiki boʻlsa, xoh shanba kungi kichkinagina sayr boʻlsin, xoh boshqa, hammasidan voz kechar-di. Uning hayotiy rejasi egri-bugri emas, balki toʻppa-toʻgʻri chiziqdan iborat edi.



Barbod bo'lgan nikoh haqida yozish... eski gapni qo'zg'ashdek tuyuladi. Ma'lum muddat ular bir-biri bilan murosa qilib, dil xotirjamligiga erishgandek bo'lishdi. Albatta, ular hech qachon janjallashib soch yulishmagan, binobarin, bolalar dunyoga kelgach, mavjud barcha keskinliklarga qaramasdan o'zaro munosabatda bir qadar muvozanat yuzaga kelgan. Oilada birin-ketin farzandlar tug'ilib, onam o'zini nihoyatda baxtiyor his etgan, otam ham o'z otalik rolini muvaffaqiyat bilan bajarishga, pirovardida yaxshi taassurot qoldirishga harakat qilgan. Haqiqatan ham bolalar ota-onaning baxti edi. Biroq oila, nikoh ishqiy munosabatlar bobida ortiq umid qilib bo'lmaydigan holatda edi. Tabiatan turlicha bo'lgan his-tuyg'ular er-xotinga ham birin-ketin pand bergan bo'lsa kerakki, ular bir-biriga nisbatan o'zaro muomalada bora-bora o'ta qaysar, o'jar bo'lib qolishgan. Ahvol shunday bo'lgach, ortiq tortishib o'tirishga yoki biri boshqasiga yon berishganda hojat qolmagan.

Tepalik ustidagi ana shu katta uyda hayot avvaliga bir maromda kechgan; biz binoyidek oila sifatida baralla harakat qilganmiz. Kuniga bir necha soat musiqa bilan shug'ullanar, tushki ovqatdan so'ng yarim soat Canasta<sup>1</sup> o'ynardik. Tushlik oldidan bolalar cherkov maydoni yoniga chopib borishar, u yerda ishxonadan uyga – tushlikka kelayotgan dadamizni kutib olishardi. Shunda butun qishloq qandaydir yoqimli, samimiy va mehribon bo'lib ko'rinar, bog'lar va ko'chalar bo'ylab taomning yoqimli hidi anqirdi, chunki soat o'n ikkida deyarli barcha xonadonlar tushlik qilishardi. Otam bolalardan birini velosipedning orqa tomonidagi yuk

<sup>1</sup> Canasta – Janubiy Amerikadan kelib chiqqan qarta o'yinining bir turi.

qo'yadigan joyiga, boshqasini oldiga o'tqazar, qolgan bolalar esa ulov ortidan zir yugurishardi. Shanba kunlari peshindan keyin otam bizni futbol maydoniga olib borar, yakshanbada sayrga olib chiqardi. Har gal Brengensdagi yetimxonadan Toni degan bola kelib, butun ta'tilni biz bilan birga o'tkazardi. Sabzavot, poliz ekinlari va qulupnay ekiladigan tomorqamiz bo'lib, ularga otamning o'zi qarar, limonyalpiz va qorag'atdan qiyomlar qilardi. Bir kuni oyim ko'lga cho'milishga borganda to'rt nafar bolaga ko'z-quloq bo'lish bir o'zimga qiyin bo'lyapti, deb keyingi gal dadamni ham birga borishga qistagan edi, u shartta uyimizga basseyn qurib berdi. 'asseynni garaj tomiga o'rnatib, uni osma ko'prik yor-umida balkon bilan tutashtirishdek tavakkal rejaga qo'lganining o'ziyoq katta gap edi.

Otam yoshim ulug', deb oilada hech qachon o'zini boshliq yoki xo'jayin qilib ko'rsatmas, aksincha, uni bezovta qilmasalar xursand bo'lardi. Uning tabiatida qattiqqo'llikdan asar ham yo'q edi. Onam yana ishlay boshlaganiga qaramasdan, uy-ro'zg'or ishlarida yordam bermagani chatoq edi. Haq va haqiqat haqqi, oilada er qiladigan ish bor, xotin qiladigan ish bor, derdi u. Uning fikricha, supur-sidir, yig'ishtirish – ayollarning ishi, bog' bundan mustasno, shnitsel<sup>1</sup> to'qmoqlash emas, bolg'alash erkaklarning yumushi edi.

Uyimiz har xil qurilishlar sababli ulkan bunyodkorlik maydoniga aylangandi. Otam bog' yoki uydagi sharoitlarni yanada yaxshilash yo'lida tinmay bosh qotirardi. Qo'shimcha xonalar kerakmi? Qani endi, ziyon qilmasdi. Marhamat.

<sup>1</sup> *Shnitsel* – yaproq-yaproq qilib kesib, yog'och to'qmoqcha bilan to'qmoqlab pishiriladigan kotlet.

Onam dunyoga talpingani bois yozda, asosan, Bodensee bilan Bregensvald o'rtasida joylashishni ma'qul ko'rgan germaniyalik va niderlandiyalik dam oluvchilarga xonalarni ijaraga bera boshladi. Otam chordoqni ham qurib bitirgach, yillik ijara turuvchilar, oyimning muallim hamkasabalari, yosh-yalanglar kirib keldi.

1977-yilda onam uchun dunyo yuz ochdi. Germaniyadan Peh<sup>1</sup> degan ismi jismiga monand, qop-qora sochli, doim qora kiyinib yuradigan ijarachi kelib, biznikida yashay boshladi. Asli kasbi nima, hech kim bilmaydi, lekin o'zi samimiy, ajoyib yigit edi. Biz bolalar ko'pincha uning Ovomaltine<sup>2</sup>sini bildirmay yeb qo'yardik. Diniy saboqlarga eski suratli jurnallarni olib borishimiz lozim bo'lgan paytlarda boshqalar teleko'rsatuvlar dasturi chop etilgan hamda Stadt Gottes kabi nashrlarni ko'tarib borsa, men Stern yoki Spiegel singari rasmi jurnallarni olib borardim, chunki ularni yosh ijarachimiz o'qib chiqib, zinapoya ostiga tashlab yuborardi. Bir kuni Peh chordoqdan tushib kelib, tezda ketishim kerak, ammo ijaraga to'lagani pulim yo'q, radio bilan oshxona plitasi sizlarga, deb qoldi. Otam rozi bo'ldi. Ijarachi ketdi. Oradan bir-ikki kun o'tgach, politsiyadan odam kelib, uni so'radi. Nimaymish, RAF<sup>3</sup> a'zosi sifatida shubha ostiga olingan emish. Biz bilmaymiz, u yo'q, ketgan, dedik.

Xuddi shu paytda „2-iyun harakati“ a'zolari tomonidan paypoq ishlab chiqaruvchi fabrikant Palmers

<sup>1</sup> Peh (Pech) – smola, saqich, qora mum, qatron, shuningdek, muvaffaqiyatsizlik, omadsizlik ma'nolarini ham bildiradi (nem.).

<sup>2</sup> Ovomaltine – kichik formatda tayyorlanadigan shokolad turi.

<sup>3</sup> RAF (Royal Air Force) – Buyuk Britaniya Harbiy-Havo kuchlari (ingl.).

<sup>4</sup> 1970-yillarda Berlinda faol ish olib borgan terrorchi tashkilot.

o'g'irlab ketilgan – telefonda gaplashgan shaxsning forarlberglik ekanini aksentidan payqab qolishgan. Ovoz egasini aniqlash maqsadida ma'lum telefon raqami gazetada berildi. Men to'qqiz yoshda edim, qiziqib o'sha raqamni yashirincham bir necha marta terib ko'rdim, har gal terganimda parol menga sirli va kulgili tuyulaverdi, qancha urinmay, gap nimadaligini tushunolmadim. Keyinchalik telefon qilgan abonentning volfurltik yosh yigit ekanligi ma'lum bo'ldi, ana ko'ring tomoshani. Oyim uni maktabda o'qitgan ekan, juda yaxshi bolaydi, dedi.

Ijarachimiz Pehning bir necha yil dom-daragi chiqmay ketdi. Biz bolalar barcha qidirayotgan terrorchi uyimizda yashaganidan va uning shokoladini bildirmay yeb yurganimizdan o'zimizda yo'q xursand edik, Volfurt RAFning maxfiy markazi bo'lsa kerak, deb o'ylardik. Kunlardan bir kun kutilmaganda uyimizga Pehning o'zi kirib keldi, uni ko'rib biroz xijolat bo'ldik. Otam uni politsiya surishtirganini aytgandi, u beparvo qo'l siltadi. Aytishicha, uni tezda topvolishgan va tez qo'yvorishgan, bu 1977-yilgi jazavalardan biri edi. Otam buni eshitib, yengil tin oldi, mening esa biroz hafsalam pir bo'ldi.

Bolaligim ham asta-sekin o'z nihoyasiga yetib borardi. Dadam shu paytgacha – tashabbus ko'rsatishi lozim bo'lgan davrgacha yaxshi va baxtli ota edi. Endi esa voyaga yetayotgan bolalari bilan ishi yo'q, axir u o'sib kelayotgan farzandlarini bir nimaga qiziqtirishi, ruhlantirishi kerak edi-ku. Biroq boshqalarni o'ylash uning tabiatiga yot edi. Yaxshisi, ortga chekinib, qishloqdagi odatiy tirikchilik tashvishlariga ko'milib yuraverardi.

Eshitganim bor, grek tilida „vatan“ va „odat“ so'zlari ma'no jihatidan bir-biriga yaqin ekan.

Telefon jiringlasa ham, otam qimir etmasdi. Birov undan bir nima so'rashini tasavvur ham qilolmasdi. „Bu aniq menga emas“, derdi u. Pochtachini ham kutmasdi. Nega kutadi? Axir uni qiziqtiradigan hech nima olib kelmasa.

Bora-bora otam bilan o'rtamizda bir-birimizni bog'laydigan hech narsa qolmaganini his eta boshladim. Biroq yoshlik g'ururi bilan ota ixtiyoriga qarshi borishning imkoni bo'lmagach (u hech qachon birovga xo'jayinlik qilishni istamagan), buning o'rnini bosa oladigan yo'l topdim – otamning johilligiga, nodonligiga qarshi isyon ko'tardim; odatda, ota-ona nazoratida yo bir nima yetishmaydi, yo bir nima ko'payib ketib, ortiqchalik qilib qoladi. Men uning loqaydligini yuziga soldim. U bu „ayblov“ga qo'shilmadi, bundan jahlim chiqdi, men uni tushunolmadim va shuning uchun ham murosa qilishga kuchim yetmadi. Nihoyat, ovora bo'lib o'tirish befoyda, dedim-da, uni „ro'yxat“dan o'chirdim. Chunki o'zimning muammolarim ham yetib-ortardi. Bu to'g'riku-ya, ammo ayni chog'da bahonayam edi, negaki endi yoshimga mos ravishda qiziqishlarim ham o'zgarib qolgandi. Ne tong, o'shanda otam bilan oramizdagi kelishmovchiliklar kelgusida bir qadar qisqarib qolar, deb umid ham qilolmasdim. Zero, otam endi men uchun unchalik muhim bo'lmay qolgan, menga endi baribir edi.

Men faqat bir narsani – undagi o'zim yoshligimdan guvoh bo'lgan keng fikrlilikni, uning boshqalar to'g'risida yengiltaklik yoki ichiqoralik bilan so'z yuritmasligini tobora kattalashib borayotgan masofadan turib bo'lsa-da qadrlar edim.

Otam endi ko'p vaqtini yerto'lada – o'z ustaxonasida o'tkazardi. U yerda bir nimalarni o'ylab topar

yoki bo'lmam kun bo'yi parishon bir alfozda cheksiz o'y-xayollarga berilib o'tirardi. Boshqacha qilib aytganda, u yerda u o'z hayotini tashqi voqea-hodisalardan „saqlay“ olardi. Ustaxona uning uchun tom ma'noda boshpana va tabiiy vatanga aylangandi. U yerdagi ishlardan esa hali-hanuz hayratga tushaman. Yetmishinchi yillarda u yerto'laning pastkkinaga shiftiga kattakon, keng taxtani yog'och mix bilan mahkamlab, taxtaga yosh bolalar uchun mo'ljallangan oziq-ovqat saqlanadigan shisha banka qopqoqlarini pastdan banka tushadigan qilib chiroyli, batartib bir tarzda burab o'rnatgan. Ro'zgorga kerak bo'ladigan nimaiki bo'lsa, hammasini saralab, tur-turiga ajratib, o'nlab bankalarga joylaganda, ularni shipga, yaqqol ko'zga tashlanadigan qilib „osib“ chiqqan. Ana endi kimga nima kerak bo'lsa, yerto'laga tushib, izlagan narsasini qiynalmay topib oladigan bo'lgan.

Oilamizda gohida shunday savol-javoblar ham bo'lib turardi:

– Dadam qayerda, ko'rmadingmi?

– Ustaxonasida bo'lsa kerak.

– U yerda nima qilayotganikin?

– Yana tag'in bo'lmag'ur narsalarni o'ylab topayotgandir-da.

O'sha paytlarni eslasam, shunga o'xshash gap-so'zlar tez-tez bo'lib turardi. Biz uydagilar otamning parishon-xotirligi bois o'z „ustachilik“lari bilan (yerto'lada parmalash dastgohi ishga tushsa, televizor ekrani xiralashar yoki doimiy taraq-turuq bolalarning dars tayyorlashiga, o'qish-yozishiga xalaqit berardi) oilamiz hayotiga rahna solmasa derdik. O'zim ham otamning kasallik sababli faromushxotirlikka berilishini va buning oqibatida hayo-

tinga putur yetkazishini xohlamasdim. Ochig'ini aytganda, u xastalik boshlangan paytda ham Robinzon Kruzoga o'xshab avtonom hayot kechirishda davom etardi – oila uning uchun (sahna ortidagi) dengiz, shamol, o'rmon va echkilar hamda my man Friday (sodiq xizmatkor) edi.

Robinzon Kruzo otam o'z hayotida o'qib chiqqan birdan bir roman edi. Jahon adabiyotining u qadar mashhur bo'lmagan ushbu romanida muhabbat emas, balki o'z haq-huquqini himoya qilish g'oyasi asosiy motiv qilib olingani uchun ham uni qayta-qayta o'qib chiqqan. O'zining birinchi avtomobili – 1934-yilda chiqqan, tomi ko'tarib, qaytarib qo'yiladigan Cabrio yengil mashinasini otam Robinzon deya e'zozlardi. Uni 1955-yilda, uylanmasdan ancha ilgari sotib olgan, o'sha yili shu mashinada do'stlari bilan ikki yoki uch kunga Janubiy Tirolga<sup>1</sup> borib kelgan edi.

Saksoninchi yillar shitob bilan ilgarilab borardi. Ota-onam hali ham oilaviy totuvlik darajasiga yetib borishmagan, aksincha, o'tgan vaqt ichida ular orasidagi tafovut yanada chuqurlashib ketgan, uyda og'ir kayfiyat hukm surar, bolalarning balog'atga yetishi natijasida oilaviy parokandalik battar avj olayotgandi. Oilada yakdillik, hamjihatlik bo'lmagach, uning har bir a'zosi o'zini xuddi begonadek yolg'iz his qilib, hade-may hamma o'zi bilan o'zi ovora bo'lib qoldi.

Yozef amakim bir vaqtlar shunday degandi:

„Bizning uyda ham g'alati vaziyat hukm surardi. Agar maktabda biron muammo bo'lsa, uni hatto aka-ukaga ham aytilmas edi. Mabodo kimdir xursand bo'lsa ham, hech kimga bildirmay xonasiga chiqib, u yerda o'zicha sakrab, irg'ishlardi“.

<sup>1</sup> Janubiy Tirol – Avstriyadagi tarixiy o'lka, viloyat (tarj.).

Men ham hozirgi vaziyatni xuddi shunga o'xshash deb hisoblardim. O'zim ham faqat namoyishkorona cheklanishgagina moslasha olardim, xolos. Oxir-oqibat hamma bir-birining joniga tegdi, har holda men shunday deb o'ylardim.

Gimnaziyani bitirgan paytimda oilaviy kelishmovchilik oilamiz a'zolarining ruhiy holatiga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsata boshlagan edi. Shukrki, bu jayrayon boshqa takrorlanmadi, oradan yillar o'tib, vaziyat o'nglangach, o'zimiz buning guvohi bo'ldik.

Otamning xotirasidan-ku bu voqealar batamom „o'chib“ ketgan, mening ko'z o'ngimda esa hamon elas-elas aks etib turadi. Ota-onam maktabda o'qib yurgan paytlarimda meni deb oz-moz tortishib qolar, oyim bundan iztirob chekar, ruhan qiynalardi. Nega oyimning ko'pincha kayfiyati yomon bo'lib yurishini endi-endi tushungandekman. Gimnaziyani bitirish tantanasi arafasida ham uyda janjal bo'lib o'tgan va tantanada hamma o'quvchilarning ichida yolg'iz men ko'ylakda emasligimdan oyimning jahli chiqqan edi. Shunda dadam meni bir chetga chaqirib, o'ziga xos vazmin ohangda men bilan vaziyatni muhokama qilib, kelner'dan ko'ylak sotib olib bersam nima deysan, o'ylab ko'r, dedi. Kitelining ichki cho'ntagidan hamyonini (unda o'sha fotosurat ham bor edi) chiqarib, puli borligini ko'rsatgan bo'ldi. Odatda, har bir kelnerning har ehtimolga qarshi javonda ehtiyotdan olib qo'yilgan qo'shimcha ko'ylagi bo'lardi, chunki mijozlarga xizmat ko'rsatayotganda yoki taom tashiyotganda u-bu to'kilib ketishi ham mumkin edi. Dadamga go'yo oydan tushgandek tikilib qoldim, kelib-kelib kelner ko'ylagini ki-

---

<sup>1</sup> *Kelner* – Restoran xizmatchisi (*tarj.*).



yamanmi, deb taklifini rad etdim. Hozir o'sha kunlarni eslarkanman, dadamning taklifi oyimga nisbatan murosa yuzasidan bo'lganini e'tirof etgim keladi. Oradan bir necha kun o'tgach, oliy o'quv yurtida o'qish uchun Volfurtdan jo'nab ketganman.

– Siz uchun hayotda eng muhim narsa nima, dada?

– Bilmadim. Ko'p narsalarni boshdan kechirdim. Lekin muhimi nima ekan?

– Biron nima esingizga kelmayaptimi?

– Muhimi, atrofingdagilar samimiy bo'lishsin. Shunda ko'p narsalar olg'a siljiydi.

– Nimani unchalik yoqtirmaysiz?

– Birovning ketidan ergashishni. Agar meni gij-gijlashsa, yomon ko'raman.

– Sizni hozir birov gij-gijlayaptimi?

– Hozirmi, yo'q.

Yetmishinchi yillarning oxiri. Sovuq yoki seryomg'ir kunlarda biz, bolalar oshxonadagi stol atrofida o'tirivolit hayot o'yinini o'ynardik. Bu – iqtisodiy muvaffaqiyatga yo'naltirilgan, stol ustida o'ynaladigan beozor o'yin bo'lib, bolalar uni o'n yoshdan boshlab o'ynashardi. Stol ustiga inson yoshi va umr bosqichlariga taalluqli turli-tuman rasmlar chizilgan, tole g'ildiragi yurgizilsa bas, u har xil yo'l va yo'nalishlar bo'yicha gir aylana boshlaydi: o'qish, sayohatlar, uylanish, yutuq, muvaffaqiyat, omadsizlik, yonib bitgan uy-joylar, kasbiy muvaffaqiyatsizliklar, neft koni, samarasiz, mavhum fikr yuritishlar, kumush to'y, nafaqaga chiqish va hokazo. Biz o'shanda o'yin, bu – oldimizda turgan hayot yo'li ekanligini bilmaganmiz, yiqilib qolish yoki olg'a borish haqiqatan ham ko'pincha omadga bog'liq ekanini tasavvur ham qilolmaganmiz. Kimdir baxtsiz hodisaga duchor bo'lsa

yoki kasal bo'lib yotib qolsa, unga shunchaki ichiqoralik bilan kulib qo'ya qolganmiz.

Otamning yo'l topib yurish, o'zining qayerdaligini bilish layoqati kun sayin sustlashib borardi. Ba'zan kechalari o'rnidan turib, pijamada chiqib ketgan ko'yi bemahalda kezinib yurar, qo'ni-qo'shnilarni ham bevaqt bezovta qilardi. Shu bois biron kor-hol bo'lmasin degan xavotirda kecha-yu kunduz nazorat tashkil qilib, zinapoyaga olib chiqadigan eshikni tambalab qo'yadigan bo'ldik.

Uyimizga kelgan slovakiyalik ayollar otamning kun tartibiga oydinlik kiritishdi. Shu paytgacha ertalablari yotoqxonasiga kirib-chiqib yurgan har turli odamlar uni dovdiratib qo'yishgandi, chamasi. Endi esa uning kayfiyati, rubiy holati ancha yaxshilandi, ko'ngli ko'tarilib, ko'z o'ngimizda yashnab, ochilib ketdi. Kasallik borgan sayin mo'tadillashib, otam uchun endi demensiyaning oltin asri boshlangandi.

Shunisi qiziqki, demensiya bilan og'rigan bemorlarning hech qaysisi bir-biriga o'xshamaydi, umumlashmalar o'ta mavhum, har bir kasal mohiyatan sirli, g'alati bo'lib, xastalik ham o'ziga xos tarzda kechadi. Otamga kelsak, jarayon sekinlik bilan borar, dard unga qanchalik kam bilinsa, kayfiyatiga ta'siri ham shunchalik sustlashib qolardi. Kasallikni emin-erkin his qilgani uchun endi undan unchalik qo'rqmas, taqdirga tan bergani tufayli unda ijobiy nuqtayi nazar shakllangan edi.

Uy ichida dovdirab kezishlari ham kamaydi. Albatta, haliyam uyga ketaman deyishini qo'ymasdi, biroq bu istak ilgarigidek vahima aralash emas, balki hayot hamisha g'urbatdan iborat, shuning-chun g'am chekishga arzimaydi, deb fikrlaydigan odamning ovozigiga xos ohangda yangrardi.

– Hozir men uyga ketaman, – deb qoldi u bir kuni. Aftidan, birga boradigan hamrohini kutaverib charchagandi.

– Men bilan birga borasanmi yo shu yerda qolasanmi?

– Men shu yerda qolmoqchiman.

– Yaxshi, unda o'zim yolg'iz ketaveraman. Bu yerda kutib o'tirgandan nima foyda, kim biladi, hali noyabrda ketishning o'zi bo'ladimi. Balki, yana bir nima to'lashga to'g'ri kelar. Yagona imkoniyat – hoziroq ketish.

– Ha, bora qoling.

– Ketsam bo'ladimi?

– Ketaman desangiz, marhamat, ruxsat.

– Yana bir gap – oila a'zolarimni ham olib ketsam maylimi?

– Albatta, opketa qoling.

– Yaxshi, rahmat. – U yana nimalarni olib ketsam ekan, degan xayolda yon-veriga qaradi, so'ng mamnun holda dedi:

– Menga qarashli hech vaqo qolmabdi-ku.

Nihoyat, u menga yaqin keldi, yuz ifodasidan vaziyat unga biroz noqulay ekanligi sezilib turar, nimagadir ikkilanar, oxiri muammoni yashirmay ayta qoldi.

– Menga manzilni bermaysanmi? Yo boshqa gaping bormi? Aytmoqchimanki, yuqori ko'cha bo'ylab to'g'ri yursang uyga ko'zing tushadi, demaysanmi?

Shu tobda uning yordam so'rab mo'ltirab turishini ko'rib, ko'nglim buzildi.

– Shoshmang, – dedim unga, – fikrim o'zgardi, men ham boraman. Yarim soatgina kutib turing, yozuv-chizuvimni tugatib olay, so'ng birga boramiz.

– Qayoqqa? – so'radi u.

– Uyga-da. Mening ham uyga borgim kelyapti.

– Rostdanmi?

– Ha-da. Biroq siz avval ozgina dam olib, kuch yig'volishingiz kerak.

– Shunaqa uzoqmi?

– Ha, uzoq. Lekin biz birpasda yetamiz.

– Chindanam birga borasanmi?

– Albatta.

– Aniqmi?

Uning qo'lini olib, mahkam qisdim.

– Bo'lmasam-chi.

Bu uning ko'nglidagi javob edi. Shu zahoti yuz-ko'zi yashnab, qo'limni tutdi:

– Rahmat!

Shundan so'ng yonimga, stol atrofiga o'tirdi. Oqshomimiz xayrli o'tdi. Dadamni vaqtida o'rniga yotqizdik.

Ajabo, u meni ko'pincha ukasi Paulga o'xshatardi. Baribir emasmi, u ham begonamas, derdim o'zimcha. Ertalablari men bilan xuddi xirgoyi qilganday cho'zib salomlashardi:

– Salom, o'zimning ajoyib u-ka-gi-na-a-am...

Ba'zan ukasi Paulni „o'rmon nazoratchisi“ deb tasavvur qilar, gap orasida qo'shib qo'yardi:

– U shoir va mutafakkir ham.

Endi ilgariyidek o'zicha tez yurolmas, shuning uchunmi, ko'pincha uy yonidagi devor ustiga chiqib o'tirar yo bo'lmasa ayvonga borib, qishloqni tomosha qilardi. Shunda uning men tomonga o'girilib, yo'l-yo'lakay suhbat boshlashini kutardim. Ochig'ini aytganda, oramizda haligacha tasodifiy gurunlardan boshqa narsa bo'lgan emas. U meni hech qachon ibodatga o'zi bilan birga olib bormagan, menga hech qachon maslahatlar bermagan. Men uning pedagogik muhim

mavzuda biron-bir va'z-nasihat qilganini eslolmayman. Uning afzal ko'rgan „mashg'uloti“ bor-yo'g'i ob-havo tafsilotlari hamda landshaft o'zgarishlari haqidagi fikr-mulohazalardan iborat bo'lardi, xolos. Agar u daraxtlarning ola ko'lankasida turgan bo'lsa, hamma ishlar joyida deb o'ylash mumkin edi.

Gohida menga ortda qolgan vaqt nihoyatda qisqa bo'lib ko'rinardi. Biz kelasi va undan keyingi yilda qayerlarda bo'larkanmiz? – o'ylardim o'zimcha. Ikki yoki uch yil – bitta roman ustida taxminan shuncha vaqt ishlashim mumkin edi. Uch yil, ana shu vaqt ichida otam men uchun g'animat tuyulardi. Shuning uchun Forarlbergga imkoni boricha tez-tez kelib turdim. Unga qarab turgan ayollarga tushdan keyin javob berib, dadam bilan yolg'iz qolib vaqt o'tkazdim.

Ba'zi kunlar nihoyatda tinch, xotirjam o'tardi. Sukunatga ko'nikmaganim uchunmi, qulog'imga bir balo bo'ldimikin, deb o'ylab ham qo'yardim. Yozayotgan paytimda otam ro'paramda soatlab o'tirardi. Qo'llarini stol uzra yurgizarkan, dam tez, dam bir maromda nafas olar, gohida gazeta taxlamlari qo'yilgan joyda kuymalanar, umuman olganda o'zini vazmin va xotirjam tutardi. Goh u savol berib, suhbatlashib qolardik. Ba'zan yon tomonimda turgan ko'yi noutbukka nazar tashlab, yozganlarimni o'qiy boshlardi. Darvoqe, yozayotgan narsalarim uni qiziqtirarmikin? Bu haqdagi savolimga shunday deb javob bergandi:

– Ha, ko'p emas, oz-moz qiziqtiradi.

So'ng yana o'z joyiga o'tiradi. Yuz ifodasi o'zgaradi, endi go'yo xayol surayotganday tuyuladi. Shu parishon holatida u menga mo'ysafid bo'lib ko'rinadi. Go'yo bundan boshqa zarur ishi yo'qday barmoqlarini o'yna-

tarkan, mabodo yordam-pordam kerak bo'lsa, tortinmay aytaver, deyishni ham unutmadi.

– Afsuski, – davom etdi u, – endi ilgarigidek yaxshi natijalarga erishmoq qo'limdan kelmaydi, kuch-quvvat ham qolmadi hisob. Senga ko'pam yordam berolmasam kerak.

– Yo'q, siz menga hammadan ko'ra ko'proq yordam berasiz.

– Unday dema! – dedi u.

– Yo'q, siz menga juda ko'p yordam bera olasiz.

– Shu deganingga ham rahmat, baraka top.

– To'g'ri-da.

U bir zum o'ylanib qoldi, so'ng:

– Unday bo'lsa, ma'lumot uchun qabul qildim.

Xonada yolg'iz o'tirgan paytlarda, u ko'pincha qo'shiq aytardi. Shu ketishi bo'lsa to'qsonga kirsa ham ajabmas, deb o'ylardim. Axir uning yashashi sog'lom turmush tarzining xuddi o'zi edi-da. Har kuni batartib ovqatlanar, qo'shiq aytar, sayrga chiqar va uzoq uxlardi. Juma kuni go'sht berishmasdi; unga qaraydigan slovakiyalik nazoratchilar bunaqangi narsalarga juda e'tibor berishardi. Agar Peter bilan oilasi bir kun oldin borib kelgan bo'lsa, yakshanbada otamni cherkovga olib borishardi.

Kuylayotganda u hazillashibmi, so'zlarni o'zgartirib yuborardi. Gapi-rayotganda-ku qo'yaverasiz, topqirligi haddan ziyod oshib ketar, go'yo o'sib, qalin bo'lib ketgan bog' shakliga solingandan so'ng ochilib ketganday, ilgarigi quvligi, mug'ombirligi yana qaytadan namoyon bo'la boshlardi.

– Bunaqa narsalar bilan ham qisman shug'ullanganmiz-da, – derdi u. – Qisman, bu juda ko'p emas, balki nihoyatda kam deganim.

Uning ifoda usulidan mutaassir bo'lib, shu tobda o'zimni so'zlarning sehrli kuch-qudratiga daxldor his qildim. Jeyms Joys ham o'zida hech qanday fantaziya yo'qligini, shunchaki tilning imkoniyatlariga ishonishini aytib o'tgan ekan. Otam haqida ham xuddi shunday fikrni aytish mumkin edi. Masalan, kelajak so'zini u lakejak deb o'zgartirar, men ifodalagan lotin oxiri iborasini butunlay „ag'darib“, lotin oxiri emas, balki umrining oxiri yaqinlashganini anglatmoqqa urinardi. Shu asnoda So'zlarga shunday urg'u berardiki, ularning fonetik yaqinligi hammaga birdek tushunarli bo'lardi. Misol uchun, *pressant* (shoshilinch) va *pressiert* (oshi-g'ich) so'zlarini bo'la qol hamda chaqhon-chaqqon bilan bir-biriga qiyosan qo'llardi. Men hali eshitmagan bir talay eski iboralar ham e'tiboridan chetda qolmasdi

– Choynabni har qancha tortganing bilan, u kattari qolmaydi.

– Doim qoqinib yuradigan odam yiqilmaydi.

– Oshingga pashsha tushdimi deyman, anqayasan.

Mabodo biron-bir so'z esiga kelavermasa:

– Unga (so'zga) nima deb ot qo'ysamikin, – deb qo'yardi.

Og'zidan so'zlar oson, yengil, lak-lak ko'chardi. Sira ham zo'riqmas, xayoliga nima kelsa shuni gapiraverrardi. Xayoliga kelgan narsalar esa nainki ajoyib, o'ziga xos, balki teran ma'no kasb etardi. Buni ko'rib:

– Nega shunaqa narsalar mening esimga kelmaydi! – derdim va undagi aniq ifoda, ohang uyg'unligi va so'zlarini mohirona tanlay olishidan hayratlanardim. Bir kuni dedi:

– Menga qara, sen bilan ikkov birgalikda hayotimizni iloji boricha yoqimli, ko'ngilli qila olamiz, basharti bu

qo'limizdan kelmasa, unda birimiz burun tortib quruq qolishimizga to'g'ri keladi.

Mana shunday lahzalarda u kasallik kulbasidan chiqib kelib, toza havodan nafas olayotganday, bir zunda o'ziga kelib qolganday tuyulardi. Bunday baxtiyor damlardan zavqlanib ketardik, chunki ular xastalikdan „yulib“ olingan bo'lar, ajoyibligi ham ana shunda edi.

– Fikri ojizimcha, ahvolim yaxshi, – derdi u shunaqa paytlarda. – Men endi qarib qoldim, endi o'zinga yoqqan ishni qilishim kerak, ko'raylik-chi nima bo'larkin.

– Xo'sh, nima ish qilmoqchisiz, dada?

– Hech nima. Bilasanmi, u juda ajoyib ish. Qo'ldan kelsa bo'ldi.

U o'z dardini yo yaxshi anglamasdi yoki o'ziga uncha og'ir olmasdi. Ko'p qon yo'qotishi oqibatida, siydik chiqishi natijasida qovuqda shish borligi ma'lum bo'lgach, biroz sarosimaga tushdi. Keyin yana hammasi yaxshi bo'lib ketdi, bunga o'zi ham hayron qolardi. Faqat operatsiyadan keyin narkoz ta'sirida hamda tevarak-atrofdagi notanish joylarni ko'rib ozgina gangigan, xolos. Ko'p o'tmay shifokorlar uyga javob berganidan hamma xursand bo'lgan. Uyga kelganini hatto o'zi ham bilgan, bu albatta, yaxshilik alomati edi.

Kasalxonadalik paytida unga Daniyela qarab turgan. Og'riq paydo bo'lganda, Daniyelaga yuzlangan, u esa yordam berolmasligini, lekin har doim yonida bo'lishini aytgan. Shunda u:

– Yonimda bo'lsang bo'ldi, shuning o'zi katta yordam, – degan.

Ko'proq keksalarga xos bo'lgan qand kasali ham tashxis paytida aniqlangan. Otam har kuni g'alati qiliqlar qilib, atrofdagilarni hayron qoldirgan. Har qanday katta



hapdorini ham suyuqliksiz, aftini bujmaytirib yutavergan, yutib bo'lgandan keyingina og'iz chayqagan.

Oradan ma'lum muddat o'tgach, u televizorni boshqa bir voqelik sifatida idrok qilolmay qolgan. Ko'ziga dam notanish xonalar ko'rinsa, dam u yerga avtomobil kirib kelgan.

– Bu yerga moshin qanday kelib qoldi?

Rojdestvo bayrami arafasida uyda keks yeb o'tirib o'rnidan turganda, televizor oldiga borib, yangiliklarni o'qiyotgan suxandonga „keksdan oling“ deya manzirat qilgan. Suxandon e'tibor bermagach, endi gusarcha kulcha nonni olgan, suxandonning qimirlayotgan og'ziga yaqin oborib, tatib ko'rishga undagan. Suxandon bu gal ham lom-mim demagan. Uning „qo'polligi“dan otamning birozgina jahli chiqqan, xolos. Mazkur voqea, umuman, kulgili bo'lsa-da, lekin bizni xiyla xavotirga solib qo'ydi.

Haqiqatan ham kasallik otamizni endi har turli g'alati holatlarga solardi. Bunday damlar ko'pincha qisqa bo'lsa ham, lekin bemor o'zini yaxshi his qilmayotganidan dalolat berardi. Unga doim ko'z-quloq bo'lib turganliklariga qaramasdan, tez o'zgardi-qo'ydi.

Nazoratchi ayollarning ba'zi birlari bilan u bir jon-bir tan edi, ayrimlari esa uni ishonchli qo'llarda ekaniga ishon-tirolmasdilar. Shunda u dovdirab, o'z-o'zidan vahimaga tushar, qo'rquvdan o'zini qo'yarga joy topolmay qolardi.

– O'q otishyapti, pana joyga o'tishimiz kerak! – qichqirardi u. – Shveysariyaliklar yana bizga qarab o'q otishyapti!..

\* \* \*

Katta hovlidan kulrang-qo'ng'irtus tutun ko'kka o'r-laydi – Robert amakim araq tayyorlash bilan band. Erih

amakim tushdan oldin chelak bilan belkurakchani olib, dala-qirdagi eman nihollariga belgi qo'yib keldi. Yozuv stolim osha kaminga nazar tashlayman. Uning ortidagi yong'oq daraxti dam tutab, dam lang'illab yonayotgan olovda jimillab ko'rinadi. Kun salqin, osmonda harir bulutlar suzadi. Bir to'da qizilto'shlar hovlidagi xo'jag'at butasi orasida timirskilanib yemish qidiradi.

Bir soatdan buyon „Hammasi Zali haqida“ nomli asarim ustida ishlab o'tiribman. Cheti uchgan piyolada qahva ichib turgandim, qo'l telefonim jiringlab qoldi. Otamga qarab turadigan ayollardan biri – Mariya ekan. Aytishicha, unga dushga kirib yuvinib ol, degan, so'ng nima ish bilandir tashqariga chiqqan, qaytib kelsa, yuvinish o'rniga vannaxonani ichidan bekitvolib, chiqmay o'tirganmish. O'zim borib iltimos qilganimdan so'ng eshikni ochdi. U egnida uzun shim, yengsiz oq ichki ko'ylak, vanna kursisida badani shalpayib o'tirardi. Jahl ustida bo'yniga ikkita sochiqni ustma-ust o'rab, bir qo'lida uzun dastali cho'tka, boshqasida esa tirnoq oladigan qaychi-qisqichni egovi ochiq holda ushlab olgan. Saltanat hassasi va qilich – uning hozirgi ko'rinishi hech qaysi qioldan qolishmasdi. Faqat yuz-ko'zlarida telbalik muhri zuhur edi.

– Men bilan birga televizor ko'rmaysizmi? – so'radim undan.

U men tomonga qaramadi ham, qovog'ini solib, go'yo bugun nima bo'lsam bo'ldim deganday xezlanib turaverdi. Aftidan, ko'ziga yo'q narsalar ko'rinar, eshitilar, tez-tez dush tarafga qarab qo'yar, shu asnoda xuddi boshqalarning adabini berib qo'ymoqqa qasd qilgandek edi.

Qo'lidagi katta cho'tka bilan egovni hadeb silkiyver-gach, gapning rosti, nima qilishni bilmay qoldim. Uni

qo'rquv hissidan xalos qilish o'rniga adashib ketib, sizni o'zim himoya qilaman, boshqalarni esa haydayman, deya chalg'itmoqchi bo'ldim. Befoyda. U hamon tahlikada, boshini ichiga tortib, dam chappa, dam o'ngga olazarak boqardi. Qo'lidan cho'tkani olmoqchi bo'lgandim, uni menga qarab o'qtaldi. Qo'rqib ketib, unga qarab baqirdim:

– Nima balo, jinni bo'ldingizmi! Kimsan hamma taniydigan jamoa kotibi bo'lsangiz, uyat emasmi?! Bunaqa qiliqni sizga kim o'rgatdi?! Har qalay, onangiz o'rgatmagan bo'lsa kerak! Bizlarga – o'z bolalaringizga ham bunaqa bema'nilikni o'rgatmagandingiz, to'g'rimi?!

Unga qarab ustma-ust yog'dirgan „pand-nasihatlarim“ kor qildi shekilli, menga xijolatomuz qarab qo'ydi-da, qo'lidagi cho'tkani yerga qo'ydi va egovni olishimga monelik qilmadi. Eng yomoni ortda qoldi. Ko'ylakni kiygizib, uni televizor oldiga boshladim. U endi jahldan tushgan, ko'rinishdan quvnoq, hazil-huzulga moyil edi. Bu paytda Mariya o'z xonasida yig'lab o'tirardi. U naq bir soat ovora bo'lib gapiga kirgizolmagan, buning ustiga qo'lidagi uzun dastali cho'tkani ko'rib, qo'rqib ketgan bo'lsa ham ehtimol.

Helgaga qo'ng'iroq qildim, u bunaqa mushkul vaziyatlarda nima qilishni yaxshi bilardi. Kelib Mariyaning holidan xabar ol, dedim. O'zim esa oqshomni otam bilan birga o'tkazdim. Uning birinchi marta shunday tajovuzkor bo'lishi edi. Keyin esa go'yo meni tashvishga qo'yganini sezganday, buni unutish uchun bo'lsa kerak, butunlay o'zgarib, quvnoq va samimiy bo'lib qoldi. Bu gal bizni do'zax olovi salgina kuydirib o'tgandi, xolos.

Ammo bundan keyin ahvolimiz ne kechadi, buni hozir bilolmasdim. Bunday xatti-harakatlarga otam endi ko'pam yo'l qo'ymasa kerak, deb o'ylardim. Unga qa-

rab turgan ayollar ham endi ancha hushyor bo'lib qolishgan, hattoki u mening o'zimni ham qo'rqitgan, ko'zimga zo'ravon ruhiy kasal qiyofasida ko'rinib ketgandi.

Menimcha, undagi sub'yektiv sezgi shunday kechgan bo'lsa kerak: Bu xotin o'zi mendan nima istaydi? Dushga tushishimnimi? Yo'q, hiyla-nayrangdan boshqa narsa emas bu! Begona shaxs buyruq qilishiga tek qarab turolmayman. Tag'in nemischi buzib gapirsa, bu ham yetmagandek, menga buyruq berib turtgani-chi. Yo'q, bu shubhali, bu yerda bir gap bor.

U Bratislava yaqinidagi o'sha omborxonani, u yerdagi sovet hamshiralarni nafrat bilan eslardi, chunki parvarish qilish o'rniga nuqul buyruq berisharkan. Ehtimol, shu narsa kutilmaganda esiga tushib, so'ng yuzaga qalb chiqqandir. Bilmadim. Har holda unga qarayotgan izoratchi ayollar Slovakiyadan, yana aynan Bratislavadan Volfurtga kelganliklari g'aroyib tasodif edi.

O'sha oqshom „Hazilni tushunasizmi?“ degan ko'rsatuvni birga tomosha qildik. Otam ham azbaroyi qiziqib qolganidan goho bo'lmag'ur gap deya kulib luqma tashlar, men esa bo'layotgan voqealarni noutbukka yozib o'tirardim. Mariyaga dam olsin, deb javob berdim. Uyni sog'inganmi, ko'p o'tmay ishdan bo'shab ketdi.

Xuddi o'sha ko'rsatuvdamidi, hozir aniq esimda yo'q, katta bir mehmonxonada lift ishlamay qoladi. Lift chirog'i to'satdan o'chib, bir necha soniyadan so'ng yonadi. Qarashsa, bir yosh yigit yo'q, faqat sumkasi turibdi. Ko'pchilik yo'lovchilar bundan dahshatga tushishibdi, bir ayol bo'lsa kulgidan o'zini to'xtatolmay, qotib-qotib kularmish...

Agar otam bilan gallutsinatsiya sodir bo'lgan bo'lsa, uning miyasida ham aniq shunday holat ro'y bergan,

ya'ni „chiroq“ zumga o'chib, vaziyat to'satdan o'zgargan bo'lardi. Aql bovar qilmaydi! Shunday g'alati voqealar doimiy ravishda sodir bo'lib turadigan miya muqarrar tarzda „trevoga“ holatiga tushib qolgan bo'lsa kerak.

Oradan bir necha hafta o'tgach, Emilning turmush o'rtog'i bo'lmish Hedvig xolam bilan suhbatni magnitofonga yozib oldim. Xolavachcham Mariyaning Katarina ismli qizi bor edi. U yuqumli gripp bilan qattiq og'rib, shol bo'lib qoladi, bechora faqat ko'zlarinigina qimir-lata olardi, xolos. Tuzalib ketgach, boshidan o'tkazgan og'ir dard bilan bog'liq dahshatli tushlarini qog'ozga tushiradi. Shu voqea bahona bo'lib, Hedvig xolam bilan otam haqida suhbatlashib qoldik. Xolamning hikoya qilishicha, otam bir kuni Stefan ismli amakivachcham bilan birga sayrga chiqqan, o'zaro suhbat chog'ida hayoti hamisha durust kechganligini aytgan ekan. Shun' eslarkan, Hedvig xolam bunaqa fikrni nihoyatda ka odamdan eshitganini ta'kidladi. Harbiy asirlikdan oz bo'lib uyga qaytgach, Avgust menga ko'rsatgan fotosuratni qachonki ko'z oldimga keltirsam, bu fikr yanada oydinlashadi, dedi u.

O'sha surat otamning hamyoni bilan birga yo'qolib ketganidan afsuslandim. Shunda Hedvig xolam:

– E, shoshma, Arno, bizda o'sha suratning nusxasi bor. Bilmadim, bizga qanday kelib qolgan, ammo nusxasi bor, – deb qoldi.

– Aniqmi? Men suratni tasvirlab berdim.

– Ha, aniq. Istasang qidirib topaman, ertagayoq opketishing mumkin.

Ertasiga suratni opkeldim va nusxa ko'chirdim. Asl nusxa o'zimda qoldi; u qalbimga yaqin ashyolardan biriga aylangan.

Orqasidagi belgidan bildimki, Emil suratdan o'zi va otam ancha yoshga borib qolgan paytda – 1995-yilga kelib nusxa olgan ekan. 1995-yil – ikir-chikir va sir-sinoatlardan iborat butun ko'ngilsizliklar xuddi mana shu davrda boshlangan edi.

– Bilasanmi, men ham qarib, yosh bola bo'lib qoldim. Sen esa hali sakrab yurgan shumtakasan.

– Bo'lsa bordir.

– Ha, ancha qarib qoldim.

– Biroq qarigan chog'da ham ko'p narsa o'rgansa bo'ladi.

– Yo'q, men o'rganadigan deyarli hech narsa qolmadi hisob. Va tez orada – tez orada – tez orada kirib-chiqib yurishni ham bas qilsam, juda xursand bo'lardim. Yaxshisi, ozgina g'imirlab tursam bo'ldi, ortiq hech nima kerakmas.

– Xohlagingizcha hech nima qilmasligingiz mumkin.

Koshkiydi. Agar bilsang, doim bir nimalarni yig'ib-terib yuraman. Ammo yaqinda bas qilmoqchiman.

Tomtarnov quvuridan qulqullab suv oqadi, uning loqayd, soxta maftunkor shovqini tinim bilmaydi. Ota, yomg'ir yog'yapti, dedim. U deraza tomonga qarab, so'z qotdi:

– Eh, yoshlik chog'larim qandoq go'zal zamonlar edi, bilasanmi, yoshligimda tashqaridagi joylar ham go'zal bo'lardi. Hozir esa biram ma'yus, biram g'amgin...

Uning vaqt tuyg'usi hali butkul yo'qolmagan, soatdek „chiqillab“ yurishi joyida emasdi, xolos. Qiziq, u o'z qobiliyat, layoqatlarining susayganini bilar, bu mavzuda o'zi ham tez-tez gap ochar, ammo kundalik narsalarga kelganda ojizlik qilib qolishi taajjublanarli hol edi. U och qolganini yoki chanqaganini ham bilmas, hatto ye-yish-ichishdek oddiy ishni eplashi qiyin bo'lib qolgandi.

Bir kuni oldida turgan likobchadagi nonni nima qilishni bilmay, mendan maslahat so'rab qoldi.

– Nima qilardingiz, tishlab yeysiz, – dedim unga.

Shundan keyin ham nima qilarini bilmay, mahzun javob qaytardi:

– Ha, koshkiydi bilsam. Shunaqa noshud, notavon bo'lib qoldim-da.

Noshud, notavonman degan gaplarni gohida har ikki soatda takrorlar, biroq hech xafa bo'lmasdan, norozi bo'lmasdan, xuddi muhim bir gapni ta'kidlamoqchi bo'lganday samimiy bir tarzda aytardi. „Aytadigan gapi yo'q odamman. Endi hech nima qilib bo'lmaydi“.

Bular xuddi Frans Kafka yoki Tomas Bernhard<sup>1</sup> qahramonlari aytgan gaplarga o'xshab ketardi. Demak, Altshaymer bilan og'rigan bemor va bir yozuvchi o'zaro uchrashib qolibdi-da, o'yladim men. Tomas Bernhardning „Ayoq“ asari qahramoni shunday deydi: „Biroq men butkul yaroqsizman, hech narsaga yaramayman“. Boshqa bir joyda esa: „Menga hamma narsa tushunarsiz“.

– Men bu narsalarning bittasini tushunmayman! – derdi otam har doim, o'ziga daxldor mexanizmlarning ochiq-oydin, ravshan emasligidan nolib. Va albatta qo'shib qo'yardi:

– Endi hech narsa emasman.

Otam ko'pincha o'z holatiga o'zi batafsil baho berar, o'zi haqida naqadar vazminlik va yetuklik bilan ma'lumotlar keltirib, shunaqangi teran fikr-mulohazalar yuritardiki, buni ko'rib og'zim lang ochilib qolardi.

– Men bir bechora odamman, – derdi u. – Ha, ha, shunaqa bo'lgan. Dastavval baquvvat edim. Endi esa qa-

<sup>1</sup>Tomas Bernhard – Avstriyalik adib (1931–1989) (tarj.).

ridim – yosh o‘tishi bilan muayyan ishonchlilik – yo‘q, ishonchlilik emas – ishonchsizlik boshlanarkan, bu so‘z yomon – muammolar olib keladi.

U qo‘llarini dam qovushtirib, dam yoyib, tamom ishorasini bildirdi. So‘ng barcha tortmalarni bir boshidan ochib-yopib ko‘ra boshladi. Nima izlayapsiz? – deb so‘ragandim, aniq bir nima deya olmadi.

– Hech narsa. Yetkazish yoki ishlab chiqish uchun hech nima qolmabdi. Ha, ha. So‘ng qo‘shib qo‘ydi:

– Bir nima ko‘rdimku-ya, ammo bundan xursandman. Biroq buning barchasiga ruhan tayyor emasman-da.

– O‘z ruhiyatingizga qanday baho bergan bo‘lardingiz, dada?

– Kuchsiz. Endi faqat boshqalarning yordami bilan-gina bir nima qilish mumkin. Menga-ku deyarli hech nima bo‘lmagan. Ha, shunaqa, biroq buni o‘zgartirilmayman. Ko‘p ishlarim chappasiga qarab ketdi, ko‘p – lekin ko‘pi yaxshi bo‘lishi ham mumkin edi. Biroq bunga achinmayman. Garchi so‘nggi paytlarda ko‘p narsaga erisholmagan bo‘lsam-da, nolimayman. Dastlab ishlarim ancha durust edi, keyin negadir birdaniga yomonlashib ketdi. Muvaffaqiyatsizliklarga ham uchradim.

– Qanaqa muvaffaqiyatsizlik?

– Ha, qo‘limdagi narsalar buzilib, hech nimaga yaramay qoldi. Buning uchun birovni ayblamayman, o‘zi ishlarim shunchaki yurishmay qoldi-da. O‘zim ham endi yaramay qoldim. Oxirgi – nima desamikin – oylar o‘zi gullab-yashnaydigan davr bo‘lmadi. Mayli, shunisiga ham shukr.

– Gullab-yashnagan davringiz qachon bo‘lgan?

– Hozir aniq esimda yo‘q. Yaxshi kunlarim ko‘p bo‘lgan, bundan xursandman. Biroq, biroq, biroq endi u



davrlar o'tib ketdi. Ha, bir nimalarim joyida emas, o'zim bilaman. Biroq endi buning keragi yo'q.

U birdan eshik oldiga bordi-da: „Janob Gless!“ dedi. Besh soniya o'tar-o'tmas picha xirgoyi qildi, so'ng plita ustidagi idishlarga ko'z yugurtirdi-da, shiyponchaga qarab ketdi. Qaytib kelgach, undan so'radim:

– Xo'sh? Qanday yangiliklar bor?

– Menda yangilik nima qiladi, menda hech qanday yangilik yo'q. Yangilik senda bo'ladi va bundan xursandman. Bilasanmi, sal mazam yo'qroq, quvvat ham yo'q, bir nima qilishgayam ojizman. Shunaqa bo'lib qoldi.

U yana biroz xirgoyi qildi, so'ng:

– Yaqin orada yotib qolsam ham kerak.

– Nima?

– Hech nima. Bilasanmi, muhim ishlarim ham deyarli qolmadi hisob. His-tuyg'u esa bor. Isbotlay olmasam-da, ammo his-tuyg'ularim bor, faqat hech qanday muhim ishlarim qolmadi, xolos. Ha, shunday. Endi qolgan ishlarni boshqalar bajarishi kerak.

– Bu haqda hech qanday tashvish qilmang. Mana men turibman.

U kuldi, so'ng qo'limni ushlab, dedi:

– Rahmat, katta rahmat. Men bir bechora notavon odamman. Men ham bir paytlar xuddi sendaqa edim – ahvolimni ko'rib turib yo'q demading, rahmat senga.

– Dada, hamma ishlar bo'ldi, hamma ishlar bitdi. Endi quyosh botadigan payt ham keldi.

– A, shunaqami? Ishonching komilmi?

– Men buni bilaman.

– Buni aytganing uchun rahmat. Afsuski, o'zimning uncha aqlim yetmay turuvdi.

Shundan so'ng u yonimga o'tirdi, qo'llarini stol ustida qovushtirib, boshini quyi soldi.

Chamasi, uni hamon „bitmay“ qolgan ishlar bezovta qilardi. Bir kuni kechqurun Lyudmila (u keyingi paytda otamga qarab turardi) uni o'rniga yotqizmoqchi bo'layotgani, u esa ko'nmayotgani ustidan chiqdim. Nima gap, desam aytdiki, ishlari bitmay „chala“ qolganmish, yana kimdir uni kutib turganmish. Bugunga bas, endi hamma yotib uxlaydi, dedim. Shunda u tashvishlanib so'radi:

– Odamlar-chi, ularga kim javob beradi?

Uning qo'lini olib, asta qisdim.

– Odamlarga mana men javob beraman, endi uylariga ketishlari mumkin.

Undagi ikkilanish o'rmini tabassum egalladi. Menga ko'z qisib qo'yarkan:

– Sen mening eng yaxshi do'stimsan, – dedi.

\* \* \*

U bilan bo'ladigan kundalik muomalamiz vaqt o'tgan sayin bamisoli uydirmalardan iborat soxta hayotga o'xshab borardi. Bir-birimiz uchun birdan bir arziydigan ma'vo qolgan, u ham bo'lsa otam idrok eta oladigan olam edi. Biz endi uning qarashlariga mos keladigan va uni baxtiyor aylaydigan narsalarni, voqea-hodisalarni ko'proq tilga oladigan, uzuq-yuluq xotiralar, bema'ni xomxayollar va yordamchi tasavvurlarga moslashib, hisoblashadigan bo'ldik, chunki bular uning aql-idroki uchun anglab bo'lmaydigan narsalar hamda gallutsinatsiyalarga qarshi kurashda ishonchli qurol edi. Shu as-noda haqiqatning riyokorligi goho eng yomon holatga aylanishining shohidi bo'ldik. U ishni olg'a siljitmas va hech kimga hech qanday foydasi ham tegmasdi. Demen-

siya bilan og'rigan bemorga, u qayerdaligidan qat'i nazar, azaliy qoidalarga muvofiq ravishda mantiqan to'g'ri javob berish unga o'ziniki bo'lmagan olamni majburlab qabul qildirishga urinish degan gap edi.

Zotan, biz shunday yo'lni tanladikki, u quruq, zeriqlik voqelikdan olib ketib, aylanma yo'llar orqali haqiqatga eltardi. Agar otam uyga ketmoqchi bo'lsa, unga, qani ko'raylik-chi, siz uchun biron nima qila olarmikinman yoki sizga albatta yordam beraman, derdim. Bordi-yu onasi haqida so'rab qolsa, go'yo u haliyam yashab yurganday muomala qilib, uni onasi barcha voqealardan xabardor ekaniga ishontirardim, shunda uning ko'zlari quvonchdan porlab, boshini sarak-sarak qilardi. Yuz-ko'zlaridagi shodlik va bosh irg'ash haqiqatga qaytish edi.

Biroq obyektiv haqiqat ko'pincha zavol topardi, men bunga achinmasdim, chunki u bir pulga qimmat edi. Ayni chog'da gaplarim basharti yolg'on-yashiq, uydirmalardan iborat bo'lgan taqdirda ham hech kuyinmas, aksincha, quvonib ketardim, negaki biz uchun birgina mezon mavjud edi: otam o'zini qancha xotirjam his qilsa shuncha yaxshi edi.

U bilan bo'ladigan kundalik muomalada ko'p narsa texnika masalasiga borib taqalardi. Bizlarga qo'yilgan talablar favqulodda murakkab edi. Miya zaiflashishi otam uchun qanchalik qayg'uli bo'lsa, uning yaqinlari uchun mana shu barcha telba-teskariliklar oldida aqlni charxlash shunchalik muhim edi. Otam bilan bo'ladigan suhbatlar uning ruhan tozarishi uchun bamisoli badantarbiya vazifasini o'tardi. Ular keng qamrovli ziyraklik, sezgirlik va fantaziyani talab qilardi, chunki birgina bama'ni so'z yoki to'g'ri imo-ishora bilan notinchlikka

ma'lum muddat barham berish mumkin edi. Feliks Hartlaub<sup>1</sup> boshqa bir munosabat bilan shunday degandi: „Aslida, bunga faqat davlat dorbozigina chiday olishi mumkin“.

Otam bilan bo'ladigan kundalik muomala borasidagi o'z tajribalari bilan o'rtoqlasharkan, Daniyela uni o'ringa yotqizish yoki o'midan turg'azishda savollar berish foydadan xoli emasligini uqtiradi. Masalan:

– Charchadingizmi?

– Ha.

– Joyingizga yotishni xohlaysizmi?

– Ha.

Savol shunday bo'lishi kerakki, toki bizning istagimiz uning o'ziga ham ma'qul bo'lsin va uning o'z og'zidan chiqsin. Shu tariqa uning betartib olamini birozgina bo'lsa-da tartibga keltirish mumkin bo'ladi. Buyruqlar esa aksincha, yaxshi natija bermaydi. Agar unga:

– Avgust, endi borib yotishingiz kerak, – deyilsa, u:

– Nega? – deb so'raydi.

Bir kuni Daniyela dazmol qilish bilan band ekan, otam fe'li aynib, uyga ketaman, deb turib olibdi. Shunda Daniyela o'zini qo'rqib ketgan qilib ko'rsatib unga debdi:

– Avgust, bu yerda bir o'zim yolg'iz qololmayman! Sizens nima qilaman? Agar ketsangiz, unda men ham ketaman. Faqat shoshmay turing, avval dazmolimni tugatvolay.

U mayli deya rozi bo'lgan, Daniyela esa unga rahmat aytgan.

Aytishicha, Daniyela unga har doim, hatto o'zi iltifot ko'rsatgan paytlarda ham minnatdorlik bildirarkan. U bundan rag'batlanib, mamnun bo'larkan, bu esa o'z

---

<sup>1</sup>Feliks Hartlaub – Nemis yozuvchisi (1913–1945) (*tarj.*).

navbatida muayyan tobelikni yuzaga keltiradi. Shuning uchunmi, butun kun bo'yi Daniyelani qidirib, uning ortidan chopib yurarkan. Unga xavfsizlik, xotirjamlik kerak bo'lgan, shundagina u o'zini yaxshi his qilgan. Xarob bo'lmaslik uchun ishonchli qo'lga muhtoj ekanini sezgan, buni o'zi ham juda yaxshi bilgan. Bir kuni u Daniyelaga shunday debdi:

– Men o'zim qurgan mana shu uyda yashayman. Hozir oilamdan bu yerda hech kim yo'q. Menga qarab turadigan ayollar bilan yolg'iz o'zim qolganman.

Kunlarning birida u mendan:

– Uyda bizdan boshqa yana kim bor? – deb so'rab qoldi. Men unga:

– Hozir yolg'iz o'zimiz, boshqa hech kim yo'q, – deb javob bergandim, tashvishga tushib qoldi:

– Bu yomon, menga qarab turadigan odam kerak, yo'qsa dovdirab qolaman.

Undan bunday sog'lom fikr chiqadi deb o'ylamaganimdanmi, gaplari meni larzaga soldi. Darrov ko'nglini ko'tardim:

– Sira g'am yemang, mana men borman.

Uning chiroyi ochilib, dedi:

– Bunga vaqt topa olganingdan xursandman.

Boshqa bir kuni:

– Men uchun hali hech kim bir nima qilgani yo'q. Ehtimol sen...

– Ha, ba'zan, – deyishimni bilaman, birdan jahli chiqib ketdi:

– Sen ham men uchun hali biron-bir ish qilganing yo'q!

Nazoratchi ayollar orasida birgina Daniyela u bilan yaxshi chiqishardi.

Ikkovi bir-biriga shunaqangi mos tushardiki, ko'rgan odam hayratdan yoqa ushlardi. Bir kuni Daniyela unga erining fotosuratlarini ko'rsatib turgani ustiga kelib qoldim. Otam uni taniyman, dedi. Qanaqasiga, axir u Slovakiyada yashaydi-ku, ajablandi Daniyela. Shunda u tomdan tarasha tushgandek:

– Gaplaringga ishongim kelmaydi, lekin sen menga yoqasan.

– Erim Forarlbergda hech qachon bo'lmagan, buning ustiga bironta ham nemischa so'z bilmaydi. Bironta ham! – ta'kidladi ayol.

Otam esa:

– Sen menga yoqadigan ayolsan. Boshqa aytadigan gapim yo'q.

Daniyelaning aytishicha, otamga qarash unga malol kelmas ekan. Buning uchun, avvalo, sabr-qanoat kerak, dedi u. Agar u o'rnidan turishni xohlamaydimi, mayli, birpas kutib turadi. Soqol olmoqchi emasmi, hechqisi yo'q, yarim soat o'tgach yo'q degani ham esidan chiqib ketadi. Xullas, kutish uchun uning ixtiyorida yigirma to'rt soat vaqt bor edi.

Boshqa ba'zi bir ayollar esa otam bilan yaxshi chiqisha olmasdilar. U agar biron-bir ishni qilishdan bosh tortsa, darrov asabiylashishardi. Asabiyligni sal sezdimi, unga qancha g'amxo'rlik qilishmasin, inobatga olmas, qadriga ham yetmasdi. Shunaqangi yoqimsiz holatlar ko'paygan sayin ikki o'rtada o'zaro noqulayliklar, noroziliklar kuchayib borgan. Garchi biz oiladagilar bunaqa vaziyatlarga aralashib, uni xiyla qo'llab-quvvatlab turganimizga qaramay, ba'zida shunday kunlar ham bo'lardiki, kechga borib hamma jinnixonaga „tayyor“ bo'lib qolardi. O'zim ham goho gadoytopmas bir yoqlarga

qochib ketishni xayol qilardim. Hatto bir safar kiyim javoni yonidan o'tayotib, holdan toyganimdan o'tirib qolayozganman. Kechalari uyqusizlikdan ko'zlarim yumilib, ertangi kun qanday bo'lishi haqida o'ylarkanman, lotincha ibora yodimga tushardi: nox est perpetua, ya'ni tunning adog'i yo'q.

Goho odamda qandaydir ishonch ham paydo bo'lar, biroq zo'r samaralar o'rtasidagi tanaffuslar qisqarib, qarshilik ko'rsatishdan hech qanday naf bo'lmasdi. Kutilmagan, nogahoniy voqea-hodisalar sharoitida keskinlikka qisman esa-da chidab bo'lmas, bunday haryoqlama iztirobnini ko'rib turishning o'zi qo'rqinchli edi. Otamiz bilan unga qaraydigan nazoratchi ayollarning ayrimlari o'rtasidagi chigal munosabatlar kasallikni battar kuchaytirardi. Ularning sabr kosasi tez to'ldi, bu esa otam kayfiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Boshqacha qilib aytganda, quyi spiral „ishga tushib ketdi.“ Xullas, uning ko'nglini olishning ortiq iloji bo'lmay qoldi.

„Meni bu yerda qanchalik azoblashayotganini bilsang edi“, derdi u menga. Lekin bunday ohang bilan kunning qolgan qismi o'zgarib qolmasdi. U chiday oladigan birgina narsa, bu – musiqa edi. Tushlikda beriladigan taom sifatidan ham ko'ngli to'lmasdi.

– Bunaqa ovqatni yeya olmayman, – derdi u.

Kunlardan bir kun tamaddidan so'ng shiyponchaga boribdi-da, Vernerning kattakon kaktusi o'sib turgan tувak ichiga siya boshlabdi. Bir nima chuldirayotganini eshitib, chopib chiqsam, shunaqa gap. Bunaqa qilish mumkin emas, uyat bo'ladi, desam:

– Menga mumkin, – dedi. – Bu meni qiynaganliklari uchun jazo. Aslida, ular bundan ham ko'ra og'irroq jazoga mustahiq edilar.

Eng yomoni, keyingi paytda u tunda uyg'onib ketib, bolalarini qidiradigan bo'lib qolgandi. Bu narsa esan-kiratadigan va tushunib bo'lmaydigan darajada muntazamlilik kasb etgani dard ustiga chipqon bo'ldi. U bunday vaziyatlarda chuqur tushkunlikka berilib, ayanchli bir qiyofaga tushib qolardi. Go'yo urushda bombalar yog'ilgan uylar orasida tentirab, hayot nishonasini qidirib yurgandek bo'lardi. Ba'zida unga bolalar tongga yaqin kelib qoladi deyishsa, u biroz tinchlanardi. Gohida esa yarim kechada qidira-qidira charchab, madori qurib, uxlab qolardi. Kunduzi „qidiruv“ yana davom etardi. ...To'rt nafar bolam joyida yo'q, karavot ostiga ham yashirinmagan, vannaxonada ham emas, kiyim javonlari ortidan qiqir-qiqiri ham eshitilmaydi, ular qayerlarda qolishganiykin?.. Otam bolalarini „topolmay“, o'zini nihoyatda baxtsiz his qilardi.

– Ularni olib ketishgan, ha, shundan beri daragi yo'q. Ularni uzoq izladim, qidiruvda yordam berisharmikin deb, ko'p joylar bilan bog'landim. Endi esa bolalarimni bir kun ko'rarman, degan umidim ham puchga chiqib turibdi...

Shunda men unga, ular xavfsiz joyda, mana qarab tur, hali hammasi qaytib keladi, uylanishadi, farzandlari ham bo'ladi, dedim. U esa:

– Gaplaring rost bo'lishi mumkin. Lekin negadir ishongim kelmayapti.

U bir nima esiga tushganday qoshlarini chimirib, ko'rsatkich barmog'i bilan kiyim javoniga ishora qiladi, bolalarimni ana shu tomonga olib ketishgan, deya taxmin yuritadi.

– Ular qayerlarda yurishganiykin-a? Ular yo'q – ular ketgan – ular yo'q – ular ketgan...



Vlasta bilan muomalasi chiqishib turuvdi, kutilmaganda uning onasi kasal bo'lib qoldi. Onasi telefonda, men bu yerda kasal bo'lib yotsam-u, sen Avstriyada begona odamlarga qarab yursang, yaxshimas, debdi.

Anna juda aqlli ayol edi. U butun kuch-g'ayratini ishga soldi, biroq nimagadir otam bilan til topisha olmadi. Go'yo o'rtaga sehr-jodu aralashgandek edi. Birga sayr qilib yurgan chog'larida uchragan odamlar otamdan bu kim deb so'rashsa, kim bo'lardi, doim asabimga tegadigan tovuqmiya xotin, derkan. Eng yomoni, bir kuni u Annaga bo'yningni uzaman, degandek imoishora qilibdi. Bechora ayol, g'aladondan pichoqni olib tashlanib qolmasin tag'in, deb qo'rqib ketibdi. Buni eshitib sarosimaga tushdim, biroq unga bildirmadim, yuragingga yaqin olma, deya dalda berdim. U bir kasal odam, ehtiyot bo'lgan yaxshi, dedim unga, basharti Xudo ko'rsatmasin, jini qo'zib qolgudek bo'lsa, qo'rqma, u unchalik kuchli emas, buning ustiga tez yugura olmaydi ham.

Qanday tinchlantiruvchi gaplar-a!

Aslida, bunchalik asabiylashishining sababi nima edi: nazoratchi ayol bilan chiqisha olmay, uyda halovat topolmagach, Daniyela bilan oyim mas'uliyatni zimmalariga olishgan. Ikki yoki uch kundan so'ng otam qo'ydek yuvosh tortib, vazmin, muloyim, xushfe'l, bir so'z bilan aytganda, turgan-bitgani samimiyat bo'lib qolgan. Undan yana g'alati, g'aroyib gaplarni eshita boshlaganmiz.

– Xo'sh, endi mamnunmisiz, Avgust?

– Men hamisha mamnunman. Hatto go'daklik paytimda ham mamnun bo'lganman.

– Bilmadim, bu yog'i qanday bo'larkin.

- G'am yemang, hammasi yaxshi bo'ladi.
- Meni unutmang. Adolatsizlik bo'lmas.
- Bunga yo'l qo'ymaymiz.
- Menga qara, bu aytishgagina oson!
- Xuddi shunday, biz sizni hech qachon unutmamiz.

Altsheymer kasali, mana o'n yildan oshdiki, otamni hamon qiynab keladi. Nevrolog tomonidan olingan miya suratlari tasvirida kasallanishning butun darajasi o'z aksini topgan edi. Shunga qaramasdan otam deyarli har kuni qisqa fursatga bo'lsa-da o'z dardidan „tashqariga“ chiqib, u yoki bu tarzda so'rardi:

– Boshimga nima bo'lgan o'zi? – peshonasiga barmog'i bilan urib-urib qo'yardi u. – Bu yerda bir nima joyidamasga o'xshaydi. Qani menga ayt-chi, buni qanday qilib tuzatsak bo'ladi?

U menga madad so'raganday qaraydi. So'ng:

– Yordam Bregensdan keladi, – degan mavhum javobimni eshitib, hafsalasi pir bo'ladi.

Frans Kafka aynan otam tug'ilgan kuni, faqat taval-ludidan rappa-raso o'n yil oldin, ya'ni 1916-yil 6-iyulda o'z kundaligiga xuddi shunday deb yozib qo'ygan ekan. Garchi otam o'z bog'idan turib Bregensni yaqqol ko'ra olsa ham, o'zini xuddi Kafka qahramonidek his qilishiga to'g'ri keldi. Kafka shunday davom etadi: „Bemor zo'riqib ko'zlarini qisdi, shifokor qo'shib qo'ydi: Bregens Forarlbergda. – Bu uzoq, – dedi bemor“.

Yordam berish mushkulligi jihatidan olganda, Bregens otam uchun ham olis edi. Aqli, es-hushi joyida bo'lgan paytlarda u sog'lom miyani qo'msab to'lg'anardi – biroq bu bilan ahvol o'zgarib qolmasdi. Hat-toki o'z boshiga musht tushirganda ham. Xuddi bola-

lik davrimda ekrani lipillayvergach, dadam televizorni mushtlagani kabi, hech qanday ta'siri bilinmasdi.

2009-yil bahorning sovuq kunlaridan birida Daniyela dadamni sayrga olib chiqmoqchi bo'ldi. Egnida kurtka, oyog'ida ko'chaga kiyiladigan poyabzal – shay turardi. Daniyela unga shlapani kiygizarkan, dedi:

– Mana bu sizning shlapangiz.

– Bu yaxshi, ma'qul. Lekin miyam-chi, u qayoqda qoldi?

– Miyangiz shlapangiz ostida, – dedim men oshxonadan turib.

Otam shlapani qo'liga olib ichiga qaradi:

– Iye, bu mo'jiza-ku, – dedi va hardamxayollik bilan o'ylanib qoldi, so'ng shlapani yana kiydi-da, iymanibgina so'radi:

– Haqiqatan ham shlapa ostidami?..

– Ha, xuddi o'sha yerda, o'z joyida, – dedim men.

U hayratdan qoshlarini chimirib, Daniyela ortida garangsib eshik tomon yurdi.

Bunaqa syurreal lahzalar ko'paygandan ko'payib borardi. Bu haqda hikoya qiladigan bo'lsam, ular biroz kulgili va g'alati eshitiladi. Lekin diqqat bilan tinglansa, komizm bilan birga xavotir hamda tushkunlikni ham payqash mumkin bo'ladi. – Ko'pincha komizm ortiqchadek tuyuladi.

Nima yaxshi-yu nima yomon, uncha tushunavermaganidanmi, otamga ko'p narsa malol kelardi. Masalan, dori-darmonlarning bemazaligidan ham achchig'i chiqardi. Bilmasdiki, dori-darmonsiz ahvoli battar yomonlashardi.

– Menga bunaqa narsalarni ro'para qilaverma! – baqirardi u menga.

– Sizning foydangizni ko‘zlayapmiz, xolos.

– Hammang shunday deysan! – qo‘pollik bilan gap qaytarardi u. – Faqat o‘ylama, senday favqulodda shaxsga yopishib olmoqchimasman. Bilaman, iflos o‘yinlaringni.

Albatta, uning o‘rnida xastalik „tilga kirayotgani“ menga ayon edi. Ammo shunday bo‘lsa ham, bekordan bekorga gap eshitsang, odamga alam qilarkan. – Ayniqsa, otamni uncha yaxshi bilmaydigan, uning oldida bir nima qilishga unchalik majbur bo‘lmagan, qolaversa bu xastalikdan bexabar bo‘lgan kishilarga nisbatan bunday muomala nihoyatda og‘ir botishi mumkin edi.

– Yo‘qol ko‘zimdan! Agar meni o‘z holimga qo‘ymasang, miltiq opkelib otaman, ketingdan ajrab qolasan!

Bu gapni u menga aytdi. Bolaligimda boshqalar-  
ga akam bilan birga do‘q urganimiz esimga tushib, ulib qo‘ya qoldim. Lekin nazoratchi ayollardan biri bo‘lmasa boshqasi bunday so‘zlar zamiridagi oddiy, jo‘n xabarni – otam begona odamlar olamidan ko‘ra yolg‘iz qolishni ma‘qul ko‘rayotganini anglay olishi amrimahol edi.

Daniyela qariyb uch yildan beri bizlarnikida edi. U bu yer o‘ziga yoqib qolgani, boshqa bunaqa joyni topolmasligini ont ichib aytardi. Otam uning uchun kasal, ayni chog‘da ziyoli va hazilkash odam ham edi. Miyasi goh-goh „nayrang“ qilib tursa-da, baribir uning haqiqatan beozor, birovga ziyoni tegmaydigan bechora bir inson ekanini yaxshi bilardi.

Daniyela har uch haftada almashinib ishlar, shunda Slovakiyaga – uyiga birrov borib kelardi. Baxtga qarshi, o‘tgan ikki yil ichida uning hamkasabalaridan hech qaysi biri otam bilan unga o‘xshab yaxshi munosabat o‘rnata olmadi. Ular qisqa muddat ishlab ketishdi, al-

batta, ularni ham tushunsa bo'lardi, chunki otam ko'p hollarda ertalabdan to kechgacha bir nimani bajarishdan bosh tortib, injiqlik qilishdan zerikmasdi. O'ziga begona bo'lgan, uni sarosimaga soladigan odamlarni qaytarib yuborishga moyil edi. Unga qaraydigan ayollarning ko'pchiligi u bilan xuddi yosh boladek bepisand ohangda muomala qilar, buning ustiga nihoyatda ko'p gapirardi. Otam kallasi katta, chehrasi jonli, ko'zlari ma'noli boqar, shuning uchun boshqalarda yaxshi taassurot uyg'otar, shu bois bo'lsa kerak nazoratchi ayollar ham undan cho'chib turishardi. Basharti yuragi siqilib turgan bo'lsa, ularni oldiga solib quvishdan ham toymasdi. Bunaqa paytlarda otam o'zi ajoyib odam, degan quruq gapdan foyda yo'qligi, mabodo kayfiyati yomon bo'lsa, ko'ziga ko'rinmay turinglar, deya maslahat berishdan ham hech bir natija chiqmasligi aniq.

Bu aytishga oson edi. Nazoratchi ayollar ma'lumot mutaxassislar emasdi, buning ustiga demensiya bila muomala qilish uchun zarur bo'lgan tug'ma, tabiiy qobiliyatlar har kimda ham uchrayvermaydi. Otamning eng kenja nabirasi Yeva bunga yorqin misol bo'la oladi. U Altshaymer bilan og'rigan buvasiga shunday muomala qilardiki, natijada, bemor sog'lom odamday fikr-mulohaza yurita boshlardi.

Daniyela to'g'risida ham xuddi shunday xulosa qilish mumkin. U kasal bilan avvalboshdanoq yaxshi chiqishgan, u bilan butunlay erkin muomalada bo'lgan. Hatto menga dadam uni yaxshi ko'rib qolgandek tuyulardi, shuning uchun Daniyela uning oldida bo'lgan paytlarda biroz xavotirlanib turardim. Daniyela shunga erisha olgandiki, dadam o'zini kerakli odam deb his qilardi. Daniyela unga xarid qilingan narsalar solingan savatni

ko'tarib yurish uchun berib qo'yar, velosipedini orqadan itarib yurishiga monelik qilmas, u esa garchi to'rt nafar bolasining hattoki ismini aytolmasa ham, Daniyelaga nemischani o'rgatar, unga talaffuz va grammatikadan soatlab „saboq“ berardi. Buncha unga qayishmasang? – deb so'rashsa, u mening yonimda bo'lsa bo'ldi, deb javob qaytarardi.

2009-yilning mart oyida otamning qariyalar uyiga ko'chib o'tishiga to'g'ri kelib qoldi. Buni eshitgan Nitra (Slovakiya)lik oq-sariq sochli kap-katta ayol ho'ngrab yig'lab yubordi. Anna esa qo'lini yuvib qo'ltiqqa artgan, uning qaytib kelishi har qanday ehtimoldan yiroq edi. Otam bilan muomalasi chiqishmaganidan hafsalasi pir bo'lib, endi qatiqni ham puflab ichadigan bo'lib qolgandi.

O'z oila a'zosini qariyalar uyiga berishga qaror qilish urf-odat, an'analarga ko'ra noinsoffik sanalardi. Bunday qaror o'z-o'zidan ikki o'rtaga ishonchsizlik urug'ini sepishi tabiiy. Ayni chog'da esa an'analar bilan hisoblashmaslikning ham iloji yo'q. Qishloqdagi qariyalar uyida malakali xodimlar ishlar, sharoitlar yaxshi edi. Har qanday muammolar o'zaro muhokama qilinib, ijobiy hal etilardi. Otamni u yerda kasal bo'lgan paytidan beri yoki xastalik boshlangandan buyon emas, balki sakson yildan beri ismi-sharifi Avgust Gayger bo'lgan, bolalik va yoshlik davrlaridan iborat uzoq umr ko'rgan butun bir shaxs sifatida yaxshi bilishardi.

Oilamiz a'zolari har qancha harakat qilishmasin, uyda u yerdagidek parvarishni tashkil etishning uddasidan chiqisholmadi. Mag'lubiyatni tan olishni ham yutuq deb atasa bo'larkan. Oilaning boshqa a'zolari aravani birday tortolmay, yarim yo'lda qolib ketgach nima

ham bo'lardi. Har kimning o'z muammosi bo'lsa, bemor otaning ahvolini tomosha qilib turishdan o'zga chora yo'q edi. Kecha-yu kunduz otam haqida o'ylanaverib adoyi-tamom bo'ldik. Doim shu savol: endi nima bo'ladi? Pichoq suyakka borib qadalgan, bu ham yetmagandek, otam uyda o'zini uydagidek his qilmay qo'ygan edi.

Uning uydagi oxirgi kuni oldingi kunlardagi singari boshlandi. Yangi dori-darmonga o'tkazilgandan beri undagi domangirlikdan asar ham qolmagan. U dushga tushib-chiqdi, artindi va o'tirib, shoshilmay nonushta qildi. Havo iliq, quyosh charaqlab turardi. Anna ketib qolgach oyim kelgan, u hozir otamni yo'lga hozirlash bilan band – uning ko'ylaklariga, hatto dastro'molchasiga ham ismi-sharifi bitilgan yorliqchani tikayotgandi. Otam uy oldida qo'shnilar bilan „ha-pa“ deyi-shib turardi.

Tushlikka Kaesknoepfle<sup>1</sup> tamaddi qilgach, xonasiga kirib, biroz mizg'ib oldi. Soat uchga tomon o'rnidan turib choy ichdi va safar jomadonini mashinaga olib borishga ko'maklashdi. So'ng oyim uni mashinasida qariyalar uyiga olib ketdi.

Kiraverishda, eshik oldida o'tirgan sobiq jamoa maslahatchisi uni ko'rib o'rnidan turadi va eshikni ochadi. Otam esa uni tanimay, shunchaki salomlashadi. Ichkari-da, kushetka ustida kichkinagina ayol o'tirgan ekan, otam unga „barakalla!“ deb qo'lini ko'taribdi. Ayolning oldiga borib, qo'ldan ushlabdi-da, ikkovi onam ketidan dam olish xonasiga kirib boribdi. U yerda ularni qariyalar uyi rahbari kutib olibdi, otamga o'z xonasini hamda u yerdagi

<sup>1</sup> *Kaesknopfle* – Forarlbergda pishloq ishlab chiqarish o'z tarixiga ega. U yerda pishloq an'anaviy milliy taom sifatida ham suyib tanovul qilinadi. Pishloqning har xil turlari eritilib, qo'shib tayyorlanadigan taom „Kaesknopfle“ deb ataladi (*tarj.*).

buvisi bilan bobosining osig'liq suratlarini ko'rsatibdi. Bu odamlarni qayerdadir ko'rgandayman, ammo tanimayman, debdi u. Rahbar ayol unga o'z odatlari yuzasidan va dori-darmonlar xususida bir necha savollar beribdi. So'ngra otam bilan birga bog'ga chiqishibdi. Otam daraxtlar soyasida boshqa qariyalar bilan gaplashib o'tiribdi, aftidan, o'zini yaxshi his qilayotgan ekan. Birozdan so'ng oyim u bilan xayrlashibdi. Otam unga qo'l silkib qolibdi.

\* \* \*

Oradan bir necha kun o'tgach, uni ko'rgani bordim. Xonasiga kirganimda, o'zi yolg'iz xirgoyi qilib o'tirardi. Picha kutib turdim, so'ng yoniga o'tirdim. Avval u yoq-bu yoqdan gaplashdik, keyin qo'l qisishib „kim kuchli“ o'ynadik. U zo'r berib, bor kuchi bilan tirishar, so'lg'in chehrasida baxtiyorlik nuqsi aks etib, quvonchlan iljayar, biroq salomatligi quvonchiga soya tashlab urardi. Iloj qancha.

Unga dedim:

– Voy-bo', chakkimassiz-ku.

U yana iljayarkan, dedi:

– Kerak bo'lsa uncha-munchasini qorga piypalab qo'yardim, biroq endi u kuchlar yo'q. Ammo maydakash, mijg'ov emasman, shuni senga bir ko'rsatib qo'yay dedim-da, bo'lmasa chiranishni menga kim qo'yibdi.

Sal o'tmay so'zida davom etdi:

– Baribir o'zimizni o'zimiz himoya qilishdan boshqa choramiz yo'q. Aks holda bechora bo'lib qolamiz.

Otam uchun Altshaymer, albatta, yutuq emasdi, lekin bolalari va nevaralari uchun ma'lum darajada saboq bo'lgani aniq. Ota-onaning vazifasi ham bolalarga biron nima o'rgatish-ku axir.



Qarilik umrning so'nggi bosqichi sifatida doim o'zgarib turadigan va har doim o'rganib, tadqiq etib turilishi lozim bo'lgan madaniy shakl-shamoyildir. Demak, ota o'z bolalariga hech nima o'rgatolmagan taqdirda, qarilik va kasallikdan boshqa nimayam qolardi. Loaqal shu ham yaxshi shart-sharoitlar ostida kechgan otalik va bolalikni anglatardi, chunki odamzod faqat hayot bo'lsagina o'limdan o'ch olmog'i mumkin bo'ladi.

Aleksandranning hikoya qilishicha, bobosi meni qiynashyapti deb yozg'irgach, onasi ko'rgani shifoxonaga borib, uni bu fikridan qaytarishga urinibdi. Bir mahal hamshira kelib, kislorod beriladigan ichakni almashtirmoqchi bo'libdi.

— Janob Berlinger, hozir burningizga manavi ichakni tiqaman, biroz qitig'ingiz kelishi mumkin, — debdi.

Shunda bobo keliniga qarabdi, boshini sarak-sarak qilib:

— Ana bo'lmasa — endi meni qitiqlash qoluvdi! — dermish.

Marianna xolaning buvisi ham demensiya bo'lib, doim shunday derkan:

— Boshim xuddi kuvining o'zi, kavlagani kavlagan, ammo yog' chiqqanini sira bilmadim.

Marianna xola yetti bolaning eng kattasi ekan. Buvisi kechalari alahsirab, g'alati gaplarni javrab qolguniga qadar u bilan birga yotarkan. Buvisi bora-bora diniy vasvasaga yo'liqibdi. Bir kuni uni ko'rgani pastor<sup>1</sup> kelibdi, eshikdan kirishi bilan kampir unga qarab qichqiribdi:

— Buzuqi pastor uyimga kirmasin! Yo'qol, iblis!

Katarinaning bobosi ham aqlizaiplik kasaliga duchor bo'lgan edi. Katta o'g'li bir kuni velosipedda xabar ol-

<sup>1</sup> Pastor — Protestantlik mazhabidagi ruhoniylar (tarj.).

gani kelgan ekan, qariya sezdirmay velosipedga yaqinlashibdi-da, uni shartta minib qochib qolibdi.

Liliana Altshaymerga yo'liqqan onasi haqida hikoya qiladi.

Onasi unga qarab damba-dam so'rarkan:

– Nima, men o'lib qoldimmi?

Bir kuni onasi Lilianaga shunday debdi:

– Agar o'lib-po'lib qolsam, menga aytib qo'yish esingdan chiqmasin, xo'pmi?

Liliana ham onasini chippa-chin ishontiribdi:

– Xo'p, oyi, agar o'lib qolsangiz, albatta aytib qo'yaman.

Volfgangning buvisi qarib, munkillab qolganidan quvvatlantiruvchi dori – Buerlecithin ichib yurardi. Sovitkichda Buerlecithin yonida bir shisha Doornkaat<sup>1</sup> ham turguchi edi. Sovitkich oldiga borib-kelaverganidan o'rganib qolgan emasmi, bir kuni kampir bilibmi-bilmaymi, Doornkaat shishasini ochib, undan yaxshigina bir qultum ichibdi, so'ng:

– Bugun ta'mi qandaydir g'alati, – debdi-da, gapi-ning tasdig'i uchun yana bir qultum uribdi.

Norbertning bir do'sti bo'lib, uning onasi ham Altshaymerdan azob chekar, o'z o'g'lini ham anchadan buyon tanimay qolgan ekan. Lekin onasiga suratini ko'rsatsa: „Bu mening o'g'lim!“ der, yangi tushgan fotosuratini ko'rsatsa ham: „Bu mening o'g'lim!“ derkan-u, ammo oldida turgan o'z o'g'lini tanimas ekan.

Vilhelmning aytishicha, do'stining ham ancha yillardan buyon es-hushi joyida emas. Kechalari uyqusirab, sahar soat uchda yozuv stoli tomon emaklab borarkan-da, so'ng hech narsani bilmay qolarkan. Kunduzlari

<sup>1</sup> Doornkaat – Spirtli ichimlik turi (tarj.).

esa pasyans – fol qartalarini yumaloqlab, sigara o‘rvida chekmoqchi bo‘lib o‘tirarkan.

Ursula otamning onasiga tengqur bo‘lgan katta amakisi Avgust Fisher haqida hikoya qiladi. Uni umrining oxirgi yillarida Ursula goh-goh qariyalar uyidan yakshanba kunlari Oberfeldga olib kelgan ekan.

Bir kuni u yo‘lga chiqish oldidan so‘rabdi:

– Yana lagerga qaytishim kerakmi?

Ana shu kishi men yosh bola paytimda nihoyatda ko‘rkam yigit edi.

Oberfeldgassening shundoq old tarafida, cherkov tomonda bir vaqtlar eski quduq bo‘lardi. Quduq yonida eskirib, chirib ketgan yog‘och oxur bo‘lib, unga buloq suvi tinmay oqib yotardi. Uylanmay bo‘ydoq o‘tgan katta amaki qishda ham, yozda ham har tong ana shu oxurga yotib cho‘milar, bunday muolaja sog‘liq uchun foydali ekaniga astoydil ishonardi. Haqiqatan ham u buvir o‘tib ketgandan keyin ham yashab, 1898-yilda tug‘ilgan volfurtlik tengdoshlari orasida eng uzoq umr ko‘rdi. Biz bolalar bog‘chaga yoki maktabga borayotib, uning Ipaxvald o‘rmonidan oqib keladigan muzdek chashma suvida qishin-yozin maza qilib cho‘milayotganini ko‘rib qoyil qolardik.

Kristianning bir kampir qo‘shnisi bor edi. Uning hovli chirog‘ini yoqish uchun elektr tokini ulaydigan asbobni topolmay qiynalgan paytlarda tashqariga chiqib, hassasi bilan chiroqni urib-urib qo‘yadigan odati bor ekan.

Xastalik otamdan panjalarini yana tortib oldi. Unda avvalgi oylardagi kabi tanglik, keskinlik yoki iskanjaga tushish alomatlarini sezilmas, kun sayin o‘zini yaxshi his qilayotgani ko‘rinib turardi. U qandaydir hazil-huzulga

moyil, kimlarnidir laqillatadigan, suhbatdoshi bilan ochilib gurunglashadigan, diqqat-e'tiborli, mehribon va samimiy bo'lib qolgandi.

Uning ruhiy kechinmalari tez va birdaniga paydo bo'lar, dori-darmonni ko'p ichganidan miyasi voqelikni g'ira-shira anglaydigan odamga ham o'xshamas edi. Vaziyatga ijobiy yondashar, hazil-huzul qilar, kerak bo'lsa yaxshigina maslahatlar ham berardi.

Vernerga:

– Mendan faqat o'rganishing mumkin, – degan ekan.

Sezgi, idrok etishning buzilishlari, gallutsinatsiyalar onda-sonda bo'lsa-da hamon sodir bo'lib turardi.

– Kichkina odamchalarni sen ham ko'rdingmi? – so'raydi u Katarinadan.

– Ha, ular hozirgina muyulishga qarab burilib ketishdi.

Bordi-yu gallutsinatsiyalar kuchliroq bo'lsa, Yevani olib kelishardi. U bobosi oldiga chopib borib achomlashishi bilan hamma yoq yana iziga tushardi-qolardi. Bunga barchamiz hayron bo'lib, kulib qo'yardik, xolos.

Otam keyingi paytda layoqatsizligidan nolib, o'zini Dode – ahmoq deb atar, biroq ora-sira:

– Hech nima qo'lidan kelmaydigan qip-qizil tentak emasman lekin, – deb ham qo'yardi.

Kamchilik, o'jizliklari sekin-asta bilingan sayin, o'tgan kunlar tez-tez yodiga tushar, o'tmishda „eslashga arziydigan quvonchli“ damlarni ham boshidan kechirganidan o'zicha faxrlanardi.

– Ilgarilari, biron-bir ezgu ish qilsam, o'zim ham xursand bo'lib ketardim. Aslida, bunaqa ishlarni qilishga ishqiboz emasdim, ammo buning muhim ekanligini

bilardim va bu narsalarni hech kim menchalik yaxshi tushunmasdi. Qayerda bo'lmasin, ishni tez-tez, ildam-jildam bitirardim. Hamisha yaxshi chiqavermasa ham, har holda yoqimli ish bo'lardi. Sen bilan men har doim yaxshi chiqishganmiz.

– Ha, men siz bilan juda yaxshi chiqishganman.

– Kulasan-da. Lekin haqiqatan ham sen bilan biz yaxshi chiqishganmiz. Agar birimiz bo'lmaganida, bizni itdek otib tashlashardi. Bular gazitdan o'qivolib qilinadigan ishlar emasdi, gazitdan faqat ayrim narsalarnigina bilib olish mumkin edi, hammasini emas. Shunga ham mag'rur edim, bilasanmi, bu narsalar shunday ediki, undan juda ozchilik bo'lsa ham, katta foyda olishi mumkin edi. Bizlarni-ku, qo'yaver! Bular fikr bilan bo'ladigan ishlar edi, buni bilardim va bu menga quvonch bag'ishlardi. Shunaqa ishlarni qilganman va – hamisha o'ngidan kelgan! Murakkab ishlarni to'g'ri yo'nalishga burishmi – men bunga usta edim. Butun mayda-chuyda, ikir-chikirlari bilan to'g'rilab qo'yardim. O'zing bilasan, bunaqa paytlarda kayfiyatim qanaqa yaxshi bo'lishini, qolganini esa qo'yaver. Barcha ishlarni astoydil bajarganimni o'zlaring ham sezgansizlar, fikrlarim yaxshi bo'lganini ham, nimaydi?

– Bilaman, endi deyarli hech nima qolmadi hisob. Endi deyarli hech nima qolmadi. Mayda-chuyda narsalar bor haliyam – lekin ular nolga teng. Ammo ilgari ishlar, xilma-xil narsalar, ular yaxshiydi. Bilmadim, bularning barchasini kim amalga oshirgan, kim qilgan. Bunda sening hissang bor, deb o'ylayman. Emilning ham. Bunisini bo'lishim bilan keyingisi tayyor turardi. – O'ylab ko'rsam, qanaqangi ish edi-ya bu! Agar yurishib ketsa, e Xudo, mendan zo'r odam yo'q edi!

U iljaydi, qo'llarini musht qilib ko'kragiga yaqin opkeldi.

– Bilasanmi, albatta, o'zimni ovsar deb o'ylamaganman, chunki bilardim, agar g'ayrat qilsam, uncha-muncha ish qo'limdan kelishini. – Bir paytlar bittasi kelib meni maqtagan, to'g'ri ish qilyapsan deb. Ha, bittasi kelib meni maqtagan. O'zim qilgan ishimdan faxrlanganman. Shunchalik ziyoli ekanman: „To'xta! Axir bu omad-ku!“ – deganman.

Boshqa safar u shunday degandi:

– Biz erishgan baxt-omadlar nainki tasodif, balki hamisha va har doim haqiqiy omad bo'lgan. Biroq barcha baxt-omadlar ham haqiqiy omad bo'lavermaydi. Bizlar, – deydi u o'ng qo'l bosh barmog'ini ko'rsatkich va o'rtancha barmoqlari uchiga tegizib, – boshqalarga qaraganda omadliroq bo'lgan ekanmiz. Shuning uchun nolib, yozg'irishga haqimiz yo'q.

O'zimga kelsak, sira nolimasdim, chunki kelajakka yana ishonch bilan boqa olardim. Barcha keskinliklar go'yo yo'q bo'lib ketgandek. Oilaviy, shaxsiy va kasbiy munosabatlar jihatidan o'zim ham hali ko'nikib ulgurmagani ochiq-oydinlik, ravshanlik va tin olish, tanaffus boshlangan, ahvolimiz yana ijobiy tomonga o'zgarayotgan edi.

Bungacha bo'lgan kunlar, ayniqsa, Volfurtda bo'lgan paytlarim ko'pincha umidsizliklar bilan o'tgandi. Tungi o'y-xayollarning g'amgin girdobida to'lg'anib, tongga yaqin tinka-madorim qurir, tushga borib esa itdek charchab qolardim. Volfurtdan ancha olisda, Venada bo'la turib uy haqida o'ylashga ham yuragim betlamasdi. Endi esa aksincha, kundalik hayot ilgarigidek yana o'z iziga tushgan, ayanchli qish va bahorning o'rni to'ldi-

rish fursati kelganidan shodlanib, yoz kunlarini tug'ilib o'sgan qarddon uyimizda o'tkazmoqchi edim.

Beshinchi romanimni yozib tugallab, yengil tin olganimdan o'zimni emin-erkin his qilardim. Buni kelgan kunimoq olcha daraxtining eng yuqori ayri shoxiga o'rmalab chiqib ketganimdan ham bilsa bo'lardi. U yerga anchadan buyon – tomosha ko'rsataman deb uchta qovurg'amni sindirib olganimdan beri yaqin yo'lamay qo'ygandim. Hayot quvonchini tuyish, erkinlik, ozodlik qanday ajoyib. Erta tongda uyg'onib, boshlanayotgan kun lazzatidan bahra olish imkoniga ega bo'lmoq – buni dastlabki o'zgarish desa bo'ladi.

Oldingi yillarda Volfurtda bo'lgan chog'larimda bunchalik serharakat bo'lolmagandim. Har doim qandaydir ko'ngilsiz voqealar sodir bo'lishi mumkinligidanmi, o'zimni uyga ipsiz bog'langanday his qilardim. Qiyinchilik va kutilmagan tasodiflarga to'la kunlar ketidan kunlar o'tib borardi, shu sababli qishloqda kam ko'rinarдим. Endi esa ixtiyorimda nainki vaqt, balki vujudimda kuch-g'ayrat ham yetarli edi. Men oilamiz a'zolarini va otamning sobiq kasbdoshlarini yozmoqchi bo'lgan yangi kitobim muhokamasiga taklif qildim. Suhbatlar ko'proq kechqurunlari bo'ldi. Kunduzi esa otamni bir-ikki marta ko'rib kelardim.

Dastlabki kundanoq u og'ir, vazmin, bosiq va e'tiborli bo'lib qolgandi. Mendan hol-ahvol so'rab, rejalirim yuzasidan savollar berdi. Umuman olganda mamnun ko'rinar, biroq sezdirmay surib qolish uchun qulay fursat poylayotgan ekan.

U xuddi ont ichayotgandek dedi:

– Hademay bu yerda qoramni ham ko'rmaisan.

U suyanib ketdi-da, o'zicha kulib qo'ydi.

Nihoyatda ozib ketganidan egnidagi ko'ylak shalvirab turar, yoqasiyam ancha keng bo'lib qolgandi. O'zi esa ilgarigidek abjir, epchil. Xayoli sira bo'linmasdan, ikkala barmog'i bilan ko'ylagining yuqori tugmasini yechib-qadayotganida favqulodda go'zallik ko'rdim. Otam menga bir butun shaxs, butun bir inson sifatida yoqardi. Ko'rinishi, kayfiyati yaxshi, o'yladim o'zimcha va shu tobda bir ibora xayolinga keldi: Har neki go'zal chog'ida poyoniga yetgani ma'qul. Agar shu ketishi bo'lsa, uni ham qachonlardir Tomas Hardi<sup>1</sup>ning bir romanida o'qiganimga o'xshash qismat kutsa ne ajab, ko'nglimdan o'tkazdim men. Ushbu asarda kekxa bir kishi hayoti qalamga olingan. U o'limga go'yo to'g'ri chiziqlar giperbolasi yanglig' yaqinlashib boradi. Unga tomon yo'nalishni asta-sekin shu tarzda o'zgartiradiki, nihoyatda yaqin qolganda ham ikkovi bir-biriga duch keladimi-yo'qmi, bu yog'i noma'lum edi.

Otam ham, aslida, yana birozgina yashashni istardi. Bu jihatdan uning tutgan yo'li o'ziga aniq-ravshan edi.

Seshanba kuni edi, peshindan keyin qariyalar uyining dam olish xonasiga bordim. Otam bir sherigi bilan gaplashib o'tirardi. Bilishimcha, bir necha kun oldin ular o'rtasida quyidagicha savol-javob bo'lib o'tgan ekan:

– Xo'sh, sen kimsan? – so'rabdi otam sherigidan.

– Men Ferde (Ferdinand)man, – javob beribdi u.

Bunga javoban otam iljayib, shunday debdi:

– Men bo'lsam seni Pferdle (toychoq) deb o'ylabman.

Shu tariqa ikkovi uzoq suhbatlashibdi. Ularning guringi, garchi kasallik sababli yuzaga kelgan kamchilik, nuqsonlar bois biroz cheklangan esa-da, bir-biri uchun

---

<sup>1</sup>Tomas Hardi – (1840–1928) ingliz yozuvchisi (tarj.).



qiziqarli bo'lganini eshitib, gapning rosti, ham xursand bo'ldim, ham hayron qoldim.

Ferde yuqoriga chiqib, Petrus huzurida bo'lganini, u yer yap-yangi xonalardan iborat bo'lgan juda go'zal joy ekanini aytgan edi, otam:

– Buning menga qizig'i yo'q, yaxshisi biroz sayr qilmoqchiman, zora gaplashadigan odam uchrab qolsa, – dedi.

Ferde:

– Albatta, yuqorida buning iloji yo'q.

Ular shu zaylda gaplashib turgan edi, ikkita xotin biri qo'yib, biri olib hamshirani yordamga chaqira boshladi. Otam ularga e'tibor ham bermadi, uning quvnoq yuz ifodasida hech qanday o'zgarish sezilmadi. Uning butun diqqat-e'tibori Ferde bilan menga qaratilgan edi. Ferde (uni bu yerda Shopenhauer deb ham atashardi) ayollarga o'girilib, achchiq tanbehlar bera boshlagandan keyingi uning diqqati bo'lindi.

– Yordam! Yordam beringlar!

– Jim bo'lsang-chi!

– Uyga ketmoqchiman!

– Unda, taksi chaqir!

– Menga do'xtir kerak!

– Uning ish vaqti tugadi!

– Qadrli janob doktor!

– U uyida, sevgilisining yonida!

– Menga yordam kerak!

– Senga endi hech kim yordam berolmaydi!

Ayol uyalib:

– Voy, buni bilmagan ekanman.

Hayron qolgan joyim shuki, ikkala ayol ham, gar-chi Volfurt shu atrofdan bo'lsa-da, nemis adabiy tili-

da gapirishdi, bu bilan, balki, vaziyatning jiddiyligiga urg'u bermoqchi bo'lishgandir. Otam ham Ferde bilan ko'pincha nemis adabiy tilida, biroq butunlay xotirjam ohangda gaplashar, aftidan, mazmun jiddiyligiga e'tibor qaratmoqchi bo'lardi.

Otamning orqa tomonida, stol atrofida yana ikki ayol baqir-chaqirga parvo ham qilmay, gazeta o'qib o'tirishardi. Men uchun esa kimdir yordam so'rab iltijo qilayotgani, bunga javoban Ferdening luqma tashlayotganini shunchaki eshitib o'tirish noqulay edi. Aftidan, hamshiralar, shuningdek, boshqalar ham buni soatdagi kakku qushning ovozi, deb o'ylashgan bo'lsalar kerak, nachora, kamina ham shunday tasavvur qilib qo'ya qoldim.

Boshqa bir kuni otam qo'shiq xirgoyi qilayotgan edi, gazeta o'qib o'tirgan ayollardan biri istar-istamas gap tashladi:

– Alyo, ey? Jim bo'lsaydi!

Shunda otam Ferdega qarab:

– Ana ko'rdingmi, zamonlar o'zgaradi, biroq uzoq davom etmaydi.

Bu gapni u ikkilanmay, dadil aytdi, biroq so'z ohangi afsus bilan „peshonam shu ekan“ degan tuyg'u orasida muallaq edi.

Ferde:

– Bilasanmi, men hamma tog'lar ustida yura olaman. O, qani endi yana bir bor Alpga chiqsam. Ana undan keyin Rikatshvende<sup>1</sup> qaydasan deb, tushib ketaverardim.

Otam:

– Men esa sen bilan bormasdim.

– Nega endi?

---

<sup>1</sup> Rikatshvende (Ryukatshwende) – Dornbirn (Forarlberg)da joylashgan salomatlik markazi (tarj.).

- Chunki men hech kimman.
- Yo‘q, sen haliyam o‘shasan.

Otam iljaydi:

- Ishonmayman.

Ferde:

- Sen faqat xohlashing kerak, xolos.

Menda xohish unchalikmas. Ammo umid bor. Bilasanmi, men hayotda ko‘p yurganman.

Ferde bir nima dedi, ilg‘amay qoldim. Otamda shubha paydo bo‘ldi shekilli, dedi:

– Yaxshi, ma‘lumot uchun qabul qildim. Xo‘sh, endi nima qilamiz? Tasbeh o‘girib, duo o‘qib o‘tiraveramizmi?

- Yo‘q!

– Cho‘zilib ketadi, foydasiyam yo‘q. O‘zi tasbeh o‘girishni bilasanmi?

- Bilsam kerak.

- Xo‘sh, qanaqa bo‘ladi? Qani ko‘rsat-chi?

Otam bosh chayqab, mavzuni o‘zgartiradi.

Ferde qarasa, undan bir ish chiqmaydiganga o‘xshayd

– Ha, keyin ular seni qutiga solib asfalasofilinga ravona qilishadi.

Otam deydi:

– Yaxshisi, yana birozgina g‘ozga o‘xshab g‘ag‘illab yurgim bor. Bilasanmi, bundan boshqa yo‘l ham qolmadi. Lekin u yoq-bu yoq deganday, qo‘limdan keladi, hali o‘zing ko‘rsan, bilib ham olasan.

Ferde yana yuqoriga chiqib, Petrus oldida bo‘lganini, u yoq-bu yoqni tomosha qilganini, biroq Petrus unga, ya‘ni Ferdega ro‘yxatda yo‘qsan, deganini gapirib berdi. „Yuqorida ularniki yap-yangi xonalar, bir chiqib ko‘rsang bo‘lardi“.

Otam yana:

– Aytdim-ku bularning menga qizig'i yo'q deb. Undan ko'ra, biroz yurib u yoq-bu yoqni aylanmoqchiman, – deydi.

– Hayoting ado bo'ldi-ku.

– Sen-chi, sen? O'zing shunaqa qilib yuraverasanmi?

– Yana bir-ikki yil bo'lsa yo'q demasdim, – deydi Ferde kulimsirab.

– Ha, ko'rinib turibdi, hali kuch-quvvating bor.

Otam havorang, yengil gul solingan flanelka<sup>1</sup> ko'ylaning yuqori tugmasini yechdi, yoqasini kengroq ochib qo'ydi-da, kulimsib dedi:

– Havo yetishmasa bo'g'ilib ketaman.

O'sha stol atrofida ozg'ingina bir kishi aravachada oyoqlarini xuddi yurayotgandek asta harakatlantirib o'tirar, ayni chog'da yuzi va gavdasi qimir etmasdi. Otam unga qarab hayron bo'ldi:

– Bu ishing unchalik ham foyda bermasa keragov.

Ferde tushuntirgan bo'ladi:

– U kun bo'yi tinim bilmaydi. O'ziyam bir kunda butun Avstriyani aylanib chiqsa kerak.

Otam sonlarini ushlab noliydi:

– Mening esa quyi qismlarim titrab-qaqshaydi. Quyi qismlar men uchun juda muhim.

– Yaxshi, quyi qismlaring haliyam ishlarkan.

– Shunday.

– Hozir necha yoshdasan, Avgust?

– Bilishing shartmi?

– Albatta.

Otamga yordamlashvordim. Yaqinda sakson uchga kiradi, – dedim. U samimiy minnatdorchilik bildirdi:

---

<sup>1</sup> *Flanelka* – flanel (ip yoki jundan to'qilgan yengil, ikki tomoni patli gazlama)dan tikilgan matroscha ko'ylak (*tarj.*).

– Himmating uchun rahmat. Qoyil qilding.

– Biz esa hali yigirmadan ham oshmadik, – tusmol qiladi Ferde.

Otam javob beradi:

– Onam ham hali tetik. Biroq...

Shu choq kushetkada yotgan xotin birdan qichqirib yubordi:

– Jon hamshira! Hamshirajon! Jon hamshira! Keling, yordam bering! Ferde gap qo'shadi:

– Hamshirayam bugun uncha tabarruk bo'lmay qoldi!

Boshqa ayol noliydi:

– Shunday charchadim! Shunday charchadimki!

Ferde gap qo'shadi:

– Unday bo'lsa borib uxla! Xonangga bor-da, uxla!

Kushetkadagi xotin:

– E, Xudoyim, men nima qildim! O'zing madad ber, Xudojon!

Ferde:

– O'zing rahm ayla!

Otam hayron va xursand bo'lib:

– Rostdanmi?

Ayol:

– Nimaga? Nima uchun?

Ferde:

– Bo'lmasam-chi!

Otam:

– Agar ular seni ishlatsa bormi, ibodat qilib duoga qo'l ocharding. Ko'rinishdan haliyam kuchliga o'xshaysan, yo'q demasang kerak?

Ferde:

– Yo'q deyish yo'q.

Otam e'tirof etib:

– Sen haliyam juda baquvvat va kelishgan yigitsan.

Ferde kuladi:

– Men kelishgan ekanman!

Aytishicha, u ertalab „tezyordam“ ulovida Feldkirhga – shifoxonaga borgan ekan. Yo‘lda fe‘li aynib haydovchiga:

– Qani, rulni bo‘shat, men ham bir hayday, deganmish.

Endi ikkovlon sezdirmay qochib ketish haqida gap boshladi. Keyin esa Ferde yana boyagi diydiyosini davom ettirdi: yuqoriga – Petrus oldiga chiqsa, sen ro‘yxatda yo‘qсан, debdi va hokazo. „Ammo-lekin u yer menga yoqib qoldi“.

Otam:

– Ha, yuqorida vaziyat haqiqatan ham yaxshiga o‘xshaydi. Ammo men baribir Volfurtda qolaman.

Ovqat tarqatila boshlangach, ular bilan xayrlashdim.

– Ha, uyga bora qol, – dedi otam. – Senga maslahatim: doim uyda bo‘l va hech qayoqqa chiqmagin!

Qariyalar uyiga birinchi marta borgan paytimda negadir yashab o‘tgan, hozir yashayotgan va kelgusida yashashi lozim bo‘lgan odamlarga bir zum achinib, rahmim kelgandi. Ammo vaqt o‘tishi bilan men ana shu ters vaziyatga ko‘nikdim va nihoyat, bunday hayot tarzini ortiq g‘alati deb hisoblamay qo‘ydim. Umuman olganda, kasallikning doimiy qaytalashi sababli bu yerda sokin, bir tekis ishchanlik hukm surardi. Bu yerdagilarning do‘rilagan ovozda javrab, vaysashlari, bir-birini chaqirishlari dastlab menga erish tuyulgan bo‘lsa-da, dilkashliklariga guvoh bo‘lgach, samimiy va yoqimli eshitila boshladi.

Aka-ukam va singlim qariyalar uyining dam olish xonasidagi sharoitga chiday olmas, otamni imkoni bo‘richa tez-tez tashqariga olib chiqishardi. Singlimdan o‘z

tashriflari haqida gapirib berishni so'rasam, u qo'l sil-tardi. Uningcha, bu haqda hikoya qilish mening strate-giyam bo'lsa, uning strategiyasi u yerda nimaiki ko'rgan bo'lsa undan darrov xalos bo'lish ekan. Unga u yerning qizig'i yo'q, eshikdan chiqishi bilan besh daqiqa ichi-da unutib yuborar, qancha tez unutsa, shuncha xursand bo'larkan. Agar u mening bu haqda yozgan narsamni o'qisa, hammasi yaxshi, hatto jilmayishi ham mumkin, biroq vaziyat, aslida, dahshat ekan.

Ukamning aytishicha, u yerga borishga oyog'i tort-madimi, tamom-vassalom, borolmaydi. Bu bilan u yolg'izlanib qolmaydi, chunki otamizni Oberfeldga muntazam olib kelib turardik.

Shunaqa, odamlar ham har xil bo'lisharkan. Otam ta'biri bilan aytganda: Xudoning bandalari turfa xil, besh qo'l baravar emas. Menga qariyalar uyidagi muhit ma'qul edi, xodimlar ham muloyim va mehribon, ayollar-ku shu atrofdan, hammasi bir-birini sensiraydi. Ko'pchilikning kayfiyati yaxshi, hayotidan mamnun. Garchi ular tash-qi olamga uncha „mos kelmasa“ ham, menga har qalay to'g'ri keladi, deb o'ylandim.

Yoz faslining oxirlarida qariyalar uyiga so'nggi marta borganimda otamning kayfiyati uncha yaxshi emasdi. Kelib chiqishi asli filippinlik bo'lgan xizmat-chi ayol meni quyidagi so'zlar bilan kutib oldi:

– E ana, baxtimizga Arnoning o'zi ham kelib qoldi. Avgust anchadan beri uyga ketaman, deb ko'nmayapti.

Men uni bog'ga olib chiqdim. Aytishicha, o'z ah-voidan juda tashvishga tushib qolganmish, hech narsa „o'ngidan“ kelmayotganmish. Uyga boraman deb qan-chalik harakat qilmasin, bir qadam ham olg'a bosa ol-mayotganmish. U boshini quyi soldi va Xudoning zorini

qilib nolidiki, bu, balki, shu bilan bog'liqmikin, ya'ni o'tgan hafta oxirida Oberfeldga ikki marta borgan va undan bir kun oldin aka-singillari bilan tug'ilib o'sgan qadrdon uyida birga bo'lgandi. Robertning ayoli Marianna xola aytib beruvdi, o'shanda zo'r gurung bo'lgan ekan, hamma xursand, Avgust ham Paulning hikoyalari ni diqqat bilan qiziqib tinglagan ekan.

Hozir otam meni Paul deb o'ylab, uyga borishiga yordam bera olamanmi-yo'qmi, mendan qayta-qayta so'rardi. Bitta gapni hadeb takrorlayverar, dard uni butkul loqayd qilib qo'ygan edi. Men birozgina o'tiraylik, so'ng yo'lga tushamiz, deb uni tinchlantirdim. U xavotirlanib, haqiqatan ham uyga boramizmi, deb yana so'radi. Ha, boramiz, hozir Helga kelsin, dedim. U xursand bo'lganidan rahmat aytib, yuzimni qo'lining orqa taraflari bilan ikki yoki uch marta, qo'lining ichki tomoni – baxt bilan bir marta silab qo'ydi. Idishchada xo'jag'at opkelgandim, unga donalab yegizdim. So'ng xonasiga borib musiqa tingladik. U qachon ketamiz, deb sabri chidamas, ammo „ukasi“ yonida ekanligidan o'zida yo'q xursand edi. Biroz vaqt o'tgach, uyga ketish xayoli yodidan ko'tarildi shekilli, tinchlanib qoldi. Uxlash vaqti ham bo'lgandi, narsalarimni yig'ishtirdim-da, sezdirmay „quyon“ bo'ldim. U bilan xayrlashishga ham botinolmadim. Indamay ketarkanman, ko'nglim buzilib ketdi. Yo'lakdan o'tayotib, bir orqamga qaytmoqchi bo'ldim, ammo o'zimga o'zim: qochaver, bolalar, dedim.

– Bu – sizning ustaxonangiz. Yodingizga tushdimi?

– Ha, bu yerda juda ko'p narsalar hali yana kerak bo'ladi, degan maqsadda saqlab qo'yilgan. Hamma yoq eski narsalarga to'la. O'zing-chi, bu yerda nima qil-yapsan, ishlayapsanmi?



– Ba'zan vint buragich yoki egov kerak bo'lib qoladi. Sizning uskunalaringiz bilan ishlash menga yoqadi.

– Menga esa yo'q. Aql, ong, idrok degan narsalardan mahrum bo'lib qolgandayman. Hammasi joyida bo'lganda-ku xursand bo'lardim.

– Men sizdan xursandman.

– Unday bo'lsa yaxshi. Endi o'zimni yolg'iz yoki umidsiz his qilmayman. Ko'p narsani ko'rdim. Ko'p narsalarga ega bo'ldim va ko'p narsaga erishdim. Endi faqat ozgina layoqat yetishmay turibdi, mayli, hechqisi yo'q.

– Menimcha, o'zingizga yetarlicha baho bermayapsiz. Men esa sizga yuqori baho beraman. Ehtimol, oddiy ma'nodagi layoqat kamaysa kamaygandir, ammo-lekin hali ko'p narsa mavjud.

– Ha, ha, ilgarilari bir nimalar qilganman, ular o'g'oyalarim asosidagi narsalar edi, endi esa kuchsizmar. Hechqisi yo'q. Agar xafa yoki umidsiz bo'lsam, sizlardan yordam so'ragan bo'lardim. Ammo men butunlay mamnunman. Kamina ko'p narsaga ega bo'ldim. Lekin bugun menga – ancha bo'ldi – ortiq hech narsa kerakmas. Anchadan beri harakatlarim va uquvim pasayib boryapti. Yoshlik chog'larimda ko'p narsalarga qodir edim. Endi esa to'g'risini aytsam, hech narsa qo'ldan kelmay qoldi. Yo'q-yo'q. Hammasi shunchaki behuda.

Ammo ko'p narsalar qo'limdan kelmay qolgan bo'lsa ham, butunlay baxtsiz emasman. Bari shunchaki o'tib ketdi. Agar boshqalarning omadi kelsa, bunga xursand bo'laman. Ammo endi kuch-quvvatim qolmadi.

Bu uy o'z vazifasini bajarib bo'ldi. Unda bolalar dunyoga keldi, o'sdi-ulg'aydi va voyaga yetdi. Otam

allaqachon qariyalar uyiga ko'chib ketgan bo'lsa-da, u hamon chidab turardi. Bu yerdagi hamma narsa eskirgan, urfdan qolgan, xullas, bizga ortiqcha tashvishdan boshqa narsa emasdi. Otam bu uyni o'zi mustaqil, o'z kuchi va aqli bilan bunyod etgan. Yetmishinchi yillardan buyon doim qo'shimcha bir nimalar qurish bilan ovora bo'lgan. Nima desamikin? Bunaqangi uylarni bilvosita avtoportretlar deb atasa ham bo'laveradi.

Uy tashqaridan qaraganda omonat va nogiron odamday taassurot qoldiradi. Otam qo'shimcha qurilishlar qilgan paytda, vaqt o'tgandan keyingina yordam so'ragan. Bir necha o'n yillar mobaynida u ishxonada o'zi mustaqil ishlay olishi uchun qanday bilim zarur bo'lsa, hammasini egallashga erishgan. Uydagi yumushlarda ham unchalik katta muvaffaqiyatga erishmagan bo'lsa-da, har holda xuddi shunday omilkor bo'lishga intilgan. Ba'zida natija ko'ngildagidek chiqmagan paytlar ham bo'lgan. Buning ustiga, otam bora-bora har qanday isrofgarchilikka to'g'ridan to'g'ri nafrat bilan qarashga odatlangan. Behuda sarf qilish, mablag' sovurish endi bolalarga qolgandi.

Otamning sakson uch yillik to'yi hafta oxiriga to'g'ri keldi. Barcha oila a'zolari yig'ilgani bois onam juma kuni uy oldiga katta konteyner opkeltirdi. Uyni eski-tuski, lash-lushlardan tozalashga kirishdik.

Ish oson va tez borardi. Omborxonalar, bog' va garaj ortiqcha qaqir-quqirlardan bo'shab borgan sayin o'zimizni tobora yengil his qilardik. Ishga g'ayrat bilan kirishganimizga yarasha konteynerning mos kelmagani chatoq bo'ldi, uch marta borib kelmasimizdanoq to'lib qoldi. Hali uy yuqorisigayam yetib bormagandik, yerto'lada ham bir nimaga yarab qolar deb saqlab

qo'yilgan, biroq vaqt o'tishi bilan butunlay nokerak ma-  
tohga aylangan mayda-chuyda narsalar uyulib yotardi.  
Ob-havo yomon bo'ladi, degan ma'lumotga ko'ra bir  
qo'shnimizdan brezent so'rab oluvdik, u bizni ogoh-  
lantirgandi – uyini tozalashganda ular ikkita konteyner  
olishgan ekan.

Avgust oyining oxirida uyimiz oldida ikkinchi kon-  
teyner turardi. Bu orada singlim o'zi brezent sotib  
oldi, chunki yana yomg'ir yog'adi, deyishgandi. Shu-  
ning uchun ishning katta qismini juma kuniyoq bajarib  
bo'ldik, onam bilan Katarina bizga yordamlashdi – endi  
navbat chordoqqa yetib kelgandi. Uy nisbatan baland,  
bo'yi peshtoq ostidagi derazalar bilan qo'shib hisobla-  
ganda, ko'cha sathidan salkam sakkiz metr kelardi. Bir  
vaqtlar Peterniki bo'lgan xona derazasidan o'nlab yil-  
lar mobaynida chordoqda qolib ketgan nimaiki bo'lsa  
deyarli hammasini pastga – bog'ga qarab uloqtirdik.  
Taxtalar, gipskarton plitalar, eski kiyimlar solingan  
kartonqutilar, bolalar uchun mo'ljallangan eski, qa-  
vatma-qavat karavotlar, eshik taxtalari, kiyim-kechak  
javonlari, eski gilamlar, chamadonlar, darcha qopqoq-  
lari, eski parto'shaklar va matraslar, bir-biriga urilib,  
yorilib ketgan mebellar – hamma-hammasi endi bog'  
ichida xuddi mast odamlarday dumalab, ayqash-uyqash  
bo'lib yotardi. Ular orasida stol ustida o'ynaladigan ha-  
yot o'yini ham bor edi. Endi uning ham keragi yo'q,  
roviy hikoyasi o'z poyoniga yetgandi.

Shanbadan yakshanbaga qadar yomg'ir yog'ib chiq-  
di. Yakshanba kuni peshindan keyin quyosh chiqib ket-  
di va biz ishni davom ettirdik. Onam borib otamni op-  
keldi, uyda quvnoq kayfiyat hukm surar, otam ham o'zi  
bilan o'zi ovora edi. Ayvondan o'tib borayotib, nogoh

uning yelkasiga qo'limni qo'ygandim, u menga quv nazar tashlab, dedi:

– Aha, sen ishyoqmasga endi men tirgak bo'ldimmi...

– Menga esa bu yoqadi, rost, chin so'zim.

Oradan hayal o'tmay, bizning ishlayotganimizni ko'rib, dedi:

– Agar men sizlarga chindanam kerak bo'lsam, aytarsizlar, yordam beraman. Lekin chindanam degan so'zga urg'u beryapman! Demak, men aytdim-qo'ydim, bu yog'i sizlarga havola. Qaranglar, dangasalik qil-manglar.

Tush payti u Helga bilan menga uy oldidagi bog' devorini qanchalik mohirona qurganini aytib, umuman, uy puxta o'ylab chiqilgan reja asosida bunyod etilganini ta'kidlagandi. U bugun nimagadir quvnoq kayfiyatda, gapga ham juda chechan edi, maqtovlarimizni eshitib rosa maza qilayotgandi.

– Ha, sizdan ko'p narsalarni o'rgansak bo'larkan!

Haqiqatan ham undan „ko'p narsani“: bir kuni kerak bo'lib qolar deb, xayolga kelgan nimarsalarni saqlab qo'yaverish nojoiz ekanini bilib oldik. – Qariyalar uyi-dagi xonasiga qaraganda katta farq bor edi. U yerda tor-gina joyda yashar, biron nima yig'ib, to'plashning ham imkoni yo'q edi. Umuman, odamzodga to'olimiga qad-ar o'zi nimalar kerak bo'ladi o'zi? Uyni tozalayotgani-mizda bu haqda ko'p o'yladim. Chunki uyda otamning hayotida chuqur iz qoldirgan bir hovuchgina narsa bor edi, xolos va buni biz so'zsiz asrab qolishni istardik. Qolganlari esa shunchaki oddiy ashqol-dashqol edi.

Yakshanba kuni qosh qorayib qolganda ham to'rt-tala farzand hamon yerto'lada kuymalanardik. Peter, Helga va Verner ustaxonada, men esa omborxonada

edim. U yerdan qahva doni yanchadigan eski qo'ltagirmon, shmitsel tayyorlashda foydalaniladigan yog'och to'qmoqcha, eski abajurlar, ota-onamning birinchi kir yuvish mashinasidan qolgan baraban, vinodan bo'shagan kartonqutilar hamda tikish asbob-uskunalarini topib oldim. Is-changning ko'pligidan, hamma yoqni mog'or bosib ketganidan tez-tez chuchkirardim. Shipga taqab qurilgan, bevosita ko'cha yuzi bilan baravar torgina cho'zinchoq derazani ochib yubordim. O'n-o'n uch yoshlik paytimizda Peter ikkalamiz suvga sho'ng'ish sport turi bilan shug'ullanuvchi yosh tabiatshunoslar bilan birga ta'tildan qaytganimizda, kechasi ulovdan eshik oldida tushib qolib, uyga shu derazadan oshib tushgandik. Aftidan, karavoti dam oluvchilarga ijaraga berilgan bo'lsa kerak, o'shanda Helga mening o'rnimda yotgan ekan. Undan Milyaning eri Alvin amakining vafot etganini eshitib, qotib qolganman. Hozir o'sha olis voqealarni eslab, ularning mudroq aks-sadolarini tinglaganday bo'ldim.

Helga bir mahal ustaxonadan dala sichqonlarini tutadigan ikkita qopqon topib kelib, ular kerak bo'ladimi-yo'qmi (yo'q, Volfurtda dala sichqonlari deyarli qolmagan, ularni tabiiy muhofaza ostiga olish mumkin), deb so'rab qoldi. Shunda bir vaqtlar Paul amakimdan otamning eng zo'r iste'dodi nimaydi, deb so'raganim, u esa lo'nda qilib: „Sichqon tutish!“ deya javob bergani esimga tushib ketdi.

1939-yilning ko'klamida qishloq jamoasi tutilgan har bir dala sichqoni uchun bir necha pfennig<sup>1</sup> pul to'lagan. Avgust bilan Paul daladan sichqon tutib, har biri bittadan – „NSU“ va „Viktoriya“ markali velosiped

<sup>1</sup> Pfennig – Mayda tanga.

sotvolishgan. Avgust ishboshi, Paul esa unga yordam bergan. O'shanda nainki o'zlarining, balki qo'shning yerini ham aylanib chiqishgan.

Jamoa, bundan tashqari, har bir kilo tilla qo'ng'iz uchun grosh<sup>1</sup> to'lardi. Yozef bilan Robert brezent olib, Bregens anhuri bo'yidagi ko'plab serbarg daraxtlarni tayoq bilan silkitgancha Oberfeld chekkasiga qadar borib kelishgan va bir kunda qirq kilo tilla qo'ng'iz to'plashgan – shu tariqa oz-moz pul ishlab olishgan.

Supurgini olib, changlarni eshik tashqarisiga supurib tashladim. Kechqurun soat to'qqiz yarimda nihoyat, ishni tugatdik. Konteynerning ustini yopmadik – osmonda yulduzlar charaqlardi. Pastga – ayvondagi xonamga tushdim, u yerga chigal shart-sharoitlar vajidan o'n uch oshimda ko'chib o'tgan edim. Uy jimjit edi. Onam yuqoridagi xonalarning birida, Katarina esa shanba kuni tungi poyezd bilan Venaga jo'nab ketgan edi. O'tirib, bo'lib o'tgan voqealarni noutbukka yoza boshladim. Shunda Vernerning ustaxonani tozalayotganda aytgan gapi bexosdan esimga kelib qoldi. U devordagi tokchadan qandaydir qog'ozlar topib olgan edi.

Erinmay ustaxonaga tushdim. Uyum bo'lib yotgan turli xil hujjatlar orasida bitta papka qo'limga ilindi, unga o'n uch dona varaq tikilgan edi. Ushbu qog'ozlar qatiga yigirma to'rt yoshli otamning urush haqidagi xotiralari muhrlangan bo'lib, papkaga necha o'n yillardan beri qo'l tegizilmagan, men hatto uning borligini ham bilmagan edim.

Qorong'i, g'ira-shira yo'lakdan gandiraklab, oshxonaga qaytib keldim, o'tirib, qog'ozlarni o'qishga tushdim. Dastlabki sahifalarda o'n sakkiz yoshli o'spirin-

<sup>1</sup>Grosh – Sariq chaqa.

ning bir yillik umrini behuda sovurgan urush haqida tezgina hikoya qilingan bo'lsa, keyingi betlar jang maydonidan so'ng kechgan voqealarga bag'ishlangan edi. Harbiy shifoxonada o'tgan og'ir kunlar va uyga qaytish mashaqqatlari batafsil yoritilgan, otamning bir burda non so'rash ilinjida Forarlberg shevasida gapi-radigan odamlarni qidirgani haqidagi hikoya qalblarni larzaga solardi. Meni bir tomondan, tafsilotlar yaqqol-ravshanligi bilan tong qoldirgan bo'lsa, boshqa taraf-dan esa menda shuncha harakat qilganim bilan otam va uning hayoti haqida, kelib chiqishi, mag'lubiyatlari, hadik-xavotir va istaklari to'g'risida juda oz bilarkan-man, degan afsusnamo hissiyot uyg'otdi.

Urushda tushgan o'ljalarni yuklab yurgan payti azbaroyi och qolganidan aynigan suyakni g'ajib qo'y-i-ichketar bo'lib qolganini, qisqa vaqt ichida naq qirq kiloga ozib ketganini, hamyonidagi shaffof qog'oz os-tida asrab kelayotgan fotosurati haqida ora-sira eslatib o'tganini yaxshi bilardim. Suratga tushishdan oldin mar-humlar va jon berayotganlar orasida to'rt hafta bo'lgani men uchun yangilik edi. Bratislava yaqinidagi o'sha omborxonada kasallar uchun chuqurligi ellik santimetr bo'lgan yog'och so'rilar o'rnatilgan. Ko'p hollarda tor-gina taxta ustiga 2 tadan kasal zo'rlab joylashtirilgan, ular bir-biriga tiqilib, yonbosh yotishga majbur bo'lish-gan. Yuqumli kasalliklar va tuzalmas og'ir yara-jarohat-lar sababli vaziyat nihoyatda tahlikali bo'lib, taqdirga tan berishdan o'zga chora yo'q edi.

*„Kechalari kunduzga qaraganda ancha salqin bo'lib qolgandi. Rus hamshiralari, men ularni g'oyat yoqimsiz xotira bilan eslayman, har ikki kishiga bittadan choyshab berishgan, shu sababli ba'zida tuni bilan sovqotib chiqar-*

dim. Axiyri ancha tuzalib qolgan bir sherigiundan menga bitta sviter topib berishini iltimos qilishga majbur bo'ldim. Ertasigayoq tongda u men so'ragan narsani opkelib, qo'linga tutqazdi. Aytishicha, kechasi bir mahbus qazo qilgan ekan, egnidan rustlarga bildirmay yechib olibdi.

Mening karavotim o'lim lageri deb nom olgan jahannamning naq ro'parasida edi. Kasali kuchayganligi sababli ayrim bemorlar shifokorlar tomonidan ro'yxatdan o'chirilib, o'sha lagerga jo'natilardi. Bechoralar o'zlari hojatxonaga bora olmas, hech narsa yemay-ichmay qo'ygan, yotgan joylari ko'pincha qonga bo'yalar, hojatga chiqmoqchi bo'lishsa, zaif va tushkun ovoz bilan sanitarlarni chaqirardilar... Ularga madad beradigan, holidan xabar oladigan hech bir kimsa yo'q edi... Ko'pchiligining es-hushi joyida, biroq teri bilan suyakning o'zi qolgan. Kuniga kamida bir yoki bir necha kishi hayotdan ko'z yumar, bularni ko'rib turishning o'zi dahshat edi“.

Bu marhumlar zulmat qa'rida hali uzoq yillar davomida shivirlab yotishsa ajabmas. Shiviraydigan marhumlar... Agar qaysi biri go'zalroq, o'limmi yo tiriklik, deb ovozga qo'yilganda edi, ko'psonli marhumlar albat-ta o'lim uchun ovoz bergan, uni yoqlagan bo'lardilar.

„2 kun yotdim, so'ng isitmam yo'qoldi. Yana ishga chiqishim, chunonchi, o'liklarni ko'mishim kerak edi. O'tgan kun davomida o'lgan o'nta mahbus yalang'och qilib yechintirilgandan so'ng aravaga ortilib, ustiga eski-tuski choyshablar tashlandi.

„Sakkiz nafar harbiy asirlar xuddi yuk hayvonlari singari o'liklar ortilgan aravani pressburg ko'chalari bo'ylab axlatxona tomon sudrab ketishdi. O'liklar u yerda avvaldan kovlab qo'yilgan chuqurlarga uloqtirilgach, men



endi ularni ko'mishdek yoqimsiz ishni bajarishim kerak edi. Bu yerga qancha asirlar ko'mib tashlandiykin, buni hech kim aniq aytolmaydi. Har holda bu yerda qabrlar ko'p edi, ularni „qabrlar“ deb atash joiz bo'lsa agar“.

Otam kelib chiqqan dunyoda bunaqangi yolg'izlik, o'jizlik, nochorlik, qarovsizlik degan gaplar yo'q edi, unda odamlar o'z uyida, oilasi bag'rida va ruhoniylar guvohligida bandalikni bajo keltirardilar. Go'rkovlar esa o'lganlarni nomma-nom bilishardi. Balki, shuning uchun ham otam ko'p yillardan buyon marhumlarni xotirlash kunida Qora Xoch<sup>1</sup> uchun mablag' to'plashga muntazam o'z hissasini qo'shib kelgandir. Odatda, u hech qachon urush qatnashchilari bilan uchrashmas, biz bolalarga ham hech qanday tafsilotlarni hikoya qilib o'tirmasdi. U buni o'z-o'zi va marhumlar bilangina o'rtoqlashardi, xolos. Ular uning tushlarida, o'y-xayollarida yashar va unsiz qi-yin-qistovlari bilan uning qarorlariga ta'sir ko'rsatib turishardi; bu marhumlarning „ish“ uslubi edi.

„Ha, uyga bora qol. Senga maslahatim: doim uyda bo'l va hech qayoqqa chiqmagin!“

Yakshanbadan dushanbaga o'tar kechasi Oy xonam yaqinidagi so'nggi qoraqarag'ay uzra ilingan ko'yi xonamni yoritib turardi. Tunning ikkinchi yarmida tongga yaqin kuchli shamol esganday bo'ldi. Xonam eshigi oldida – pastda shamol qaydandir uchirib kelgan gazeta varaqlarining shitir-shitiridan uyg'onib ketdim. Ertalab barvaqt ikkinchi konteyner yo'q bo'lib qolganini hech kim sezmad. U olib ketilganda biz hali uxlab yotgan ekanmiz. Ko'z ochib-yumguncha maydon bo'm-bo'sh bo'lib qolibdi.

<sup>1</sup>Qora Xoch – 1919-yilda tashkil topgan Avstriya Qora Xoch jamiyati urush va siyosiy ta'qib qurbonlari, qochoqlar va askarlarning mozorlarini muhofaza qilish hamda obodonlashtirish bilan shug'ullanadi (tarj.).

Keyingi kunlar ichida onam ikkovimiz o'zimiz bilan keraksiz qog'ozlar, temir-tersak va eski kiyimlarni olib ketaverdik. Garaj ham asta-sekin bo'shab borardi. Iztoparlarning eski-tuski sotiladigan bozori uchun ajratib qo'yilgan ozgina o'tin qolgandi, xolos. Onam jo'nab ketdi, uyda yana yolg'iz o'zim qoldim. Otam endi bu xonalarga hech qachon qaytib kelmasa kerak. Yakshanba kunlari yoki oilaviy bayramlarga kelganda ham endi oshxonada o'tiradi. Xuddi keng raqs maydoniga o'xshab bo'm-bo'sh bo'lib qolgan yotoqxonasi ham endi uning olamiga mansub emas edi.

Ko'pincha uy ichida aylanib yurardim. Go'yo kimdir bu yerda o'zini bermalol va xavfsiz his qilishi uchun sharoit yaratishga zo'r kuch-g'ayrat sarflagandek edi. Endi esa hech kim yo'q edi, odam ham, uy ham, dunyo ham. Qachonlardir bu haqda „Mag'lub jangdan so'nggi manzara“ deb nomlangan kitob yozsammikin, deya o'ylab qoldim.

Sentabr boshlanib, uchinchi o'ringa tushildi. Otamning ikkinchi ukasi Erih bog' ichidagi o'tlarni chalg'i bilan o'rishga kirishdi. Kuz faslining dastlabki ochiq, iliq kunlarini yaxshi ko'raman. Bu paytda qip-qizil olmalar, sap-sariq noklar ajib manzara kasb etadi. O'ti o'rib olingan keng dalalar bo'ylab shamol betinim esadi, daraxtlar xuddi harbiy soqchi kemalarday g'ichirlab, qasir-qusur qiladi, qo'shni bog' taraflardan o'yinqaroq bolalarning sho'x-shodon ovozlari eshitaladi. Daraxtlar va ularning yaproqlari to'kilib ulgurgan yirik shoxlari botayotgan quyosh nurida aniq va tiniq ko'zga tashlanadi.

Yozuv stolim osha mevazor bog'larga, qo'shnilar tarafga nazar tashlayman. Erih amakim bilan Valtraud

xolam deyarli har kuni dalada ishlashadi. Bir kuni qo'shni uydan olti yoshlar atrofidagi turk bolachaning chopib chiqib, aravaga xashak ortayotgan Erih amaki yonida aylanib yurganiga ko'zim tushdi. Bolaning qo'lida olma, Erih amakini „Ora“ – bobo deb chaqiradi, bu, nazarimda, yangi madaniy o'zlikning shakllanishi edi, chunki otam va aka-singillarining bolaligi o'tgan an'anaviy jamiyat tanazzulga yuz tutgandi. Tuzilmaviy o'zgarish deb ataladigan voqelik Volfurt o'rnida turar-joy va sanoat tashkilotini vujudga keltirdi. Kimki endi baland o'sadigan mevali daraxt o'tqazsa, tashkilot unga yordam puli to'laydi. Maqsad – bu yerlarda poyoniga yetayotgan madaniyat qishloqning u yer-bu yerida bo'lsa-da o'zidan oz-moz iz qoldirsa bo'ldi.

Olmani g'ajirkan, bola endi dala bo'ylab u yoq-bu yoqqa yuradi va uzoqdan eshitilgan bolalar ovozigga o'zi-cha javob beradi: „Kakku! Kakku!“

So'ng o'tgan yili qurilgan yangi imoratlar tomon yo'l oldi. Ana, qizchasining qo'lidan ushlab olgan yosh bir yigit kichik bog' ichidan o'tib, yangi uyning ayvoni eshigidan kirib ketdi. Otam qariyalar uyiga borgan paytda bir ayoldan xona qabul qilib olgandi, bu yigit o'sha ayolning nevarasi edi. Bola yana Erih oldiga qaytib keldi. Erih xashak ortilgan arava bilan uy tomon ketgach, bog' huvullab qoldi, ang'izda unda-munda poya, cho'p-cho'kirtaklargina qolgan, ular och yashil tusda yarqirab ko'zga tashlanardi.

Friydrihshafen tarafdan seppelin<sup>1</sup> uchib kelib, Oberfeld chekkasida bir necha marta aylandi – yozda havo yaxshi bo'lsa, shunaqa aylanib parvoz qilardi. Qarchig'ayga o'xshagan yirtqich qush – kanyuk Un-

<sup>1</sup> *Seppelin* – Qattiq qobiqli dirijabl (tarj.).

terfeld<sup>1</sup> uzra uchib borayotgandi, ikkita qarg'a unga qo'qqisdan hujum qilib, yelkasi va qanotlarini tumshuqlari bilan cho'qiy boshladilar. Kanyuk ularga parvo ham qilmay, shoshilmasdan uchishda davom etdi va Bregens anhuri tomon sho'ng'ib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Shu tobda nimagadir bolalik xotiralarim esga tushib ketdi. O'n besh-yigirma chog'li odamning havo aynib turgan bir paytda zo'r berib, o't-xashakni yomg'irdan saqlab qolganliklari ko'z oldimda namoyon bo'ldi. Panshaxa bilan aravaga pichan ortayotgan erkaklarning baqir-chaqirlari ostida biz bolalar xashakni aravaning dam u burchiga, dam bu burchiga yoyib, tekislab joylashtirardik, shippakchan xotin-qizlar esa arava g'ildiraklari yotqizib ketgan o't-poyalarni to'g'rilab borishardi. Traktor aravani silkinib tortib boradi, bu yoqda momaqaldiroq gumburlab shoshiradi. Biz bolalar pichan ortilgan arava ustida yuztuban yotib olganmiz, daraxtlarning novdalari tegmasin deb. Shoxlarga yakam-dukkam xashaklar ilinib qoladi. Pichan timdalagan yalang oyoqlarimizga katta-katta yomg'ir tomchilari urila boshlaydi. Arava ortidan chopib borayotgan bolalarning sho'x-shodon chinqiriqlari quloqqa chaliniadi. Kimdir velosipedda oldinroq borib, shiypon darvozasini ochib qo'ygan bo'ladi va arava baqir-chaqir ostida xashak-pashagi bilan panaga olib kiriladi. So'ng yomg'ir kuchayib, sharillab yog'a boshlaydi. Shiyponning dim havosidan nafasimiz bo'g'iladi.

Keyin uyga borib, dushda yuvinamiz. Bobom bilan buvim oldida o'tirib, sharbat ichamiz, ketidan muzqaymoq yeymiz. Kechki taomdan so'ng, ko'zlarimiz

---

<sup>1</sup> *Unterfeld* – Alpbax (Tirol)da joylashgan dam olish uyi (*tarj.*).

yumilib, uyqu bosadi, televizor ko'rish qayoqda deysiz. Tirmalgan boldirlarimizni dag'al choyshab siypalab, maza qilamiz va darrov uxlab qolamiz.

Tepalikdagi pichan o'rimi chog'lari ham hamon esimda. Ular ko'pincha besh kishi bo'lishardi – Emil, Avgust, Paul, Robert va Erih. Yetmishinchi yillar oxiri va saksoninchi yillarning boshlarida ular har yili uch marta o'rimga chiqishar, har biri o'zi bilan chalg'i o'roq va qayroqtosh olib kelardi. Paul bilan otam nastursiya<sup>1</sup> singari cho'p-cho'kirtaklarga qoqilib shikast yemaslik uchun eski futbol botinkalarini kiyvolishardi. Qiya tepalik bo'ylab besh aka-uka qator turvolib, baravar o'rib borishardi. Verner ikkovimiz uchun ajratilgan bolalar xonasining derazalari tepalikka qaragan bo'lib, kechalari ochiq turardi. Shu bois sahar soat beshdayoq qayroqtoshlarning ilk shovqinidan uyg'onib ketardik. Ba'zida qayroqtoshlar bir maromda „sht-sht“, „sht-sht“ ovoz chiqarar, hayal o'tmay chalg'ilarining shudringga cho'milgan o't-o'lanlardan ko'tarilayotgan par, bug'lar orasida bir tekisdagi „ship-ship“, „ship-ship“ sadolari eshitilardi. Bu, taxminan, bir yarim soatcha davom etar, biz bu orada yana uxlab qolardik. So'ng otam va aka-ukalari chalg'ilarini yelkalariga osib, uyga kirib kelardilar. Dushga tushib yuvinib olishgach, biri ipoteka bankiga, boshqasi jamoa idorasiga, yana birovi o'rmonga qarab yo'l olsa, unisi elektr hisoblagichlarning qancha yozganini qayd etgani, bunisi esa Milliy bankka ishga otlanardi.

„Odamzodning kunlari bamisoli o't, giyoh“.

Orasida bir juft orxis<sup>2</sup> ham bo'larkan.

<sup>1</sup>Nastursiya – Qizil-sarg'ish gulli bir yillik o'simlik (tarj.).

<sup>2</sup>Orxis – Dorivor o'simlik.

Otamni ko'rgani borganimda uni yana qo'l qisishib, kuch sinashishga ko'ndirdim. Avvaliga u noto'g'ri harakat qila boshladi. Tushuntirgandim, tez ilg'ab oldi va men unga ikki marta yutqazib qo'ydim. Bundan u mamnun edi, lekin qozongan g'alabasidan ham ko'ra hozir qilgan ishimizdan ko'proq xursand bo'ldi, uningcha, bu bema'nilik edi. U jilmayib shunday dedi:

– Bizdaqalarning bu yerda keragi yo'q.

– Qarilik haqida nima deysiz?

– Ha, endi yosh bola emasligimni, keksayib borayotganimni yoki qartayib qolganimni esga soladi-da. Bari-bir emasmi.

– O'limdan qo'rqasizmi?

– Garchi buni bilmaslik uyat bo'lsa ham, men bu haqda bir nima deya olmayman.

Vaqt peshin bo'lgan, chorakam to'rt edi. Velosiped do'konida shinaga biroz dam berib, so'ng qariyalar uyiga jo'nadim. Otamni dam olish xonasidan topolmadim. U o'z xonasida, karavotda yotar, ko'zlari katta ochiq edi.

Gapirsam, indamadi. Eshitmadi shekilli, deb o'ylab yana murojaat qildim, hech qanday sezish yo'q, ko'zlari qotib qolibdi. Nafas olyaptimikan ishqilib? Qarasam, ko'krak qafasi ko'tarilib-tushyapti. Xayriyat-e. Qattiq gapirsam ham eshitmaganiga miyasiga qon-pon quyuldimikan yo shunga o'xshash bir nima bo'ldimikan, deb o'ylab o'zimning qon bosimim ham ko'tarilib ketdi. Biroq o'ninchi yo o'n birinchi bor gapirganimdami, bir cho'chib tushdi-da, menga ruhsiz, parishon bir holda, to'satdan paydo bo'lganimga hayron bo'lganday qaradi. Undan hayajon bilan hol-ahvol so'radim. U esa yelka qisib:

– Yaxshi bo'lsam kerak, – dedi.

Har bir qissa o'linga olib boradigan dastlabki tayyorgarlikdir, degan gap bor, chunki har qanday qissaning ham intihosi bo'lishi kerak. Hamonki roviylik yo'qolish, g'oyib bo'lishga bag'ishlangan ekan, ayni chog'da yo'qolgan, g'oyib bo'lgan narsalarni qaytarishi ham bor gap.

Let us sit upon the ground and tell sad stories of the death of kings<sup>1</sup>.

Shundan so'ng stulga o'tirib, derazadan Lauterax ko'chasini kuzatdim. Undan onda-sonda mashina o'tib turardi. Otamga ko'chaga chiqib, toza havoda aylanib kelaylik, desam unamadi.

– Men bilan birga ko'chaga chiqmaysizmi, dada? Xo'p desangiz, birozgina sayr qilib kelardik.

– Sayr? Qayerga? – so'radi u.

– Bog'ga-da.

– Qizig'i yo'q.

– Volfurtga borsak-chi, dada?

U menga qarab bosh silkidi, bu qalbiga quloq solishidan dalolat edi.

– Bu, albatta, boshqa gap.

U o'rnidan turib, men bilan eshik tomon yurdi. Unga jon kirganidan xursand bo'lib qo'ltig'idan oldim.

Odamzod nasl-nasabidan qancha uzoqlashsa, shuncha uzoq umr ko'rganday tuyuladi. Otam haqida shu nuqtayi nazardan gapiradigan bo'lsak, uning hayotini urushgacha qisqa, so'ng qisqa muddat uzoq, undan keyin juda uzoq vaqt qisqa va nihoyat, demensiya davrida yana uzoq kechgan, deyish mumkin.

Dadamning qariyalar uyidagi sheriklaridan biri mendan „Bo'ri va yetti uloqcha“ bolalar qotilligi haqidagi

<sup>1</sup>Qani, o'tirvolib qirollar o'limi to'g'risidagi g'amgin hikoyalardan so'ylashaylik (ingl.).

ertak emasmikin, deb so'rab qoldi. Men unga, balki, shundaydir, o'ylab ko'raman, deya javob berdim.

Otam uni ilgari hech qachon ko'rmaganday, unga uzoq qarab qoldi.

Sheriklarini u „istak va imkoniyatlari to'g'ri kelmaydigan sho'ringqurg'ur bechoralar“ deb atardi, ba'zida o'ziniyam istisno qilmagan holda „dangasalar“ deb ham qo'yardi, aftidan, o'ziga o'xshaganlar orasida o'zini yaxshi his qilardi chog'i.

– Bu yerda valakisalang takasaltanglar ko'p, barini chaqirib, to'plab olganman.

Boshqa bir gal birdamlik ohangida shunday degandi:

– Bizning turgan-bitganimiz yamoq – yarimjon.

“Men Xudoning bir beozor bandasiman, katta gapirmayman va hech kimga (narsaga) yomonligim yo'q“.

Otamni adabiyotdagi biror qahramon bilan muqoyasa qilmoqchi bo'lsam, „Anna Karenina“dagi asosiy obraz – Levin yodimga tushadi. Buning boisi, Lev Tolstoy yozganidek, Levinning chalg'i bilan o't o'rishida emas. Gap boshqa yoqda. Ikkalovini bog'laydigan asosiy nuqta, eng avvalo – narsalarni yaxshilash istagidir. Otam qariyalar uyiga qarashli bog'ni aylanib yurarkan, shunday derdi:

– Bu yerda bir nimalarni yaxshilasa bo'larkan. Buni ochiq ko'z bilan ko'rib aytyapman. G'alati, nega bunaqa qilishdiykin. Bundan biron foyda ko'rmoqchi bo'lishganmi, tushunolmadim.

Ko'pincha u keng qamrovli rejalar bilan mashg'ul bo'lardi:

– Menda g'oya degani to'lib yotibdi, faqat ularni chiqarish biroz qiyin bo'lyapti-da.

Uning ezilgan, uringan, tizzalari shalvirab qolgan shimlari esimga tushadi. U garajni quyosh soyaboni os-



tida suvoq qilgan. O'shanda qo'shnilar ham shu soyabon ostida uxlashgandi. U ko'pincha dastro'molining to'rt uchini tugib, quyosh nuridan saqlanish uchun boshiga durra kabi tashlab olardi.

– Bular nima o'zi?

– Bular – daraxtlar, dada.

U qoshlarini chimirib:

– Sira daraxtga o'xshamaydi-ya.

Bog'da birga o'rindiqla o'tirgan edik. U mening eski bir o'quvchilar daftariga allanimalarni yozayotganimni qiziqsinib kuzatarkan, surilib ketmasin uchun daftarni mahkam ushlab turardi. So'ng:

– Bu qog'ozlaring bilan tirikchiliging qalay bo'lgan?

– Har doim yaxshi bo'lgan, – dedim men.

– Meniki ham, – dedi u.

G'alati holat. Unga nimaiki bermayin, ushlab turolmaydi.

Menga u nima bersa, mahkam ushlab turaveraman.

Bunday damlar uzoq davom etadi va ko'p narsalarga e'tibor berishga vaqtim yetarli bo'ladi. Diqqat-e'tiborimdan hech nima chetda qolmaydi, men hushyor va sezgirman, barcha narsalarni, go'yo atrofimda to'satdan kuchli yog'du taralgandek aniq-ravshan anglay olaman.

Otam yozuv-chizuvlarimni kuzatib:

– Jim o'tirib darsingni qilgin, o'g'lim! – demoqchi bo'ladi go'yo.

O'rtamizda nimadir borki, o'sha narsa meni dunyoga qalb ko'zi bilan qarashga da'vat etgan bo'lsa ajabmas. Bu demak, Altshaymer xastaligi „aloqalarni uzadi“ degan gaplarning mutlaqo teskarisidir. Ba'zan aloqalar o'rnatiladi ham.

Biz kutgan, umid qilgan narsalar barbod bo'lgan paytdagina haqqoniy yashagan bo'lamiz.

O'limga yaqinlashib borgan sari o'ziga xos tarzda tig'izlashib boradigan baxt biz kutmagan joyda paydo bo'ladi.

Uni general de Goll kabi ushlab qolish kerak.

Undan qanday o'lishni xohlaysiz, deb so'rashganda:

– Tiriklayin! – deb javob bergan ekan.

Berti xolamni ko'rgani borganimda rappa-raso o'n to'qqiz yoshda edim. Berti xola Paulning birinchi xotini bo'lib, nevaralari bilan xayrlashmoqchi, aniqrog'i vidolashmoqchi bo'lgandi. O'shanda bir ruhoniy unga sog'ayib keting, deb endi uydan chiqayotgan ekan. Xolaning bu gapdan hafsalasi pir bo'lib, ranjidi. To'ridan go'ri yaqin odamga sog'ayib keting, deyilmaydi-da, axir bu kulgili-ku, dedi u. Uch bola (shundan ikki nafari o'spirin)ning onasi bo'lgan mana shu ayol o'lim oldida haqiqatdan ko'z yummaslikni talab qilayotgandi. Mana shu qisqagina lahza ichida sodir bo'lgan voqea menda unutilmas taassurot qoldirgan.

Ba'zan bir lahzada shunchalik ko'p narsani o'rganish mumkinki, uni butun bir yil ichida, hattoki maktabda ham o'rganish mushkul.

Bu gap yotsam ham, tursam ham sira xayolimdan ketmay qoldi.

Otamning cho'qintirgan uch nafar bolalari: Jo, Mariya va Irmu o'z jonlariga qasd qilishi bilan bog'liq qayg'uli voqealar ham xuddi shu davrga to'g'ri keladi. Aql bovar qilmaydigan, anglab bo'lmaydigan tasodifiylik ortiga yashiringan bu baxtsiz hodisa barchani benihoya ezib yubordi.

Otamga shu haqda so'z ochgandim, eslayolmadi.

– Yo‘q, bu to‘g‘rida hech narsa bilmayman, – dedi u. Ammo shunga yarasha marhum onasi hamon „tirik“ edi:

– Uyga borishim kerak, onam meni kutib o‘tiribdi!

Taqdir-qismat minglab yillar davomida oddiy tushuncha bo‘lib kelganligi sir emas. Bugungi kunda esa taqdir haqida gapirish deyarli rad etilgan, hamma narsani batafsil tushuntirib berish kerak. Biroq ba‘zan biz tushuntirib berolmaydigan va to‘xtatib ham qololmaydigan bir nimalar sodir bo‘ladi. Bu narsalarga birov tasodifan duchor bo‘lsa, boshqa birov tasodifan duchor bo‘lmay qoladi. Xo‘sh, bunga sabab nima? Ushbu savol hamon jumboqligicha qolmoqda.

Yashab o‘tgan umrimizni qo‘msaymiz, o‘tgan yao‘ insonlarimizni sog‘inamiz.

Qachondir otam ham so‘nggi bor nafas olib, bu fe dunyoni tark etadi. Bundan o‘zimcha tutaqib ketaman. Shuncha tirishish, yugur-yugurning nima keragi bor edi: So‘ng yana, Jyulen Grin sakson yoshida kundaligiga yozib qo‘ygan qaydlarida zarracha bo‘lsa ham haqiqat bormikin, deya o‘ylab qolaman: qarigan chog‘ida unda layoqat yo‘qotish-u o‘limdan qo‘rqish degan gap bo‘lmagan, o‘lim to‘g‘risidagi tasavvuri ham oddiygina bo‘lgan: go‘yo Tangri taxtdagi yozuvni o‘chirib, o‘z nomini yozib qo‘yarkan, xolos.

Otam kaminaga qarshi o‘laroq o‘ta dindor odam bo‘lgan. Lekin J. Grinning taxtaga o‘z nomini yozib qo‘yadigan O‘zga haqidagi mana shu gapi dunyoviy ma’noda menga ham ma’qul ko‘rinadi. Zero, biz foydalangan joylardan boshqalar ham foydalanadi. Bizlar yurgan ko‘chalardan qachonlardir boshqalar ham yuradi. Otam uy qurgan joyda vaqti kelib boshqa odam-

lar ham yashaydi. Men aytgan hikoyalarni yana kimdir qayta so'ylaydi. Bu dunyo qanchalik bema'ni va g'amgin bo'lmasin, menga shunchalik to'g'ri bo'lib ko'rinadi.

Gazetalarda yozilishicha, (sharqda uchraydigan) qora suvarak Bikini atoll<sup>1</sup> dagi atom bombasi sinovlarida ham tirik qolgan ekan. Ular hattoki qiyomat-qoyim qo'pganda ham omon qolarmish. Ana ko'rdingizmi, ular ham mendan keyin qolarkan. Kamina-ku o'zimdand keyin vino bilan qizlarning qolishiga rozi edim. Biroq men o'tgandan keyin, kelib-kelib qandaydir suvarak hayot nashidasini surib yursa odamga alam qilarkan.

Bir kuni yerto'ladagi omborxonadan bir shisha vino olayotgandim, shippa taqab qurilgan deraza ochiq edi, Daniyela bilan devor ustida o'tirgan otamning gapi quvg'imga chalinib qoldi:

– Bir kun vaqti-soati kelib qolar...

Agar odamlar umrboqiy bo'lishganda edi, kamroq fikr yuritgan bo'lardilar. Basharti odamlar kamroq fikr yuritganlarida, hayot bunchalik go'zal bo'lmas edi.

Agar hayot bema'ni, tuturiqsiz va o'lim muqarrar bo'lmaganda edi, na „Sehri fleyta“ va na „Romeo va Julyetta“ bitilgan bo'lardi. Nega endi har doim kimdir bir nima qilishga majbur bo'lganiykin-a?

Hayot menga shu qadar jozibali bo'lib ko'rinayotgani, bu – o'lim tufaylidir. U dunyoni yanada ravshanroq ko'rishimga yordam beradi. Biroq shunday bo'lsa ham uni yoqtirmayman, chunki u dillarga g'ulg'ula soladi, juda ko'p go'zal narsalarning yo'q bo'lib ketishiga sabab bo'ladi, men bunga achinaman.

---

<sup>1</sup> *Bikini atoll* – Marshall orollari arxipelagida joylashgan halqa tarzidagi marjon oroli (tarj.).

Yana shunisi ham borki, o'lim muqarrarligini bilib turib yozg'irish, mening nazarimda, xuddi tunda – o'z-o'zidan otadigan hayot tongini deb akillashga o'xshab ketadi.

Qanchalik qarshilik ko'rsatmaylik, vaqt baribir o'tib ketaveradi.

Adashmasam, „Shanxaylik xonim“ filmida shunday bir kichkinagina dialog bor:

– Men o'lishni xohlamayman.

– Men ham. Mabodo agar majbur bo'lsam, eng oxirida.

Odamlar hayotni qanchalik sevishmasin, agar yashash darajasi qoniqarli bo'lmasa, unda birdaniga evtanaziya<sup>1</sup> mavzusiga o'tiladi. Buning o'rniga yuzaga kelgan yangicha vaziyat bilan hisoblashish, odam o'zidagi noqobillik, layoqatsizlikka barham berish haqida o'ylash maqbul bo'lmasmikin? Savol tug'iladi: Odam o'zini o'zi ojizlik, nochorlikdan saqlagani ma'qulmi yok kasal bo'lgach xastalikdan?

Yashayapmizmi, demak, gunohkormiz! Mudom!

Otam ilgari men payqamagan yumshoqlik, muloyimlik bilan ba'zan kaftini, ko'pincha qo'lining orqa tarafini yuzimga tekkizgan paytlarda negadir g'alati bo'lib ketaman. Ana shunday lahzalarda u bilan o'zinning bir jon-bir tan ekanligimni anglab yetaman.

Va buni hamisha eslab yuraman. Hamisha va har doim! Yoki bunga qodir bo'lgan paytinga qadar.

Qo'limni uning yelkasidan o'tkazib, deyman:

– Xo'sh, keksa Naudegen<sup>2</sup>, qalay endi?

<sup>1</sup>Evtanaziya – Og'riqsizlantiradigan dori-darmonlar vositasida o'lishni yengillashdirish (*tarj.*).

<sup>2</sup>Naudegen – Hech narsadan qaytmaydigan, botir jangchi, askar (*tarj.*).

– Menmi? – so‘raydi u hayron bo‘lib.

– Nima, siz kekxa Naudegen emasmisiz?

– Gap shundaki, buni qanday tushunishga bog‘liq. Bilasanmi, Naudegen kuchli bo‘ladi...

Shunday deb, menga picha razm solib turgach, davom etdi:

– Masalan, sen ko‘p narsalarni xohlagansan, ko‘pgina nimarsalarni esa o‘ldirsa ham xohlamasding, shundaymi?

– To‘g‘ri, ba‘zi bir narsalarni juda ham istaganman, – dedim men.

– Sen sarguzashtlarga ishqiboz bo‘lgansan. Men esa yo‘q.

– Siz o‘zi nimani yaxshi ko‘rardingiz?

– Uyga qaytishni...

Boshqa bir safar uning qo‘lini qisib qo‘ygandim, iron bo‘ldi:

– Nimaga bunday qilyapsan?

– O‘zim, shunchaki, – dedim men.

U menga qaradi, uning nigohida qiziquvchanlik bilan g‘ijinish omixta edi, so‘ng dedi:

– Albatta, qo‘limni xohlaganingcha ushlashing mumkin. Biroq buning sababini bilishni istardim.

– Sababi, sizni yaxshi ko‘raman, – dedim men.

Bu izohdan uyalgandek bo‘ldi, so‘ng go‘yo o‘z-o‘ziga baho berayotganday va o‘z ojizligini tan olayotganday dedi:

– Shunchaki aytayotgan bo‘lsang kerak-da...

– Yo‘q, haqiqatan ham sizni yaxshi ko‘raman! – dedim o‘ng‘aysizlanib, so‘zlarim negadir o‘zimga ham alaqanday ishonchsiz va shubhali eshitildi.

Otam boshini quyi soldi va shu bilan mavzuga yakun yasaldi.

Agar o'z-o'zimdand: otam qanday odam edi? – deya so'raydigan bo'lsam, gohida u qolipga osongina mos kelar, goho yana qolipni buzib, butun hayoti davomida menga va boshqalarga ham namoyon bo'lgan turli qiyo-falarga kira olardi.

Bu – quvnoq, shodon bo'lish, kulgi-xursandchilik va odamlar bilan tezda do'stlasha olish qobiliyati edi.

Urushdan uyga qaytish chog'ida unga o'ziga nisbatan odamlarda xayrixohlik uyg'ota olish iste'dodi nihoyatda qo'l kelgan. Og'ir damlarda yordam qo'lini cho'zgan in-sonlarning ism-shariflarini urush haqidagi xotiralarida mehr bilan aniq qilib yozib qo'ygan. Sankt-Valentin degan joyda Dunay daryosidan parom bilan o'tishda Innkrays (Rid)lik Alfons Mayr degan bir kishi unga pul to'lab yuborgan. Urfarda kennelbaxlik Evald Fisher va Gido Orsinger de-gan yaxshi odamlar katta dumaloq bo'lka non berishgan. Dornbirnlik Zigfried Nosko dezinfeksiya guvohnomasini<sup>1</sup> qalbakilastirib, uning Qizil Xoch ulovi o'rindig'i ostig yashirinishiga imkon bergan. Amerikaliklarga raqs o'rgat-gan bregenslik musiqa muallimi Frans Gruber o'zining ikki porsiya taomini u bilan birga baham ko'rgan.

Kimki faqat ota g'oyasiga uchadigan bo'lsa, pand yeyishi ham mumkin. Hech qaysi ota bolalarining o'zi haqidagi tasavvurlariga mos kelishning uddasidan chiqolmas ekan.

Agar u qaytib kelsa – xuddi kegli<sup>1</sup> o'yinidan naq yigirma yildan so'ng qaytgan Rip van Vinkl kabi – xas-talik haqida menga nimalarni ham aytib bera olardi. Biz-ku endi bir-birimiz bilan ochiqroq, dilkashroq va aqliroq suhbat qura olardik.

<sup>1</sup> *Kegli* – Tippa-tik terib qo'yiladigan butilka shaklidagi chillaktarni shar bilan urib yiqitish (*tarj.*).

Uning bolalari, bu borgan sayin tobora yaqqolroq namoyon bo'lib borayotir, voqealar ichidan muayyan bir tarzda poklanib chiqib kelmoqda edilar. Bu esa chuqur iz qoldirishi barchaga ma'lum.

Ancha yillar ayriliq va mustaqillikdan so'ng onam nihoyat, yana oilamiz bag'riga qaytdi. Otamning bir umrlik oilaviy turmush haqidagi samimiy orzu-tilagi biroz kechikib bo'lsa-da amalga oshdi.

Bir necha kun avval u uyda, oshxonadagi stul ustida jimgina o'tirardi – onam uning sochlarini olayotgan edi.

Oilaviy munosabatlar tarixida pardozi berilib, boplab yozilgan tarjimayi hollar uchrab turadi – ular xuddi bu-ama po'kak ochqichlarga o'xshab ketadi.

Otam ko'pincha es-hushidan ayrilgan bechora inson qiyofasida namoyon bo'ladi. Agar menga ko'zlari kulib qarasa, bunday holat baxtinga tez-tez bo'lib turibdi, demak bilamanki, u kelganimdan xursand. Ko'pincha u hech nimani bilmaydiganday va tushunmaydiganday ko'rinadi.

Bir kuni u qo'lim muzdayligini sezib, menga achingandek bo'luvdi, tashqarida yomg'ir yog'ayotganini aytdim. U qo'limni qo'llari orasiga olib, dedi:

– Sizlar borib ishlaringni qilaveringlar, ungacha men manavi qo'lni isitib turaman.

So'ngra biz kushetka ustiga o'tirdik. U dedi:

– Men katta bolaman va mujmal narsalarni yoqtirmayman.

Radiokarnayda Motsart yangradi. Otam o'tgan-ketganga „Barakalla!“ deb ortidan qarab qolar, agar u orqasiga kulib qarasa, otam buni Katarina bilan menga o'zi-cha sharhlab berardi:

– Xuddi bombaday ta'sir qiladi-ya.



Bu qariya o'zining sog'inch his-tuyg'ularini, dard-u hasratlarini jannat ko'shkiga ham almashmasdi: sayrga chiqsa, kimnidir uchratsa, u bilan biroz hangoma qilsa bo'ldi edi.

Arzimas qulayliklar – kulayotgan chehralar – day-di mushuklar – o'tkir hazil-mutoyibalar, tamom-vassalom. Qariyalar uyidan bundan ortiq narsa kutib bo'lmaydi. Menga hammasidan ham bu yerda yashayotgan odamlarning ishlab chiqarish jamiyatidan ozod ekanliklari yoqadi.

Biron-bir imkoniyatning yetishmovchiligi ba'zan biror narsadan xalos bo'lishga olib keladi. Men buni Sibirdagi olis qishloqchalarning biridan bir necha kilometr olisda joylashgan kichkinagina temiryo'l bekatida o'tirvolib, pista chaqib kutish kabi tasavvur qilaman. Qachondir poyezd kelishi aniq. Qachondir bir nima bo'lishi ham aniq. Albatta.

Otam qahvadan bir qultum ichib, chashkani likobcha ustiga qo'ydi-da, ularga qarab dedi:

– Bular bir-biriga qarindoshmi deyman?

– Ha, ular bir-biriga tegishli, – dedim men. U esa:

– Rangiga qarab men ham shunday deb o'ylagandim, – dedi.

Gazeta xabariga ko'ra qora qo'ylarning soni yer yuzida harorat ko'tarilib borayotgani sababli tobora kamayib ketayotganmish.

Yaxshi kunlar o'tib ketdi, degan hadik-xavotirlarim ko'pincha o'zini oqlamas, bashoratlarim ham kamdan kam to'g'ri chiqardi. Sen bola qattiq adashyapsan, derdi otam, o'ziga xos mulohazali tarzda. Shu bois endi kelajakka avvalgidek xavotir bilan boqishni bas qilib, ortiq tashvishlanmay qo'ydim. Vazminlik bilan kutish qoldi.

Ushbu kitobni yozishga shoshilmadim, olti yil kutdim. Ayni chog'da qani endi padari buzrukvorim tirikligida yoza qolsam, deb orzu ham qilardim. Chunki bu haqda uning o'limidan so'ng hikoya qilishni istamasdim, men tirik inson haqida yozishni xohlardim, zero, har bir kishi singari otam ochiq qoladigan taqdirga munosib, uni shunday taqdir egasi deb hisoblardim.

Mazkur satrlarni yozayotganimda o'zim ham uning yarim yoshiga yetib qolgandim. Shu yerga yetib kelguncha oradan ko'p vaqt o'tdi. Bizlarni hozirgidek odam bo'lishimizga sababchi bo'lgan asosiy, hal qiluvchi narsalarni tushunib yetgunimizga qadar, mana, ko'p vaqt o'tdi.

– Ilgari men baquvvat yigit edim, – degandi otam Katarina bilan menga. – Sizlarga o'xshagan uloqcha emas!

Aytishadi-ku: kimda-kim sabr bilan kuta olsa, albatta qirol bo'ladi.

## HIKOYALAR

*Kamol* STOFA

### KUZNING MASH'UM AYBNOMALARI

Uni har kuni ertalab maktabga ketayotganimda uchratardim. Hamisha bitta joyda, muyulishga yaqin yo'l chetida o'tirgan bo'lardi. Soch-soqoli o'sib ketgan, g'am-anduh to'la yuzida ko'ngli ravshan odamlarning aft-angorida zuhr etuvchi allanechuk yuvosh va yoqimli ifoda balqirdi.

Og'ir turmush boshiga solgan ko'rgiliklar uning qiyofasiga ayovsiz tamg'asini bosgan – chuqur-chuqur ajinlar g'amgin yuzini tilimlab yuborgan edi.

Patila-patila quyuq sochlari g'am-tashvishdan oppoq tusga kirgandi.

Yozda u meva-cheva, qishda esa qovurilgan kashtan mag'zini sotardi.

Mahalla-ko'yda uni bilmagan odam yo'q edi. Sotuvchini, ayniqsa, bolalar yaxshi ko'rishar, har kuni maktabga ketayotib undan qovurilgan kashtan olish uchun muyulishda albatta to'xtashardi. Ba'zi-ba'zida bitta-yarimta bola uning qulog'iga bir nimalarni shivirlayotgan bo'lardi: o'sha kuni onasi pul bermagan, shekilli... Sotuvchi boshini sarak-sarak qilganча jimgina quloq solar, keyin yuvoshgina boquvchi ko'zlarida tabassum jilva qilardi.

Cho'ntaklarini qovurilgan kashtan bilan to'ldirib olgan bolalar shodlikdan terilariga sig'may ketishardi. So-

tuvchi esa bolalarning ko'nglini ololganidan mamnun bo'lib, qaddini rostlagan ko'yi ularning ortidan jilmayib qarab qolardi.

Yoz yaqinlashgan sari bu odamning aft-angori tundlashib borar, u yosh xaridorlariga shunchalik ko'nikib qolgan ediki, bir necha oy ularni ko'rmaslikka majbur bo'lishidan diqqati oshardi. Mijozlaridan ajralsa, pul kamroq tushishi uchun deb o'ylayapsizmi? Albatta, yo'q!?

Bolalari bilan (uning bir-biridan shirin ikkita o'g'li bor edi) o'ziga bitta non bilan bir bo'lak pishloq va meva-cheva ham sotib oladi. Gap pulda emas. Bolalarni yaxshi ko'rardi, bir kun ko'rmasa, yo maktabga kirib ketishgan chog'larida yangroq kulgilarini eshitmay qolsa, yuragi siqilar, xuddi bir nimasini yo'qotgan odam ko'yiga tushardi.

Bolalarning beg'ubor chehralariga boqib, ularning shovqin-suronlarini eshitganda o'tgan kunlari ko'z o'ngida gavdalanar, zardobga to'lgan yuragining qatlamlarida ularning beg'araz ovozlari yangragandek bo'lardi.

U haqda bolalar har xil hikoyalarni aytib berishardi.

Emishki, kashtanchining yana bitta suqsurdek bolasi bo'lgan ekan, u sotuvchi oilasining dur-u gavhari – boyligi ekan. Ota o'z uyida bola-chaqasi bilan tinch-totuv yasharkan. Ammo kunlardan bir kuni hech kutilmaganida sotuvchi ana o'sha bolasidan judo bo'libdi.

Motam va musibat tufayli oilasida hukm surayotgan osoyishta hayot barham topdi. Avji bahor pallasida gullayotgan dov-daraxtlar nogahon qora sovuqqa dosh berolmay zavolga yuz tutdi. Mehr-muhabbatning shirin orzulari barbod bo'ldi.

Ko'p o'tmadi, suqsurdek norasidaning tobutini ko'tarib chiqib ketgan odamlar xastalik va farzand dog'iga

dosh berolmay dunyodan ko'z yumgan onani dafn etgani yana kelishdi.

Otaning yuragi bu adoqsiz musibatlardan ado bo'ldi. Keyin harbiy kiyimdagi kishilar kelib ko'ch-ko'roni bilan ularni uydan haydab chiqarishdi. Shu tariqa sotuvchi ikki nafar kasalmand bolasi va bir dunyo g'am-tashvishi bilan yolg'iz qoldi. Ana o'sha paytdayoq u kashtan qovurib sota boshlagan ekan.

Kunlarning birida kashtan olayotganimda bir narsa e'tiborimni tortdi: odatda, doim yengil kiyinib yuradigan odam qandaydir qalin choyshab bilan ko'ksi aralash belini o'rab olibdi.

Ko'chada havo sovuq, aqrabning etni junjiktiruvchi kunlari edi. Ayoqli tong xayolga cho'mgancha qotib qolgan. G'aribona kulbalarning ayanchli qiyofasi va dang'illama ko'shklarning ulug'vor salobatini kechasi bilan yog'gan qor ham ko'zdan yashirolmagan, aksincha, ular o'rtasidagi tafovutni yanayam bo'rttiribroq ko'rsatardi.

Qahraton qish kirib kelayotgandi.

Kashtanlarni qog'oz idishga solib uzatayotgan mahal sotuvchini yo'tal tutdi. O'qchib-o'qchib yo'talganidan uning yuzi qizarib, ko'zlari yoshlandi. Bir zum o'tmay ko'ksini changallaganicha chuqur nafas oldi, ana shunda rangi-ro'yi yana o'zgardi – holsiz, jonsiz bir alfozda oqardi. U yonginasidagi eski siniq yashikda yotgan bolalariga razm soldi va chuqur xo'rsindi.

Unga qarab turar ekanman, ko'nglidan nimalar kechganini sezardim.

Qor hamon yog'ar, qish qilichini ko'tarib shu g'ariblar tepasidan ketmasdi go'yo...

Sotuvchi tez-tez yo'tala boshladi. Shunday yo'talar ediki, azbaroyi ko'karib, nafas ololmay, gapirolmay

qolardi. Shunda ham ora-sira javdirab bolalariga ko'z tashlab qo'yar, bir amallab engashganча ularning ustiga yopilgan yirtiq choyshabni to'g'rilar, so'ng yana achchiq-achchiq yo'talar edi.

Kunlardan bir kun sotuvchi g'oyib bo'ldi. Qovurilgan kashtanni xush ko'radigan bolalarning bari o'ksib qolishdi go'yo.

\* \* \*

Kuz oqshomlarining birida uyga qaytayotgandim. Shimol tomondan izg'irin shamol esar, sharros yomg'ir quyayotgandi. Buzilgan, xaroba kulbaning puturdan ketgan tomi ostida eski paltoga o'ralib olgan bir odam o'tirgan yerida mizg'ir, oppoq sochli boshi ko'ksiga tushgan, ikkita bolakay uning tizzalariga bosh qo'yib orom olishardi.

Ularning tepasiga bordim. Bular kashtan sotuvchi bilan uning bolalari edi. Ular sovuqdan bir-birlarining pinjiga suqilib pinakka ketishgandi. Bechoralarni uyg'otib hol-ahvol so'ragim keldi-yu, biroq allaqanday g'alati bir tuyg'u bu g'ariblarning g'amgin oromini buzmaslikni ko'nglinga soldi. Men issiq engil-boshimga xijolatomez razm soldim-da, yo'limga ravona bo'ldim.

Yo'lda ketyapman-u, ich-ichimda titroq aralash iztirobli og'ir xayollar bosh ko'tarayotganini his qildim. Barhaq Egam, men odamlar va jamiyatdan yozg'irar va beixtiyor o'zimga o'zim so'z berar edim...

Kech kuz. Yomg'ir tinmay yog'ib, shamol esyapti.

## QO'SHIQ ZAVOLI

Sen qora kunlarda dunyoga kelganding, bu qismat ijodingga alamli, tushkun kayfiyat, g'amgin ohanglar baxsh etdi. Oqibatda mungli qo'shiqlar kuychisiga aylanding, boshqacha bo'lishi mumkin ham emasdi, negaki tole senga shuni ravo ko'rgan. Endi ayt-chi menga, ko'ngli vayron, dili xun mashshoq sho'x-shodon qo'shiqlar, tantanavor, ulug'vor madhiyalar aytishi mumkinmi?! Alalxusus, butun ilhoming, ijoding tugul, ko'z yoshlaring, yurak tuyg'ularing va hatto e'tiqodini shu yo'lga fido qilding. Yoshligingni nisor etding.

Odamlar dardi haqida, g'am va o'lim haqida qo'shiqlar kuylading. Har qanday go'zallik va nafosatning kushandasi, ezgulik va saxovat gullarini so'ldiruvchi tong shafag'i, oydin tushlar sokinligi, xokisor inson qalbining ulug'vorligini beorlarcha shafqatsizlik bilan g'orat etuvchi manfur o'lim haqida g'amgin-g'amgin marsiyalar aytding. Endigina kuz uqalay boshlaganda nobud bo'lgan nihollarga bag'ishlab qo'shiqlar yaratding.

Poymol bo'lgan muhabbat, ushalmagan orzular haqidagi nolalar yuragingdan qo'shiq bo'lib otilib chiqdi. G'amgin kuylaring qabr toshlariga behol tirmashgan mash'um chechaklar kabi odamlar yuragini larzaga solardi. Holbuki, sen o'zgalar dardi bilan yasharding.

Vodarig', bir xayrixoh, hamdard topilmadiki, seni yoqlaydigan, aksincha, odamlar senga ishonishmadi; zotan, ularning nazarida, bunga tamomila haqli edilar. Ular ko'zyoshlaringni beta'sir, dard-u hasratlaringni yolg'on, his-tuyg'ularingni soxta deb topishdi, negaki sen bularni boshdan kechirmagansan, to'qigansan, xolos. Modomiki san'atkor boshidan kechirmas ekan, u yaratgan kuy-qo'shiqlar samimiy emas, deyishardi.

Ular bu fikrlarni asoslash uchun qiyinchilik ko'rmagan, hayotning achchiq-chuchugini tatimagan bir o'smir xalqning g'am-alamini qaydan bilsin, deyishardi. Ba'zilar boshingga tushmagan bo'lsa, judolik alamini tabiiy, ta'sirchan va haqqoniy ifoda etishing amrimahol, deya taskinbaxsh so'zlar ham aytishardi. Yana kimlardir ijro etgan qo'shiqlaring musiqasi notayin, nolalaring soxta, ohangi buzuq deb jar solishardi.

Ular bamisli dudama xanjarning o'tkir tig'i ko'ksingni qanday yorib kirayotgani va yuragingni jarohatlashini ko'rmoqchi bo'lardilar, shekilli. Sendan qonga belangan yuragingni changallab qah-qah urayotgan masxaraboz singari kulishingni talab qilishardi. Hatto qo'yib bersang, yuragingga hech narsa sig'may, qalbing bir dam bo'lsin halovat va tinchlikka zor bo'lgan chog'da ham masrur va sho'x qo'shiqlar bilan ko'ngillarini ovlashingni amr etishdan ham toymaydigan kunlar bo'ldi. Shunda sen nima qilding? Ularning talabini ado etishdan o'zga chora topolmading! Sho'x-sho'x qo'shiqlar bilan ularning ko'nglini olding. Biroq kunlardan bir kun kuy avjiga chiqqanda skripka torlari chirt etib uzildi. Cholg'uning ijrosi taqqa to'xtadi, shodiyona bir onda barham topdi.

Sen avomning ra'yini qaytarmaslik uchun astoydil xursandchilik qilaman, deganingda odamlarning china-



kam qayg'usiga duch kelding, bedavo hasrat endi senga ta'sir etmay qo'ygan davrlar kelgan edi, biroq sening boshingga ham g'am, musibat keldi.

Qo'rqinch to'la o'sha tun yodingdami?

Bechora kasalmand onalarining boshi uzra turgan kampirning tutqichi qayirma hassasini ko'riboq o'takarlari yorilgan to'rt nafar bolaning oqarinqiragan yuzini eslay olasanmi? Hali sovib ulgurmagan onaning vujudiga malham bo'lish uchun uzatilgan nimjongina sakkizta qo'lchani-chi?

Esingda bo'lsa, ko'z oldingga keltir: jon talvasa ichida, lekin ko'zlarda zuhur etgan fikr yolqini so'nmagani, qaqragan lablar bir nimalar deyishga shaylangan. Biroq o'sha lablar orasidan «uh» degan tovush chiqdi-yu, so'nggi daqiqalar – intiho yaqinligidan darak berdi.

Hali nuri so'nmagani ko'zlar – nuridiydalariga bir umr mehr bilan boqqan ko'zlar javdirab bolalarini izlaydi, vidolashuv onlarida ularni yana bir bor erkalagisi keladi. Bu ko'zlarda aks etgan yashash istagi so'nmagandi. Kunlar, yorug'lik, quyoshga hali mushtoq edi bu ko'zlar! Koshki, shu chekkan azob-uqubatlari evaziga hayoti davom etsa, nasibasi uzilmagan bo'lsa!..

Kechagi kunni yodingda tut! Keyin-chi, keyin nimalar bo'lgani esingdadir?! Uy sovuq, tashqari undan ham sovuq, zamharir aqrabning dildiragan kunlari... O'choqdagi cho'g'larni kul bosgan, bir chekkasida ana-mana o't oladigandek bir hovuch cho'g' qirmizi uchqun sochmoqda. Uning haroratida kaftlarni isitish amrimahol.

Motamsaro uyning narigi chekkasini qoplagan zulmat yuraklarga qo'rquv soladi. Kechagina bu kulbada

hayot qaynardi, charog'on kunlar ko'ngillarda umidbaxsh, najotbaxsh orzu-istaklar uyg'otar edi. Mana shu uy sohibasidan ayrildi-yu, hamma yoqni zulmat qopladi.

Ba'daz hayot chechaklari so'ldi, bolalarning quvnoq kulgilari eshitilmay qoldi. Onaning quyosh haroratiday mehri-yu, quyoshning ona mehriday jonbaxsh harorati kirmagan uyni rutubat, zax havo, suyaklarni qaqshatuvchi sovuq egalladi.

– Bunga nima deysan?

– Oilamiz boshiga tushgan musibat, qaro kunlar haqidagi hikoyamni davom ettiraymi yana, ukajon? Tosh qotayozgan diydangni yumshatishning chorasi bormikan?! Allaqachon unutilgan taronalarga jon bag'ishlash uchun nima qilish kerak yana? Javob ber, dardlarimga sherik bo'l, befarq qolma!

Ko'ngil qabrisoniga o'zing dafn etgan his-tuyg'ularga jon ato et, skripkani qo'lingga olib shunday nola qilginki, unutilgan g'amgin navolar tong nurlari kabi yana olamni tutsin! Marhum otang ruhini biron-bir mungli madhiya bilan yod aylab qo'ysang yomon bo'lmasdi, har holda uning pushti kamaridan bo'lgansan.

Olislardan, olis Albaniyadan jo'natilgan maktub ummonlar va tog'lar osha yetib kelgani bilan foydasi bo'lmadi. Hatto qalbi o'ksik singilning dastxatini ko'rganda ham uning yuragida g'amgin qo'shiqlar uyg'onmadi, uzoq va begona yurtda yashayotgan kuychining tosh qotgan ko'ngli yumshamadi.

Qolaversa, allaqachon yangramoqdan to'xtagan ko'ngil torini sozlashga ishtiyoq bormidi? Qayoqda, o'tmishda jo'sh urgan tuyg'ulari, zavqi, g'ayrati zavol topgan va u o'zining layoqatiga ishonmay qo'ygan edi. Xullas, qo'shiqlarga kuch, ohang bag'ishlagan qalbdagi

ilhom chashmalari qurib bitgandi. Uning bir misqol g'ayrati, oniy hayajoni bo'lsa ham faqat ichkilik tufayli edi.

Nogahon... Ichkilik sabablimi yoki ming qilganda ham shu xat yoki zaifgina jonlangan xotiralar ta'siridami, hofizning ko'zlarida yosh halqalandi. Yirik marvarid donalaridek tiniq tomchilar yonoqlarini kuydirib, lablariga oqib tushdi.

Shunda uning qarshisida hamsuhbat bo'lib o'tirgan ayol ojiz, ehtimol, taqdir zarbalariga dosh berolmay bukilib qolgani bilan boshqalarga o'xshamaydigan g'alati va iste'dodli inson bilan o'tirganini his qildi. Darhaqiqat, jamiyat tushunmay yanchib tashlagan va shu lahzalarda o'zining zoye ketgan yoshligi, armon to'la hayoti hamda xazon bo'lgan umr bahorini eslab o'ksib-o'ksib yig'layotgan inson betakror qo'shiqchi va benazir bastakor edi...

## CHUMCHUQNING HALOKATI

Oxiri chumchuq ham dilgirlik kasaliga muhtalo bo'ldi. Bu hech kimning xayoliga kelmagandi. Ammo- lekin uning o'ziga ma'lum edi.

O'sha chumchuq nazardan qolgan yurtda dunyoga keldi. Bahor fasli bu zaminda yam-yashil giyohlar, o't- o'lan o'rniga itqo'noq, chaqirtikanak, daraxtlar o'rniga daqqiyunus davridagi vahshiy hayvonlarning muguzlari o'sib chiqar edi... Ayting-chi, tabiati mana shunaqa za- ninda (tabiat deyishga odamning tili bormaydi-ya!) kim dilgirlik kasaliga yo'liqmaydi?

O'zingizga ma'lum, chumchuq degan parrandaga ko'p narsa kerak emas, biroq tabiat chindanam – chin- danam tili bormaydi kishining shunday deyishga – shu beozorgina, jimitday qushchalarga ana shu ozgina nar- sani ham ravo ko'rmaganiga nima deysiz?!

Mendan, boyoqish chumchuq bu tomonlarga qayoqdan kelib qoldi, deb asti so'ramang, bu xuddi odamzod nega koinotning aynan shu nuqtasida paydo bo'lgan, deb so'rash bilan barobar – axir biz hamma narsani bilavermay- miz-ku... Bilganlarimiz nari borsa taxmin va xomxayol.

Shuning uchun aytyapman-da: bu chumchuqvoy maysalar o'rniga chaqirtikan, daraxtlar o'rniga almisoq- dan qolgan vahshiy darrandalarning muguzlari o'sib chiqqan yurtda yashashga ko'nixsin.

Lekin kunlarning birida mana shu chumchuq shunaqa muguzda o'tirgan ekan, chaqirtikanaklarga tiki-laverish joniga tegibdi, muguzdan muguzga uchib o'taverishdan bezor bo'libdi. Oxiri alamiga chidayol-may, ko'rmay ham, kuymay ham, degandek ko'zlarini chirt yumib olibdi. Aloha... paq etib dilgirlik kasaliga yo'liqqan qushga aylanib qolibdi. Dilgir odamni nima uchundir intelligent deb atash rasm bo'lgan. Bundan chiqdi dilgir chumchuq ham intelligent bo'ladi-da! Odamlarning tushunchasidagi intelligentlik xususiyati shu chog'gacha bitta-yarimtasiga baxt keltirganini bil-mayman... Shu tariqa muguz tepasida o'tirgan shaydoyi dilgir chumchuq ko'ngliga «lop» etib o'zini o'ldirish fikri kelgan. U donishmandlarga xos istehzo bilan te-varak-atrofga nazar tashlabdi, uning mitti ko'zlarida qat'iy qaror ifodasi zuhur etib turardi. U uch-to'rt bor chirqillabdi, so'ng bir nafas o'tgach, yana so'nggi bor xuddi bir nimani iltijo qilayotgandek zorlanib, uzoq chirqirabdi. Bamisli bu iltijosi bilan qayg'u-hasratlari-ni ifoda etmoqchi bo'layotgandek... so'ng, qanotlarini yoyib, birdan yuqoriga otilibdi va o'sha yuksaklikdan o'tkir va chayir chaqirtikanaklar ustiga o'zini tashlab-di-yu, to'ppa-to'g'ri xanjar tig'idek tikanga ko'ksi bilan sanchilibdi.

Qisqasi, chumchuq chaqirtikanakka sanchilganча turaveribdi. Uning behol va momiq qanotlari bilan ipak-dek patlarini shamol yulqilab, sanchilib qolgan nashtar tegrasida parrakdek chir aylantirib o'ynabdi. Shamol-ning kuchini bilasiz-ku!

„Bu bemaza voqeadan nima foyda?» – deya menga qichqiradi kimdir. O', qadrli, soddadil kitobxon do's-tim! Biz yashayotgan dunyoda hayotiy, axloqiy va mah-dudona bemazagarchiliklar kammi? Har qadamda yuz

bermaydimi?! Ertakdan nima kutmoqchi bo'lyapsan? Hech kimga zarra qadar zarar keltirmaydigan allaqanday g'ayritabiiy narsalar deb menga jahl bilan iddao qilishing shartmi?

### **Chumchuq armonlari**

...Shoxda o'tirgan, taqdiridan norozi, horg'in chumchuq parranda zotini yaratayotganda bor san'atini ishga solmagan tabiatga nafrat bilan tikiladi. U bulbuldan hazar qiladi. Narsalarni ko'r-ko'rona yaratish oqibati mening azob-uqubatlarim sababchisidir, deb o'ylaydi chumchuq va bu fikrdan ozgina yengil tortadi. Ongining teran qatlamlaridagi faylasuf uyg'onmoqda. (Buning hech ajablanarli yeri yo'q: o'z taqdiridan norozi bo'lish darajasiga yetgan jon borki, tom ma'nodagi faylasufga aylanmasligining iloji yo'q.)

Aql-idrokining teranligidan hayratlanayotgan chumchuq bulbuldek xonish qila olmasligidan shunchalar norozi ediki, azbaroyi o'zini yaratgan tabiatga qarshi isyon ko'tarishga ham tayyor edi! Biroq faylasuf chumchuq isyonkor chumchuqni yengishga qodir! Beholgina «chiq-chiriq» qilganча shoxdan uy peshtoqiga uchib o'tadi. O'sha yerdan turib orsiz faylasuf yayrab-yayrab sayraydi: «Chiq-chiriq, chiq-chiriq, chiq-chiriq».

Chumchuqlar ongi rivojlanib, inson ongining hozirgi darajasiga yetmaguncha bu qush shunaqa betayin, g'alati kayfiyatda million yil yashashi ham mumkin. Bu tomonlarda yashayotgan bashar farzandlari ungacha o'zaro nifoq, hasad (chumchuqning bulbulga bo'lgan hasadiga o'xshash) va ichiqoralik illatlaridan xalos bo'larsiz, balki, million yil binoyidek muddat... Nima dedingiz? To'g'ri, abadiyat oldida bu million yil nima degan gap?!

## MUNDARIJA

<b>Arno Gayger.</b> Quvg'indagi keksa qirol <i>Nemis tilidan M. Akbarov tarjimasi</i> .....	5
<b>Kamol Stofa.</b> Kuzning mash'um aybnomalari <i>Rus tilidan O. Otaxon tarjimasi</i> .....	147
<b>Vali Stofa.</b> Qo'shiq zavoli <i>Rus tilidan O. Otaxon tarjimasi</i> .....	151
<b>Midyeni.</b> Chumchuqning halokati <i>Rus tilidan O. Otaxon tarjimasi</i> .....	156



ARNO GAYGER

QUVG'INDAGI  
KEKSA QIROL

*Arno Gayger 1968-yilda Bregents (Avstriya)da tug'ilgan iste'dodli yozuvchi. Uning ko'plab hikoya, qissa va romanlari chop etilgan.*

*2011-yilda nashr qilingan „Quvg'indagi keksa qirol“ qissasi adibga dunyo miqyosida shuhrat keltirdi. Asar jahonning ko'pgina tillariga tarjima qilinib, kitobxonlar mehrini qozondi.*



 t.me/zyonashr  
 fb.com/zyo.nashr  
 zyonashr@mail.ru



ISBN 978-9943-6339-8-8



9 789943 633988